

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



DEFEKTOLOGIYA

Reabilitatsion pedagogika

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA

A	B	V	G	D	E	Ж
З	И	Й	К	Л	М	Н
О	П	Р	С	Т	У	Ф
Х	Ц	Ч	Ш	Щ	Ъ	Ы
	Ь	Э	Ю	Я		

TOSHKENT-2022



Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchilar: p.f.n., dots. Y.Y.Chicherina
p.f.n., dots. D.Nurkeldiyeva

Taqrizchilar: p.f.d., prof. L. R.Mo‘minova
p.f.n., prof. M.Yu.Ayupova

Xorijiy ekspert: p.f.d., professor O.S.Orlova – Rossiya, Moskva davlat pedagogika universiteti.

O‘quv-uslubiy majmua TDPU Kengashining 2020 yil 27 avgustdagi 1/3.6- sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.



MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI.....	8
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	20
IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	98
V. KEYSLAR BANKI	118
VI. GLOSSARIY.....	126
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	133



I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Kursni o'zlashtirish jarayonida tinglovchilar nogironlikni ijtimoiy tushunchalarini o'zlashtiradilar, nogironligi bo'lgan kishilarga nisbatan munosabatda stereotiplarni aniqlash va ularni yengib o'tish usullarini, amaliyotda kamsitishga qarshi yondoshuvni qo'llashni va to'g'ri tildan foydalanishni o'rganadilar. Tinglovchilar nogironligi bo'lgan bolalarning psixofiziologik rivojlanishi, uning alohida ehtiyojlari hamda hayotiy bosqichlari va uning oilasining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishadilar, ijtimoiy xizmat va norasmiy uyushmalar faoliyati asosida huquqiy, ijtimoiy, ta'lim, tibbiyot, abilitatsion va reabilitatsion resurslar haqida ma'lumotlarni oladilar.

Kurs davomida quyidagi turli hil interfaol usullardan foydalaniladi: hodisalarni o'rganish, kinofilmlarni tomosha qilish va muhokama qilish, badiiy adabiyotlarni o'qish, ommaviy axborot vositalari materiallarini kontent - tahlil qilish, kichik ma'ruza, amaliy ish, rolli o'yinlar, guruhlarning turli muammolar bo'yicha chiqishlari, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish usullari.

Ta'lim jarayonida videomateriallardan foydalanish alohida ahamiyatga ega, chunki ushbu videomateriallar nogironligi bo'lgan kishilar va bolalar hayotini hamda ularning imkoniyatlarini, ijtimoiy yordam va ijtimoiy yordam olish imkoniyatlarini ular uchun ochiq bo'lishi ularning hayotiga qanday ta'sir etishini ko'rgazmali holda ko'rsatish imkonini beradi. Birinchi navbatda, mahalliy hujjatlar, materiallardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Materiallarni muhokama etishda tinglovchilarni hissiy tomondan jalb etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda nogironligi bo'lgan bolalar yoki kishilarga nisbatan rahm-shafqat yoki xayr-sahovat ko'rsatish asosida emas, balki inson huquqlarini himoya etish va teng imkoniyatlarni ta'minlash yondoshuvini shakllantirish lozimdir.

Modulning maqsadi va vazifalari

“Reabilitatsion pedagogika” modulining maqsadi: tinglovchilarga maxsus pedagogika rivojlanishining zamonaviy va dolzarb yo'nalishlari, maqsadi va vazifalari, reabilitatsion pedagogika tushunchasi, konsepsiyasi maqsad va vazifalari haqida bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishdan iborat qaratilgan.

“Reabilitatsion pedagogika” modulining vazifasi: tinglovchilarni nogironlikka ega bo'lgan, rivojlanishida nusonli bolalar va kattalarning barcha qobiliyatlarini va potensialini rivojlantirishga, ularni maksimal darajada mustaqil, birovga qaram bo'lmagan hayotga erishishi uchun uning uzluksiz ta'limi vositasida, samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanib jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash haqidagi hujjatlar, ilg'or ta'lim texnologiyalarining dolzarb muammolari va zamonaviy konsepsiyalari, pedagogik mahorat asoslari, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, pedagogning shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalash, axborot xavfsizligi, pedagog kadrlarning malakasini oshirish sifatini baholash ishlari mazmunini o'rganishga yo'naltirishdan iborat.



Modulni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar

“Reabilitatsion pedagogika” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ta’lim sohasida davlat siyosati va boshqa qonunchilik hamda huquqiy-me’yoriy hujjatlarni;
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa qonun hujjatlarining qabul qilinishi, mohiyati va ahamiyatini;
- mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini;
- ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini;
- maxsus ta’lim sohasidagi innovatsiyalarni;
- jamiyatni va ta’limni axborotlashtirish texnologiyalarini;
- Maxsus pedagogikaning taraqqiyot yo‘nalishlari va innovatsiyalarini;
- Defektologiya (maxsus pedagogika) fanlarini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlarni **bilishi** kerak.
- o‘quv-uslubiy faoliyatni taokimlashshtirishning samarali shakl, metod va vositalari, innovatsion ta’lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etish, elektron ta’lim resurslarini yaratish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va o‘qitish amaliyotida keng qo‘llash, ijodkorlik **ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishi** zarur;
- oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonlarni samarali tashkil etish, uslubiy faoliyatini tizimli rivojlantirish **kompetensiyalarga ega bo‘lishi** lozim.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

Modul mazmuni o‘quv rejadagi “Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari”, “Innovatsion ta’lim texnologiyalari”, “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari”, “Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning sohaga oid kompetentlik darajasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta’lim sifatini oshirish, o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalashda innovatsiyalarning o‘rni va ularni maqsadli yo‘naltirishga oid zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtiradilar hamda oliy ta’lim muassasasi amaliyotiga keng tatbiq etadilar.



Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:

№	Modul mavzulari	Jami	Jumladan	
			Nazariy	Amaliy mashg' ulot
1.	Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy, tibbiy va psixologik asoslari	4	2	2
2.	Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli	4	2	2
3.	Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalarni parvarishlash, tarbiyalash va rivojlantirishga o'rgatish.	6	2	4
4.	Reabilitatsion pedagogikada ergoterapevtik texnologiyalar	6	2	4
Jami:		20	8	12

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy, tibbiy va psixologik asoslari (2 soat)

Reabilitatsion pedagogika – maxsus pedagogikaning yo'nalishi sifatida. Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy asoslari. Reabilitatsion pedagogikaning tibbiy asoslari. Reabilitatsion pedagogikaning psixologik asoslari

2-mavzu: Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli (2 soat)

Me'yorlashtirish tamoyilining mazmuni. Me'yorlashtirish tamoyilining moddalari va ijtimoiy-maishiy moslashuv. Intellektual nuqsonga ega bo'lgan odamlarni Me'yorlashtirish jarayonining afzalliklari. Integratsiya va uning turlari. Psixik va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar va kattalarda hayotiy malakalarni shakllantirish va ijtimoiy xizmatlar.

3-mavzu: Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalarni parvarishlash, tarbiyalash va rivojlantirishga o'rgatish (2 soat)

Psixik va jismoniy nuqsongacha ega bo'lgan bolalar oilasining ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasi. Psixik va jismoniy nuqsongacha ega bo'lgan bolalar



oilasidagi o'zaro munosabatlar. Psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarning mustaqil hayoti.

4-mavzu. Reabilitatsion pedagogikada ergoterapevtik texnologiyalar (2 soat)

Ergoterapiya - soxalararo faoliyat sifatida. Mustaqil ovqatlanish va ichishga o'rgatish. Yuvinish, cho'milish va shaxsiy gigiena malakalariga o'rgatish. Mustaqil kiyinishga o'rgatish. Kommunikativ malakalarni rivojlantirish. To'g'ri ijtimoiy xulqni tarbiyalash.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy, tibbiy va psixologik asoslari (2 soat)

Nogironlik va inkor etilganlik. Nogironlik tushunchasi. Vaziyatga moslangan rolli o'yin. Kasalliklarning xalqaro tasnifini tahlili. Nogironlikning ijtimoiy tushunchasini mustahkamlash va ijtimoiy modelga asoslangan holda tahlil o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish. Keyslar tahlili.

2-mavzu. Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli (2 soat)

Maxsus pedagogning umumqabul qilingan va amaliy rollari hamda vazifalari. Reabilitatsion pedagogning mijozlarni hayot ining turli bosqichlarida roli va funksiyalari. Reabilitatsion pedagog uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, qadriyatlar. Reabilitatsion pedagogikadagi samarali amaliyotning to'rt komponentlari»

3-mavzu. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalarni parvarishlash, tarbiyalash va rivojlantirishga o'rgatish (4 soat)

Tinglovchilarni nogironligi bo'lgan bola oilasining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish. Nogironligi bo'lgan bola oilasi duch keladigan ijtimoiy qiyinchiliklarning tahlili. Maxsus pedagogning nogiron farzandlari bo'lgan ota-onalar bilan ish olib borish shakllari. Oilaviy albom mashqi. "Xuddi kapalakdek" filmining muhokamasi.

4-mavzu. Reabilitatsion pedagogikada ergoterapevtik texnologiyalar (4soat)

Ergoterapiya fanining haqidagi tushunchalarning tahlili. Mustaqil ovqatlanish va ichishga o'rgatish ishlarining tahlili. Yuvinish, cho'milish va shaxsiy gigiena malakalariga o'rgatish yo'llarini tahlili. Mustaqil kiyinishga o'rgatish ishlarini. Kommunikativ malakalarni rivojlantirish. To'g'ri ijtimoiy xulqni tarbiyalash.



II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. **Interfaol metodlar** deganda-ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va

munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda –yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida (2.7-chizma) “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;

2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g’oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g’oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang’ich bilimlarini tekshirib ko’rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg’otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to’g’ri qo’ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o’quv materialini o’rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo’llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo’lishga, bir-biridan o’rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo’ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo’llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo’ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o’zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.





“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta‘lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta‘lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta‘lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba‘zi kichik guruhlarda kuchsiz ta‘lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta‘lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta‘lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.


“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta‘lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta‘lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta‘lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

**Belgilar:**

1-ta'lim oluvchilar
2-aylana stol

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan





“Davra suhbatı” metodining tuzilmasi

“Davra suhbatı” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta‘lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
4. Ta‘lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.
5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta‘lim oluvchining o‘ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertdagi “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta‘lim oluvchilarni muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta‘lim oluvchilar o‘zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta‘lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta‘lim beruvchi ham ta‘lim oluvchilarni ob‘ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbatı” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta‘lim oluvchi o‘zining baholanishi mas‘uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbatı” metodining kamchiliklari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta‘lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.


“Rolli o‘yin” metodi - ta‘lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta‘lim oluvchilar ta‘lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan

kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta‘lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta‘lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta‘lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta‘lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.


“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo‘yicha ta‘lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta‘lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta‘lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta‘lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta‘lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o‘tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta‘lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o‘zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.





“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo’yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g’oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga o’z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g’oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo’yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:


- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o’z fikrining to’g’riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo’lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo’yicha ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo’yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo’lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so’nishiga, o’zlariga bo’lgan ishonchlarining yo’qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo’llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o’rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o'rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to'g'risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so'ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo'llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;

- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.


“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi - bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhli bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:



1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.

2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta'lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.

4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Muhandis-pedagog va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhli ish;
- jamoa ishi.



III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy, tibbiy va psixologik asoslari

Reja:

1. Reabilitatsion pedagogika – maxsus pedagogikaning yo‘nalishi sifatida
2. Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy asoslari
3. Reabilitatsion pedagogikaning tibbiy asoslari
4. Reabilitatsion pedagogikaning psixologik asoslari

Tayanch tushunchalar: reabilitatsionnaya pedagogika, nogironlikning ijtimoiy modeli, inson rivojlanishining ekologik nazariyasi funkcionirovaniya (hayotiy ko‘nikma va malakalarning) xalaro modeli, organizm funksiyalari, organizmning tuzilishi, faollik va ishtirok, rivojlanishning geteroxronlligi, senzitiv davr, ikkilamchi nuqsonlar, egiluvchanlik va kompensatsiyalash imkoniyalari, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar.

Reabilitatsion pedagogika-maxsus pedagogikaning yo‘nalishi sifatida.

O‘zbekiston respublikasining “O‘zbekiston respublikasida Nogironlarni ijtimoiy himoyasi” qonuniga muvofiq nogironlarni reabilitatsiya qilish - bu O‘zbekiston Respublikasining boshqa barcha fuqarolari bilan teng imkoniyatlarni ta‘minlash, ularning turmush faoliyatidagi cheklashlarni bartaraf etish, nogironlarni to‘laqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy turmushida faol qatnashishlariga, shuningdek o‘zlarining fuqarolik burchlarini bajarishlariga imkon beradigan qulay shart-sharoit yaratish maqsadida davlatning nogironlarga oid siyosatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi salomatligini muhofaza qilishga, nogironlikning oldini olishga va nogironlarning jamiyat bilan uyg‘unlashib ketishi uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan tibbiy, ijtimoiy, psixologik, pedagogik, jismoniy, kasbiy tadbirlar ularga yo‘qotilgan yoki buzilgan funksiyalarini tiklash, kompensatsiya qilish, hayot faoliyatidagi cheklanishlarini tarbaraf etishda yordam ko‘rsatish amalga oshiriladi.

Davlat nogironlarning ijtimoiy himoya qilinishini ta‘minlab, tegishli davlat dasturlarida nogironlarning ehtiyojlarini hisobga olish, salomatligini saqlash, mehnat qilish, bilim olish va kasb o‘rganish, uy-joyli bo‘lish va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni ro‘yobga chiqarishda to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida qonunlarda ko‘zda tutilgan shakllarda ularga ijtimoiy yordam berish yo‘li bilan ularning xos kamol topishlari, ijodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlarini hamda qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib beradi. Davlat nogiron bolalar to‘g‘risida alohida g‘amxo‘rlik qiladi.

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning masadi ularning ijtimoiy statusini, o‘ziga-o‘zi xizmat qilishi qobiliyatlarini tiklash, kasbiy faoliyatning turli krinishlari bilan shug‘ullanish, to‘laqonli hayot kechirishga va o‘zlarining huquqlarini va potensial imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishlariga imkon yaratishni nazarda tutadi. Har bir



nogironlikka ega bo'lgan inson davlat organlari tomonidan zarur yakka reabilitatsiya dasturini tuzilish huquqiga ega.

Nogironlikka ega bo'lgan katta yoshdagi va bolalarning reabilitatsiyasida pedagogik texnologiyalarning roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi vaqtda ham reabilitatsion-pedagogik faoliyatning nazariy sohasi yetarlicha o'rganilmagan. Reabilitatsion pedagogika- fan va o'quv predmeti sifatida shakllanish bosqichida bo'lib asosiy kategoriyalar va tushunchalarni ta'riflashda, predmeti va vazifalarni belgilashda turdosh sohalar, masalan maxsus pedagogika, ijtimoiy pedagogika, pedagogik psixologiya, ergoterapiya kabi fanlar orasida ko'plab munozarali tomonlarga ega.

Ushbu bilim sohalarining, ilmiy fanlarning predmeti va ob'ektini belgilashda qiyinchiliklar ularning o'zlari ham jadal rivojlanib borayotganliklari bilan izohlanadi. Masalan, "defektologiya" termini kamsitilish sifatida qo'llanilishi, faqatgina muammolarga, nuqsonlarga e'tibor berishi, bolaning kuchli tomonlariga diqqat qaratilmasligi bilan qo'llanilishdan chiqib bormoqda. Uning o'rniga g'arbiy yevropa mamlakatlarida, AQSh an'anaviy tarzda qo'llaniladigan "maxsus ta'lim" yoki "maxsus pedagogika" atamalari kirib keldi.

Avval defektologiyaning o'rganish predmeti maktabgacha va maktab yoshidagi rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalashning tamoyillari, yo'llari, metodlari, usullari va tashkiliy shakllari edi. Hozir vaqtda esa rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga maxsus psixologik-pedagogik yordamni ilk yoshdan boshlash zarurligini isbotlab bergan ko'plab ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, shuningdek, uzluksiz ta'lim konsepsiyasiga asosan maxsus pedagogika inson hayotining barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Defektologiyaning maqsad va vazifalari bolani iloji boricha "me'yorga" yetkazish uchun nuqsonni korreksiyalash, og'ishishni korreksiyalash kompensatsiyalash, umuta'lim dasturi mazmuni bo'yicha ta'lim berishga yaqinlashtirish yo'llarini, usullarini, "nuqsonli bolani" izlash bo'lgan. Hozirgi vaqtda maxsus pedagogika nogironlikka ega bo'lgan, rivojlanishida nusonli bolalar va kattalarning barcha qobiliyatlarini va potensialini rivojlantirishga, ularni maksimal darajada mustaqil, bironvga qaram bo'lmagan hayotga erishishi uchun uning uzluksiz ta'limi vositasida, samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanib jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratadi.

Hozirgi zamon maxsus pedagogikasida psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan insonning butun hayoti bosqichlarida ijtimoiy moslashuv va integratsiya, abilitatsiya va reabilitatsiya qilish jarayonlarini o'rganish bilan bog'liq bo'lgan yangi yo'nalishlar ajratilgan. Bu yo'nalish pedagogika, psixologiya, tibbiyot, ijtimoiy ish va ergoterapiya sohalarini bilan bog'liqlikda rivojlanmoqda. U o'ziga quyidagi nazariya va amaliyotlarni qamrab olgan:

- ilk yoshdagi bolalarga maxsus pedagogik yordam;
- psixik va jismoniy nuqsonlari, shu jumladan og'ir aqliy nuqsonga, mujassam nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar va kattalarda ijtimoiy-maishiy orientatsiya va hayot uchun zarur bo'lgan malakalarni shakllantirish;



- ta'limda alohida ehtiyojlari bo'lgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalari bo'yicha oilalarni va mutaxassislariga maslahatlar berish;
- rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish, kasbga tayyorlash, kasbga doir maslahatlar va ijtimoiy-mehnatga moslashuvi.

Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy asoslari

Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy asoslariga nogironlikni tushunishning ijtimoiy modeli va inson rivojlanishining ekologik nazariyasi kiritiladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan nogironlik tushunchasi o'ziga quyidagilarni qiritadi:

1) Impairments - psixik, fiziologik, yoki anatomik jihatdan me'yordan og'ishish, yetishmovchilik;

2) Disability – u yoki bu jihatdan me'yorda hisoblangan biror-bir faoliyatni amalga oshirishdagi cheklanish, amalga oshirish qobiliyatini yo'qotish;

3) Handicap - ijtimoiy ustanovkalar bilan o'zaro aloqadorlikda qabul qilinadigan, jamiyat tomonidan beriladigan xizmatlar va imkoniyatlardan foydalana olmaslik, ijtimoiy dezadaptatsiya, samarasiz yoki sekinlashga ijtimoiylashuv;

Rus psixologi L.S. Vigotskiy: «shaxsning taqdirini nuqson emas, balki uning ijtimoiy asoratlari, uni ijtimoiy-psixologik amalga oshirish hal etadi. Kompensatsiya jarayonlari shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri kamchilikni to'ldirishga emas, balki uning natijasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratiladi», deb ta'kidlagan.

Shunday qilib, ikki nafar bir xil kamchilikka ega bo'lgan bolalar jamiyatda mutlaqo turli rol o'ynashi mumkin: jamiyatning faol a'zosi, jamiyatning rivojlanishiga o'z hissanisini qo'shishi, to'laqonli hayot kechirishi mumkin yoki boshqalarga qaram bo'lib, o'zini jamiyatdan chetda qolishi mumkin.

“Nogironlikning yakka-tibbiy modeli. Nogironlikning an'anaviy tushunchasi inson salomatligi bilan nimadir “joyida” emasligiga qaratilgan. Bunday qarash nogironlikni jismoniy buzilishga tenglashtirib qo'yadi. Shunday qilib, jismoniy imkoniyati cheklanganlikka ko'zi ojizlik, karlik, odam qiynalib yoki butunlay harakatlanmaydigan, gapirmaydigan turli holatlar, psixik kasalliklar, shuningdek, Daun sindromi va epilepsiya holati taalluqlidir. Jismoniy imkoniyati cheklanganlikka bunday tibbiy qarashni ko'pincha nogironlikning tibbiy modeli deb ataydilar.

Umuman olganda, qachonki nogironlik shaxs sog'ligi muammosi sifatida konseptuallashtirilsa, imkoniyati cheklangan odamlar ijtimoiy jihatdan qabul qilinadi va ular o'zlarini barcha boshqa narsalar orasida qandaydir umidsiz, nome'yoriy sifatda, har turli tibbiy va reabilitatsion intervensiyalar uchun patsinetlar va yoki tobe ob'ektlar kabi anglaydilar. Kimdir nogironlikni tibbiy prizma orqali ko'rib chiqayotgan paytda jismoniy cheklashi bo'lgan odamlar bilan ish olib borishga to'g'ri keladigan noxush ijtimoiy oqibatlarning mavjudligi tan olinishi mumkin, ushbu paradigma ichida ijtimoiy hayotdan chiqarish ko'p hollarda nogironlik iz qoldirgan cheklash natijasi sifatida ko'riladi.

Modomiki, bunday holda muammo toza tibbiy deb ifodalanar ekan, unda shunga muvofiq u asosan davolash va reabilitatsiya orqali hal qilinadi; reabilitatsiya ba'zi hollarda maxsus institusional tashkilotlarda yakkalab qo'yishni talab qiladi. Bunday ish imkoniyati cheklangan odamlarga g'amxo'rlik qilish va himoyalashni ta'minlash

maqsadida maxsus professionallar tomonidan institusionalizatsiya hollaridagi kabi “me’yoriy ishlash”ni tiklashni ta’minlash uchun olib boriladi.

Nogironlikning ijtimoiy modeli - “Bizni kasalligimiz emas, jamiyat nogiron qiladi”. Nogironlikning ijtimoiy modeli sifatida asta-sekin bir holatdan ikkinchi holatga o’tuvchi nogironlikka an’anaviy yondoshuvni tanqid qilish Buyuk Britaniyaning imkoniyati cheklangan odamlar harakati ichida o’tgan asrning 70-yillarida yuzaga kelishni boshladi. Bu harakat individuallashgan tibbiy konsepsiyaning radikal alternativasi taklif qildi. Unda ta’kidlanishicha, imkoniyati cheklangan odamlar noxush holatlarda o’zlarining kasalliklari tufayli emas, balki ularga ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy to’siqlar iz qoldirgan cheklash, shuningdek, ularni o’rab turgan mavjud muhit to’siqlari qamrovida qoladilar. Bunday aniq ifodaga binoan nogironlik tushunchasi salomatlik yoki patologiya bilan emas, balki kamsitish va ijtimoiy quvish bilan bog’liqdir. Ijtimoiy modelning istiqboli nuqtai nazarida – bu ijtimoiy-siyosiy muammo. Bu, o’z navbatida, olib borilayotgan siyosatning asosan yuqorida aytib o’tilgan to’siqlar, shuningdek, insoniy va fuqarolik huquqlariga urg’uni aniq yo’lga qo’yishga taalluqli ustuvorliklarini tanlashda fundamental farqlarga olib keladi.

Individual “nome’yoriylik” va tibbiy modelga xarakterli bo’lgan dastlabki davro to’g’risidagi boshlang’ich tasavvurdan farqli ravishda baribir implitsit tarzda u yoki bu jismoniy cheklashni “me’yoriylik” deb tan oladi. Bundan tashqari, tibbiyot yutuqlari imkoniyati cheklangan odamlar miqdorini kamaytirmadi, aksincha, uni ahamiyatli ravishda oshirdi, shunchaki odamlar uzoqroq yashay boshladilar, biroq endi og’ir kasalliklar va jarohatlarda ko’proq yashovchan bo’lib qoldilar. Qaysidir ma’noda imkoniyati cheklangan odamlar proporsiyasi jamiyatning iqtisodiy farovonligida yaxshi indikator bo’lib qoladilar.

Keskin akademik va siyosiy tortishuvlar ichida bo’lgani kabi cheklangan imkoniyatli odamlarning ijtimoiy model xarakteri va uning relivantligiga nisbatan, shuningdek, u yoki bu vaziyatda uni aniq qo’llash yo’llari to’g’risidagi bahs-munozaralar jamoatchilik harakatlaridan tashqarida ham davom etmoqda¹. “Keng ma’noda nogironlikning ijtimoiy modeli iqtisodiy va madaniy to’siqlarga, shuningdek, ulardagi jismoniy, sensor yoki intellektual cheklashlar mavjudligiga zararli oqibat sifatida qarovchi boshqa odamlar bilan to’qnashadigan atrof-muhit to’siqlariga markaz sifatida qarash demakdir” (Mayk Oliver)².

Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy asoslariga shuningdek, Bronfenbrennning inson rivojlanishining ekologik nazariyasi ham kiritiladi.

Bu nazariyaga asosan insonning rivojlanishi- faol rivojlanayotgan inson va uning qurshab olgan, dinamik o’zgarayotgan atrof-muhit o’rtasidagi o’zaro akkomodatsiya jarayoni (moslashuv va moslashishi), shuningdek, bu atrof-muhit bilan o’zaro aloqadorlik va bu muhitga kiritilgan ekologik kontekstdir.

¹ Қаранг, масалан: Barnes, C. and Mercer, G. (eds.), Implementing the social model of disability: theory and research, Leeds, 2004, шунингдек, ушбу мавзу бўйича Disability and Society журналдаги мақолалар. www.leeds.ac.uk/disability-studies/archiveuk/ сайтидан фойдали материалларни топиш мумкин.

² Mike Oliver, ‘The social model in action: If I had a hammer’, in Barnes, C. and Mercer, G. (eds.), Implementing the social model of disability: Theory and research, Leeds, 2004, p.21.



Har bir shaxs o'zgarishi ancha katta ijtimoiy va madaniy sistema asosida ko'riladi. Masalan, bolaning o'qiy olmasligining sababini unda organik patologiyaning mavjudligi jihatidan ham, shuningdek, maktabda qo'llaniladigan metodlarni o'rganish, maktab va bolaning oilasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, shuningdek, umuman ta'lim tizimi imkoniyatlarini tadqiq etish orqali ham ko'rish mumkin. Bronfenbr ijtimoiy sistemaning quyidagi turlarini ajratgan:

- mikro-, mezo-, ekzo- i makrosistemalar.

Mikrosistemani rivojlanayotgan shaxsning atrofdagilar bilan shaxslararo munosabatlari, harakatlari va roli tashkil etadi. Masalan, oilada mikrosistemani bola va ota-onalarning munosabatlarini, uning aka yoki opasi, shuningdek oilaning boshqa a'zolari bilan munosabatlari tashkil etadi. Maktabda o'quvchi va o'qituvchi, o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatlari kiradi.

Mezosistema – inson kirgan ikki va undan ortiq mikrosistemaning o'zaro aloqadorligini ta'riflaydi. Bu tizim oila va maktab, ijtimoiy xizmatlar agentligi, oila va qo'shnilar, maktab va tengdoshlari guruhini o'z ichiga olishi mumkin.

Ekzosistema inson bevosita kiritilmagan institutlar bo'lib, ammo inson kirgan mikrosistema orqali ta'sir ko'rsatadi. Ekzosistema o'ziga masalan, ta'lim olish imkoniyatlarining omillarini (ta'lim olishga imkoniyat va maxsus ta'lim dasturlarining shakllari, mazmuni, darsliklarning va o'quv materiallarining sifati); sog'liqni saqlash (narxi, sifati va imkoniyatini, tibbiy tadbirlar sifati); ijtimoiy ta'minot (bolalikdan nogironlar nafaqasi, onaning ishlamaslik imkoniyatlari yoki bolani kunduzgi parvarishlash markazlarga joylashtirish imkoniyatlari); ommaviy-axborot vositalari (nogironlarni jamiyatda qabul qilinishlariga ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek, bolani oilada qabul qilinishi va shu asosida tarbiya tizimini qurilishiga ta'sir qo'rsatadigan) qatrab oladi.

Makrosistema jamiyatdagi madaniy qadriyatlarning o'z ichiga oladi, masalan, ko'zi ojiz bolaning taqdiri jamiyatda turlicha bo'lib, u iloxiylashtirilishi yoki doimo qaram bo'lgan baxtsiz nogiron sifatida qaralishi mumkin. Makrosistemaga iqtisodiy va siyosiy omillar ham kiritiladi.

D.Bronfenbrenner tomonidan aniqlangan sistemadan tashqari B.Belski «ontogenetik sistema» tushunchasini kiritgan. Bu sistema insonning shaxsiy tavsiflarini o'z ichiga oladi. B.Belski bu sistema e'tiborga olinmagan taqdirda insonning kiritilgan mikrosistemadagi individual farqlanishi e'tiborga olinmaydi, deb ta'kidlagan.

Ekosistem yondoshishi reabilitatsion pedagogga uning faoliyatini barcha bosqichlarida alohida ehtiyojli bola va katta odamga samarali yordam ko'rsata olishga yordam beradi. Muammoni o'rganishda uning sababalari va darajasini aniqlashga imkon yaratadi. Rejalashtirish ham majmuaviy xarakter kasb etib, bola bevosita yoki bilvosita kiritilgan barcha ijtimoiy kontekstlardagi resurslarni e'tiborga olish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, eng bir eng muhim tomoni, reabilitatsion pedagog o'zi ham reabilitatsiya qilinayotgan shaxsning ekologik sistemasining bir qismi ekanligini anglaydi va uning har bir harakati turli darajadagi o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, o'zining ishini samaraliligini tahlil qilayotib kasbiy



samorefleksiyaning amalga oshirishda reabilitatsion pedagog o'zining mehnati natijalarini to'g'ri baholay oladi³.

Reabilitatsion pedagogikaning tibbiy asoslari

Reabilitatsion pedagogikaning tibbiy asoslariga Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan uch turdagi sog'liqni turli jihatlarini tavsiflovchi va turli maqsadlarni ko'zlovchi sog'likni turli tomonlarini Xalqaro tasnifi ishlab chiqilgan (MKB –kasalliklarning xalqaro tasnifi, International Classification of Diseases, ICD klassifikatsiyasi (International Classification of Health Interventions), Funkzionirovaniyani, hayotiy faoliyat va sog'liqni cheklanganligining xalqaro tasnifi (MKF, International Classification of Functioning, Disability and Health).

KXT (kasalliklarning xalqaro tasnifi) axolining sog'lig'i holatini monitoring qilishni tashkil etishda asosiy mezon bo'lib, sog'liqni saqlash tizimida moliyalashtirish va resurslarni taqsimlashda qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda kasalliklarning xalqaro tasnifining 10 ko'rinishi, 2015 ymola esa 15 qayta ko'rishi yakunlandi.

Turli mamalakatlarida tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini solishtirish va uni rivojlantirish bo'yicha Tibbiy xizmatlarning Xalqaro Tasnifi (TXXT) ishlab chiqilmoqda. Ushbu tasnifning o'xshashlari (prototiplari) mavjud bo'lib, unga operativ aralashuvning Birinchi tasnifi ham kiradi.

KXT (kasalliklarning xalqaro tasnifi) xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining barcha a'zolari tomonidan 22 may 2001 yildagi jahon sog'liqni saqlash assambleyasi sessiyasida sog'liqni buzilishlari darajasini aniqlash va tasvirlash uchun ma'qullangan.

Bu tasnifning o'ziga xos xususiyati ekologik yondashuv bo'lib, funkzionirovanieni inson salomatligini organizm darajasidagi integrativ ko'rsatkichi sifatida qarashga imkon beradi.

KXT sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya qilish, ta'lim, huquq, gigiena kabi sohalarda mutaxassislar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

Kasalliklarning xalqaro tasnifi Birlashgan Millatlar tashkilotining "Hayot faoliyatlarida cheklanishlari bo'lgan shaxslar uchun teng imknoiyatlarni yaratish bo'yicha standart qoidalari BMT Bosh Assambleyasi 20-dekabr 1993 yil 48-sessiyasida tasdiqlangan.

Ko'p maqsadli tasnif sifatida kasalliklarning xalqaro tasnifi individual reabilitatsiya yoki o'quv dasturlari ishlab chiqishda, ularning samaraliligini va amalga oshirishni baholashda, davolov metodlarini taqqoslash tadqiqotlarida, reabilitatsiya va o'quv, tibbiy va ijtimoiy ekspertizadan o'tkazishda, ijtimoiy dasturlarni boshqarish, hayot sifatini baholashda va hokazolarda mutaxassilar tomonidan foydalanishga qaratilgan.

Tug'ilgandan to 18 yoshgacha funkzionirovaniening (hayotiy ko'nikma va malakalarni) xususiyatlarni uchun xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari tomonidan 2007 bolalar va o'smirlar uchun KXT (KXT-bolalar va o'smirlar)

³ Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA. CHAPTER 2: The Kind of Knowledge Needed to Support Practice, 8-17 pages.



Classification of Functioning, Disability and Health, version for Children and Youth) ishlab chilgan va qabul qilingan.

Bolalar va o'smirlarni uchun funkcionirovanie, hayot faoliyatini cheklangaligining (hayotiy ko'nima va malakalar) xalqaro tasnifining qisqacha tavsifi

Bolalar va o'smirlar kasalliklarining xalqaro tasnifi bolaning atrof-muhit va shaxsiy (shaxsiy) omillar kontekstida hayotiy ko'nima va malakalarining yakka yondoshuvini aniqlashni unitsifikatsiya qiladigan soxalararo ta'sir etishga imkon yaratadi. KXT –BO' (bolalar va o'smirlar) terminlarida bola faqatgina nuqsonga, kamchilikka ega, qandaydir bir tashxis ega emas, balki o'zining qobiliyatlari va cheklanishlari bo'lgan, tegishli qo'llab-quvvatlashga muxtoj sub'ekt sifatida qabul qilinadi.

KXT-BO' funkcionirovanie va kontekst profilini aniqlashga qaratilgan bo'lib 2 qismdan iborat.

Bolalar va o'smirlarni uchun funkcionirovanie, hayot faoliyatini cheklangaligining (hayotiy ko'nima va malakalar) xalqaro tasnifining tuzilishi va uning kasalliklarning xalqaro tasnifi bilan bog'liqligi

KXT –BO' qismlari har bir tuzilmalari o'z ichiga kategoriyalardan tashkil topgan olgan domenlarni kiritgan. To'liq tasnifda 5 tuzilma, 30 domen va 1424 yilda turkum mavjud.

KXT-BO' birinchi qismi 3 tuzilmadan iborat: organizm funksiyalari (sensor va psixik funksiyalarni qo'shga xolda), organizmning tuzilishi, faollik va ishtirok. "Organizm funksiyalari", "organizmning tuzilishi" dan iborat kategoriyalar kodi insonda uning hayotidagi biologik aspektidagi, shuningdek nerv sistemasidagi buzilishlar- to'qimalar va organlarning tuzilishi-funkcionalligidagi buzilishlarning mavjudligini aniqlashga imkon beradi. Har bir tuzilmada 8 domen (kategoriyalar guruhi) mavjud. "Organizm funksiyalari" domenidan misollar:

- Psixik funksiyalar
- Sensor funksiyalar va og'riq
- Ovoz va nutq funksiyalari
- Yurak-tomir, qon, immun va nafas tizimi funksiyalari.

9 domenni o'z ichiga oladigan "faollik va ishtirok" tuzilmasida kundalik hayotiy vaziyatlarda (ta'lim olish, maishiy, dam olish faoliyati, boshqalar bilan hamkorlik va xokazolar) egallangan tajribani qo'llashdagi xulq ko'rinishlari kodlangan (tadqiqot, bilim olish, kommunikatsiya, o'ziga-o'zi xizmat qilish, harakatlanish, hisob, o'qish, yozish, o'yin faoliyati va xokazo) ifodalangan.

"Faollik va ishtirok" domenini tarkibiy qismlaridan namuna:

- Bilim olish va bilimlarni qo'llash;
- Muloqot;
- Harakatchanlik;
- O'ziga-o'zi xizmat qilish

Ikkinchi qism 5 domendan iborat 2 tarkibiy tuzilmani, ya'ni insonning funkcionirovaniesiga (hayotiy ko'nima va malakalariga) ta'sir ko'rsatadigantabiiy shart-sharoitlar, oziq-ovqatlar va texnologiyalar, tashqaridagi odamlarning yordami,



xizmatlar, administrativ sistema va siyosatni aniqlashga imkon beradigan “atrof muxit omillari” bo‘limi; KXT-BO‘ ushbu rivojlanish bosqichida ro‘yxatga olingan kategoriyalar va ularning kodlaridan foydalanishni nazarda tutmaydigan “shaxs sifatlari” bo‘limidan iborat.

KXT-BO‘ “buzilishlar” tushunchasi orqali insonning faoliyat funksiyalaridagi muammolarni identifikatsiya qiladi (tana tuzilishini buzilishi yoki tana funksiyalarining yo‘qolishi), “cheklanganligi” (hayotiy vaziyatlardagi faollikning, ishtirok etishning cheklanganligi) yoki “orqada qolishi”. Cheklanganlikning baholash uchun ikki aniqlovchi: “potensial qobiliyat” va “realizatsiya (amalga oshirish)” atamaları qo‘llaniladi.

“Faollik va ishtirok” tuzilmasidagi “Realizatsiya (amalga oshirish)” ni belgilovchining mohiyati ota-onalar, tarbiyachilar, boshqa katta odamlar tomonidan farzandini tabiiy sharoitda xulqini, xatti-harakatlarini aniqlashgacha bo‘lgan oygacha kuzatish natijalari asosida baxolanadi. Shu tarzda, eksperimental tadqiqotlar o‘tkazishdagi bola uchun ko‘pincha yangi, qulay bo‘lmagan, tushunarsiz sharoitlardagi kamchiliklar bartaraf etiladi. Shuningdek, aniqlovchi bola uchun tabiiy kontekstning samarali ta’sirini, ya’ni bola tomonidan maxsus moslamalarni (masalan, eshitishni kuchaytiruvchi moslama yoki ko‘zoynakni) va atrofdagi odamlarning qo‘llab-quvvatlashlarini ta’sirini ham e’tiborga oladi.

“Faollik va ishtirok” tuzilmasidagi “tashqi yordamga asoslanmagan potensial qobiliyatlar”dagi aniqlovchining mohiyati bolaning mutaxassis tomonidan yordam ko‘rsatilmagan xolda, boshqa yordam ko‘rsatuvchi vositalarni qo‘llamasdan (reabilitatsion asbob-uskunalar, yakka yordam asboblari) eksperimental tekshirish natijalariga asoslanishi bilan belgilanadi. Shu tarzda, eksperimentatorning ta’siri natijasidagi faoliyatni baxolashdagi kamchiliklarning yuzaga kelishini oldi olinadi.

Alohida maqsadda yana ikki aniqlovchilarni o‘lchash ham nazarda tutiladi. Bu “tashqi yordam ko‘rsatilgandagi potensial qobiliyat” aniqlovchisi bo‘lib unda standart vaziyatda yordam vositalarining ta’siri, mutaxassisning yordami nazarda tutiladi. Ikkinchisi “tashqi yordamsiz amalga oshirish” aniqlovchisi bo‘lib, unda tabiiy sharoitdagi yordam vositalarisiz, qo‘llab-quvvatlashsiz kuzatish asosida baholanadi.

KXT-BO‘dagi alohida kategoriyalarning kodlash sistemasi universal tuzilishga ega. Kodlar lotin alifbosida tuzilgan bo‘lib, tasniflarning tuzilmalarini, tuzilmalardagi kategoriyalarni belgilovchi sonlar, nuqtalar, aniqlovchilarni kategoriyalarini belgilovchi nuqtadan keyingi sonlardan iborat. “Organizm funksiyalari” tuzilmasi uchun «b», “organizm tuzilishi” tuzilmasi “s”, “faollik va ishtirok” “d”, “atrof muhit omillari” “e” bilan ifodalangan.

Kodlarning namunalari:

b 110.0

e 110+4

KXT-BO‘ barcha kodlari yagona shkala asosida o‘lchanadi. Tasnifning tegishli domeniga mos quymda ko‘rsatilgan aniqlovchi so‘z tanlanadi.

(xxx belgisi kod o‘rnida):

xxx.0 muammo YO‘Q (huch qanday, yo‘q, deyarli yo‘q,...) 0–4%

xxx.1 YeNGIL muammolar (engil, zaif,...) 5–24%



xxx.2 O'RTA muammolar (o'rta, sezilarli,...) 25–49%

xxx.3 OG'IR muammolar (yuqori, intensiv,...) 50–95%

xxx.4 ABSOLYUT muammolar (to'liq,...) 96–100%

xxx.8 aniq emas (cheklanishlarning og'irligi aniqlanmagan)

xxx.9 qo'llab bo'lmaydi

Bolalarni tekshirishda «cheklanish» yoki «buzilish, kamchilik» terminlari o'rniga «sustlashish» termini qo'llanilishi mumkin⁴.

Reabilitatsion pedagogikaning psixologik asoslari

Reabilitatsion pedagogikaning psixologik asoslariga bolaning me'yordagi va patologiyadagi psixik rivojlanishining umumiy va xususiy qonuniyatlari kiritiladi. Alohida yordamga muhtoj bolaning ko'pgina muammolari ana shu muhim tomonlarni e'tiborga olmaslikdan kelib chiqadi. Ko'pincha ot-aonalar va mutaxassislar bolaning kasalligiga butun diqqatlarini qaratib uning birincha navbatda bola ekanligini, undan keyin ikkinchidan uning - o'ziga xosligini yoddan chiqaradilar.

Bunga bog'liq ravishda bolaning rivojlanishi va tarbiyasida uchun sun'iy sharoitlar yaratiladi, unda nuqsonga diqqat qaratilib, nuqsонli funksiyaga moslashish amalga oshiriladi, natijada rivojlanayotgan shaxsning kasallik ta'sir qilmagan ulkan potensial ikoniyalari e'tibordan chetda qoladi.

Maxsus ta'lim va tarbiyaning zarurligini tan olingan holda hozirgi vaqtda imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim-tarbiyaviy muhitida sun'iy ravishda yuzaga keltirilgan segregatsiyasi tanqid qilinmoqda. Psixik rivojlanishning geteroxronligi asosiy qonuniyatlardan biridir. Ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning barcha psixik jarayonlari va funksiyalarining namoyon bo'lishi bir xil darajada bo'lmaydi.

U yoki bu psixologik xususiyatlar va sifatlarning tarkib topishi va rivojlanishi uchun eng qulay bo'lgan yosh bosqichlari cenzitiv davrlar deyiladi. Sezitivlikning sabablari miyaning organik yetilishining qonuniyatlari bo'lib, ba'zi psixik jarayonlar va xususiyatlar boshqasining asosida shakllanishi mumkin.

Masalan, uch yoshgacha bo'lgan davr nutqning rivojlanishi uchun cenzitiv hisoblanadi. Agarda eshitishda muammolari bo'lgan bolada nutq kommunikatsiya vositasi sifatida shakllanmagan bo'lsa, unda kattaroq yoshda uning shakllanishi qiyinchilik bilan kechadi, nutqdan tafakkurning quroli sifatida foydalanmaslik psixik rivojlanishning sustlashishig, hissiy-irodaviy doiraning buzilishlariga olib keladi.

Bu buzilishlar to'g'ridan-to'g'ri nuqsон bilan bog'liq bo'lmasdan, bilvosita nuqsони ijtimoiy rivojlanishda yuzaga keladi va ikkilamchi nuqsонlar deb ataladi.

Rivojlanishdagi geteroxronlik qonuniyatlarini va ikkilamchi buzilishlarni bilish reabilitatsion pedagogga alohida ehtiyojli bolani yoki xavf guruhiga kiruvchi bolani erta, barvaqt psixologik-pedagogik yordam bilan ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Ko'zi ojiz bolani yurishga o'rgatish, eshitmaydiganni esa - boshqa har qanday bola

⁴ Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA. CHAPTER 1: From Practical Discovery to Conceptual Understanding, 1-8 pages.



gapiradigan, yuradigan vaqtda o'rgatishni boshlash zarur.

Eshitmaydigan odamlar foydalanadigan imo-ishoralar to'laonli nutq hisoblanadi. Eshitmaydigan bola ham o'zining eshitishi me'yorida bo'lgan tengdoshi singari o'zining rivojlanishida xuddi o'sha bosqichlardan o'tadi (6 oylikda guvrash, 1 so'zlar bir yoshda, 1,5 yoshdan jumlar va 1,5 yoshda "lug'at boyligining haddan tashqari ko'payishi").

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ota-onasi eshitmaydigan oilada tariyalanayotgan kart bolalarning barchasida ikkilamchi nuqson sifatida psixik rivojlanishning sustlashganligi kuzatiladi. Erta aralashuv bunday bolaga samarali yordamning omilidir. Bunday erda yordam ilk yoshda aniqlangan nuqsonlarning yarmini bartaraf etishga va bir qator bedavo kasalliklarni muvaffaqiyatli kompensatsiya qilishga imkon yaratadi.

Erta intervensiyaning majmuaviy xarakterda ekanligini ta'kidlash lozim, bunga tibbiy yordam, ijtimoiy-maishiy sharoitlarni va oiladagi ichki munosabatlarni (onani go'dakni rivojlanishida muammolari bo'lgan go'dakni parvarishlash va rivojlantirishga o'rgatishni ham kiritgan xolda) yaxshilash, psixolog, logoped, pedagog, okkupatsional terapevt bilan mashg'ulotlar kiradi.

Ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, atrof-muhit bilan aloqa, o'zaro harakat qilishdagi buzilishlar nuqsonli rivojlanishning o'ziga xos qonuniyatlaridir. Bolani qamrab olgan barcha ijtimoiy-madaniy muhit, uning moddiy bazasi va moslamalari, ijtimoiy-psixologik institutlar avlodan-avlodga o'tib psixo-fizologik tashkillatirishga qaratilgan. Qandaydir psixik-fizologik funksiyalarida kamchiliklari bo'lgan bola harakatlanishi, hayotga moslashishi qiyin bo'lgan sharoitda ma'lum bir ijtimoiy tipga aylanishi zaruriyati oldida turgan. Zamonaviy psixologik-pedagogik yordamning mavjud emasligi va noma'qul ijtimoiy muhit shaxsning patologik shakllanishiga olib keladi. Ijtimoiy va psixogen omillarning mohiyati shu darajada muhimki, ular kasallik illyuziyasi, xayoliy psixopatiyaga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy muhit insonning barcha oliy psixik funksiyalarini rivojlanishining manbai, sharti hisoblanib, ular hayot davomida shakllanadi va o'zining tabiatiga ko'ra ijtimoiydir. Tafakkur, xotira, nutq avval muloqot, jamoaviy faoliyat jarayonida o'ziga xos "psixologik qurollar", simvollar, belgilardan foydalanish malakalarini bilib olish orqali o'zlashtiriladi.

Ushbu psixologik qurollar insonning tarixiy rivojlanishida yuzaga kelgan madaniya elementlaridir. Sun'iy yuzaga kelgan madaniy sistemaga tovushli va daktil nutq, ko'ruv alifbos va Brayl alifbosi, mnemotexnik usullar kiradi. Shu tarzda psixik funksiyalarning ta'lim va tarbiyaga bog'liqligi namoyish etiladi. Ta'lim rivojlanishdan keyin, tarbiya esa ta'limdan keyin bo'lmasligi kerak. Bolalarda oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi namunalarini o'qitish va tarbiyalash jarayonida o'zlashtirish orali kechadi.

Nerv sistemasining egiluvchanligi va kompensatsiyalanish imkoniyatlari - insonning rivojlanish qonuniyatlari bo'lib, nogironlikka ega bo'lgan bola bilan ishlashda asoslangan optimizmni yuzaga keltiradi. Bir funksiyaning bo'lmasligi yoki zaifligida uning o'rnini boshqa funksiya egallaydi. Kompensatsiya jarayoni ikki



darajada-organik va ijtimoiy darajada amalga oshiriladi⁵.

Ko'pgina tadqiqotchilar organik jarohat, buzilishning faqatgina salbiy xarakteristikasinigina emas, balki ijobiy tomonlarini ham ko'rsatib beradilar. Buzilish, nuqson shaxsning rivojlanishida kuli stimulga aylanib, faqatgina kompensatsiyaga emas, balki yuqori kompensatsiyaga ham olib kelishi mumkin. Misol tariqasida Demosfenni keltirishimiz mumkin, u nutq buzilishlariga ega bo'lib turib buyuk notiq, Betxoven eshitishning organik buzilishiga qaramasdan buyuk kompozitor bo'lgan.

Shu sabali rivojlanishida muammolari bo'lgan bolaga erta psixologik-pedagogik va ijtimoiy yordam tashkil etish, maqbul oila muhitini yuzaga keltirish va tengdoshlari jamoasiga integratsiyasini ta'minlash reabilitatsion pedagogning eng asosiy vazifalaridandir.

Nazorat savollari:

1. Reabilitatsion pedagogika fani va o'quv predmetining yuzaga kelish sabablari haqida so'zlab bering.
2. Defektologiya va reabilitatsion pedagogikaning o'xshash va farq tomonlari nimada?
3. Nogironlikni tushunishning tibbiy va ijtimoiy modeli nimalar bilan farq qiladi?
4. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalari ekosistemaning qaysi darajasiga kiradi?
5. KXT-BO'dan rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashda qanday foydalaniladi
6. Bolaning psixik rivojlaniashining qonuniyalarini me'yorda va patologiyada qanday kechishini izohlab bering.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Counseling theories and techniques for rehabilitation and mental health professionals: second edition. Editors: Fong Chan, Phd, CRC, Norman L.Berven, Phd, Kenneth R.Thomas, DEd. Springer publishing company, LLC, 2015 New York.
2. GaryKielhofner. Conceptual Foundations of Occupational Therapy-4th edition. USA 2009F. A. DavisCo.
3. A. M. Kazmin, G. A. Perminova, A. I. Chugunova Prikladnoe znachenie Mejdunarodnoy klassifikatsii funkcionirovaniya, ogranicheniy jiznedeyatelnosti i zdorovya detey i podrostkov (kratkiy obzor literatury) // Jurnal «Klinicheskaya i spetsialnaya psixologiya» №2 2014.
4. Chicherina Ya.E. Protsessy kompensatsii: obosnovannyy optimizm // Bola va zamon. – Tashkent, 2006. - №2. - S. 52-54.

⁵ Counseling theories and techniques for rehabilitation and mental health professionals: second edition. Editors: Fong Chan, Phd, CRC, Norman L.Berven, Phd, Kenneth R.Thomas, DEd. Springer publishing company, LLC, 2015 New York., PART II: COUNSELING THEORIES, Humanistic Approaches, Person-Centered Counseling: John See and Brian Kamnetz, 15-49 pages



2-mavzu. Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli

Reja:

1. Normallashtirish tamoyilining mazmuni.
2. Normallashtirish tamoyilining moddalari va ijtimoiy-maishiy moslashuv.
3. Intellektual nuqsonga ega bo'lgan odamlarni normallashtirish jarayonining afzalliklari.
4. Integratsiya va uning turlari.
5. Psixik va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar va kattalarda hayotiy malakalarni shakllantirish va ijtimoiy xizmatlar.

Tayanch tushunchalar: normallashtirish tamoyillari; sutkalik, xaftalik, yillik ritm; erta aralashuv; internat tipidagi muassasalar; hayotiy malakalar; jismoniy, funksional, oilaviy, guruhli, ijtimoiy, jamoat, tashkiliy, xalqaro integratsiya.

Normallashtirish tamoyilining mazmuni

Me'yorlashtirish tamoyili quyidagicha ta'riflanadi: intellektual va boshqa funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslar uchun kundalik mavjudlikni va hayot sharoitlarida shunday qulayliklar yaratiladiki, ular jamiyatda qabul qilingan shakllarga ancha yaqin yoki ular bilan deyarli mos kelgan bo'ladi.

Boshqalar singari nogiron insonlar ham xaqli bo'lgan va ushbu tamoyil qamrab oladigan me'yoriy kundalik hayotning tashkiliy qismlari yoki komponentlari quyidagilardir:

- me'yoriy kundalik ritm;
- me'yoriy haftalik ritm;
- me'yoriy yillik ritm;
- hayot sikli kechishining me'yoriy shakllari;
- hurmat va tanlash huquqi;
- ushbu madaniyat uchun xos bo'lgan me'yoriy oilaviy hayot shakllari;
- ushbu mamlakat uchun xos bo'lgan me'yoriy iqtisodiy shakllar va huquqlar;
- ushbu jamiyat uchun xos bo'lgan me'yoriy turmush tarzi va atrof- muhitga qo'yilgan talablar.

Me'yorlashtirish tamoyili ushbu madaniyatda mavjud bo'lgan me'yoriy hayot ritmi, amaliyoti shakllari va nogironlarning yashashi, o'sishi va rivojlanishiga munosabatlarini ta'sirini tushunishga asoslanadi. Shuningdek, u ushbu ijtimoiy shartlar va madaniyat shakllari istalgan ijtimoiy muhitda, barcha madaniyatlarda jamiyatda qabul qilingan inson huquqlariga mos ravishda nogironlarni parvarishlashga yo'naltirilgan aniq odamlar uchun ko'rsatma sifatida qo'llanilishini ko'rsatadi.

Me'yorlashtirish tamoyili tibbiyot, pedagogika, ijtimoiy, siyosiy va qonunchilik ishlari bilan shug'ullanadigan insonlar uchun yo'l boshchi vazifasini o'tashi lozim.



Insonlar biror qaror qabul qilib, unga asoslanib harakat qilganlarida natijalar ko'p hollarda noto'g'ri emas, balki to'g'ri bo'lishi lozim.

Me'yorlashtirish tamoyili aqliy buzilishga ega barcha insonlar uchun, ulardagi orqada qolishning yengil yoki og'irligidan hamda ular dunyoning qaerida yashashlaridan qat'i nazar barcha uchun taalluqlidir. U barcha jamiyatlarda va kattalar guruhlarida qo'llaniladi, shuningdek, individual rivojlanish yoki jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashishi mumkin.

Me'yorlashtirish tamoyillarini qo'llanilishi aqliy buzilishga ega bo'lgan shaxslarning "me'yoriy" bo'lib qolishlariga olib kelmaydi, biroq uning maqsadi ularning yashash sharoitini funksional buzilishlarini inobatga olgan holda qanday yaxshilanishini ko'rsatishdan iborat.

Me'yorlashtirish tamoyilini shakllantirish vaqtida, avvalambor, aqliy buzilishlarga ega bo'lgan insonlarni parvarishlash xizmatini umumiy qamrov asosida shakllantirish tamoyilini topish, "tibbiy modelga" qaram bo'lmagan holda jamiyatda yashash ehtiyojini ko'rsatish xaqida so'zlangan. Ushbu nom bilan, avvalo, imkoniyat va qobiliyatlarni emas, balki buzilishlarni ko'ra oladigan tizim nomlangan. Bu tizim istalgan "kasalxonalarini", yopiq muassasalar va izolyatsiyalarni yuzaga keltirgan.

Me'yorlashtirish tamoyili barcha funksional buzilishlarga ega bo'lgan, kelib chiqish sababalaridan qat'i nazar oilalari, jamiyat, madaniyatdan mahrum bo'lish xavfi mavjud insonlarga tegishli bo'lib, bu tamoyil ularning reabilitatsiyasi va ijtimoiy integratsiyasi uchun xizmat qiladi.

Me'yorlashtirish tamoyilining tashkil etuvchilari

1. Me'yoriy kundalik (sutkalik) ritm

Me'yorlashtirish - funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslarga imkon qadar me'yoriy kundalik ritmni tashkil etishni angelaydi. Bu degani inson harakat doirasida va rivojlanishida sezilarli orqada qolish bo'lganda ham karavotdan turib kiyinishi zarurdir. Bu esa ovqatni me'yoriy sharoitlarda iste'mol qilish zarurligini anglatadi: kun davomida bir marotaba ko'pchilik bilan guruhlarda ovqatlanish mumkin - maktabda, ishda - ammo asosan ovqatni oilaviyga o'xshash tinch, osuda sharoitlarda iste'mol qilish (qabul qilish) kerak.

Me'yoriy kundalik ritm, shuningdek, o'z tengdoshlaridan kichik uka va singillaridan ertaroq uxlash zaruriyatining yo'qligini anglatadi va bu faqat xizmat ko'rsatuvchilarning yetishmasligidandir. Atrof-muhit ham shunday tuzilishi kerakki, unda aniq bir inson uchun shaxsiy kundalik ritm ham e'tiborga olinishi kerak: bu esa ba'zida guruh tartibidan chetga chiqish uni buzish imkoniyatining mavjudligini angelaydi.

Me'yoriy kundalik (sutkalik) ritmni yo'qligi - yirik yopiq muassasalarda nogironlikni shakllanishining yaqqol namoyondasi bo'la oladi: u yerda tartibga nogironlikni shakllanishini imkoniyati bo'lmaydi. Qat'iy intizom va tartib barchada kuchsizlik va yordamga muhtojlik hissini vujudga kelishiga olib keladi. Yangi muhitda yakka tartibdagi mashg'ulotlarni olib borilishi hatto iqtisodiy jihatdan ham yaxshi natijalarga xizmat qilishi (olib kelishi) mumkin. Shvesiyadagi yirik yopiq



muassasalarda o'tkazilgan eksperimental ish natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu dasturning qo'llanilishi bir yilda yuvilishi zarur bo'lgan kiyim va choyshablar sonining besh tonnaga qisqarishiga olib keldi. Shunga asosan 600 ish soatlari bo'shadi, uni ishchilar pol artish va choyshablar almashtirishga emas, balki parvarishlaridagi inson bilan ijobiy ishga bag'ishlashlari mumkin bo'ldi. Me'yoriy kundalik ritmda yashash uchun pedagogik usullarni qo'llab, kundalik hayotda zarur bo'lgan turli faoliyat turlariga, ijtimoiy malakalarga alohida e'tibor berish lozim. Ular bilim va malakalarni egalashdagi aniq qiyinchiliklarga moslashgan bo'lishi darkor.

Og'ir nuqsonlarga ega nogiron bola va uning oilasi yoki o'z yaqinlari bilan yashovchi qo'shimcha nogironlikka ega bo'lgan katta yoshdagilar iloji boricha me'yorga yaqin kundalik ritmga ega bo'lishlari uchun ko'p hollarda maxsus malakaga ega bo'lgan uy xizmatchisi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi talab etiladi. Barcha nogironlar kun davomida tayyorlov yoki oddiy maktablarga borishlari, xizmatga yoki biror mashg'ulotlarga qatnashlari uchun uydan chiqish imkoniga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, bo'sh vaqtlarini o'z istaklariga ko'ra o'tkazishlari kerak. Bularning barchasi nogironlar uchun maxsus transport vositalari bo'lishi mumkin.

“Me'yoriy kundalik ritm“ tushunchasi yopiq muassasalarning kamchiliklarini bo'rttirib qo'yadi va yopiq muassasalarda yashovchi funksional buzilishlarga ega insonlarni ochiq jamiyatdagi ehtiyojlarini ko'rsatadi”.

2. Me'yoriy haftalik ritm

Ko'pchilik insonlar bir joyda yashashadi, boshqa yerda ishlashadi yoki o'qishadi, bo'sh vaqtlarida esa turli joylarda o'tkazishadi. Demak, aqliy buzilishga ega inson, masalan, u uchun uy bo'lib qolgan muassasada yoki binoda u kundalik faoliyati bilan shug'ullanishi va shu bilan bo'sh vaqtlarini ham shu yerda o'tkazishi noto'g'ridir.

Uy - bu shunday shaxsiy maydonki, u yerda inson o'zi xohlaganicha yashaydi, shaxsiy, oilaviy hayot kechiradi. U yerdan osudalik va tinchlik topish mumkin. Maktab va ish joyi katta hisobda shaxsiy bo'lmagan funksiyani bajaradi: ular individning madaniy va ijtimoiy munosabatlarini shakllantiradi. Shuningdek, madaniy meros assimilyatsiyasini yoki jamiyatning talablari va baholashiga moslashish imkonini yaratadi. Bo'sh vaqtning o'tkazilishi shaxsiy va shaxsiy bo'lmagan funksiyalar birligini beradi, shuningdek, o'zini ko'rsatish, tanlash va o'z qiziqishlarini qondirish imkonini beradi. U o'z ichiga boshqa insonlar bilan muloqotda bo'lishni va ularga moslashishni oladi.

Bo'sh vaqt o'smirlar uchun ijtimoiy treninglar, yangi tajribalarga ega bo'lish imkonini beradi, ular uchun keng yo'l ochadi va shu bilan o'zlariga baho berishlarini oshiradi. Kattalarga esa ijtimoiy munosabatlar, boshqa insonlar singari yashash, shuningdek, o'ziga baho berishning chuqurroq shakllanishiga imkon beradi.

Jamiyatdagi hayot ayrim insonlar yoki kichik guruhlar uchun ish ta'minlovchi hamkorlar yordamida topish imkonining kengayishini - bu ish inson qiziqishlari va imkoniyatlariga to'g'ri kelishi, shuningdek, ushbu joyning o'ziga hos shart-



sharoitlariga mos kelishini anglatadi. Bu ijtimoiy integratsiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

O'quv va ish haftasining so'nggida dam olish kunlari keladi, ular oila bilan birga bo'lish, biror joyga borish, do'konga chiqish, hordiq chiqarish, bayram tashkil etish, do'stlar va yaqinlari bilan uchrashish, sayr qilish, tabiatda hordiq chiqarish sport bilan shug'ullanish, musiqa eshitish, sevimli ish bilan shug'ullanish imkonini beradi. Bu shunday narsaki, uni oldindan kutishadi, rejalashtirishadi va xursandchilik bilan kelishishadi. Bu uyda alohida o'zi yoki biror kim bilan yashaydigan barchaga tegishli. Dam olish kunlarida yolg'iz qolish - g'amgin tuyuladi, bo'shliq hissini uyg'otadi va inson ko'nglini cho'ktiradi - ayniqsa, agar u doim takrorlanib tursa.

Ushbu asosdagi haftalik ritm (uy – maktablar, ish – bo'sh vaqt – uy), shuningdek, nogironlarni parvarishlash bo'yicha jamiyatni barcha harakatlarini funksional rejalashtirishni va koordinatsiyani talab etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari, tayyorlov va oddiy maktablar nafaqat o'z oilalarida yashovchi nogiron bolalarga, balki maktab yotoqxonalarida va jamoa bilan yashash uylarida yashovchi bolalarga mo'ljallanishi lozim. Aynan shu narsa maxsus jihozlangan ustaxonalarga va kattalar uchun mo'ljallangan kunduzgi markazlarga taalluqli. Ular nafaqat o'z uylarida, balki ijtimoiy uylar yoki jamoa bo'lib yashovchi uylarda ham imkoniyat darajasida bo'lishi kerak. Huddi shu singari bo'sh vaqtni o'tkazishning jamiyat dasturi ham o'z uylarida yashovchilar va boshqa turmush tarzida hayot kechiradiganlarni ham mo'ljallashi kerak. Shuningdek, ularni dam olish kunlarida ijtimoiy ehtiyojlari inobatga olinadi. Bunday funksional rejalashtirish nafaqat yopiq muassasalarni "ochishga" yordam beradi, balki uyida aqliy buzilishga ega bo'lgan farzandlari bor ota-onalarga tanlash erkinligini beradi. Ularni katta yoshdagi o'g'il va qizlari o'zlari ko'nikkan uyga monand turar-joy tanlashlari mumkin.

Me'yoriy haftalik ritmda yashash funksional buzilishlarga ega odamlar uchun ijtimoiy treningga va tajriba yig'ishga ko'p imkoniyatlar beradi, jamiyatning boshqa a'zolari bilan bir xil hayot shart-sharoitlarida ekanligini anglashi, inson o'z rivojlanishi va yetilishida salmoqli o'rin tutadi.

Shakliga ko'ra turlicha turar-joy yoki mashg'ulot o'tish uchun mo'ljallangan joy vakillari harakatiga binoan atrofdagilarni kuzatish va axborot almashinish jarayoni natijasida u yangi tajriba va bilimlarini egallaydi. Bu esa uning shaxsiy motivatsiyasi va kasbiy maqomini oshiradi. Ilgari o'z parvarishlarida bo'lgan insonlarga "xos" bo'lgan xulqi, o'zini tutishi shakllarini yo'qotib, hayot sharoitlarini yaxshilanishi tufayli o'z shaxsiy motivatsiyasini oshirib borishi sezilarli tarzda bo'ladi.

Yirik yopiq muassasalarda me'yoriy haftalik ritmning ilojisi yo'q va u jamiyatni, nogironlarni parvarishlash bo'yicha barcha harakatlarining funksional koordinatsiyasini talab etadi.

3. Me'yoriy yillik ritm

Me'yorlashtirish bu barcha fasllar almashinuvi va shaxsiy bayram hamda an'analarni inobatga olgan holda me'yoriy yillik ritmda yashashni anglaydi. Me'yoriy yillik ritm nafaqat fasllar almashinuvi yoki an'analarni, oila a'zolarining



shaxsiy bayramlarini, balki ijtimoiy tadbirlar va mahalliy hamda diniy bayramlar bilan bog'liq odatlarni ifodalaydi. Yil davomida ish kunlari izchilligini buzuvchi bu bayramlar va to'xtalishlar faollik hamda tajribaga asoslanishi, ovqatlanish va kiyim tanlashga, uydagi va uning tashqarisidagi hayotga, masalan, madaniy-diniy va madaniy, sport an'alariga ta'sir etadi. Bu ijtimoiy malakalar bo'lishini talab etadi. Lekin hech kim o'z funksional buzilishlari tufayli chetda qolishi kerak emas.

Turli jamiyat tadbirlarida ishtirok etish, fuqarolik tajribasini va o'ziga bo'lgan ishonchni, o'zini to'g'ri baholashni va umum tan olingan ijtimoiylashuvni beradi. U yoki bu muhitda og'ir nogironlarning mavjudligi alohidagi ba'zi fikrlarni yengib o'tishga sabab bo'ladi.

Yirik yopiq muassasalar o'zida me'yoriy bo'lmagan muhitni namoyon etadi. U yerda yil fasllarining almashinuvi tashqariga nisbatan sustroq seziladi.

Yopiq muassasalarda me'yoriy yillik ritm qandaydir sun'iy, notabiiy bo'lgan, ochiq jamiyatlarda esa u jamiyat hayotida ishtirok etishni ta'minlaydi.

4. Hayot siklini kechishining me'yoriy shakllari

Me'yorlashtirish, shuningdek, hayotda rivojlanishning barcha bosqichlarini bosib o'tish imkoni mavjudligini anglatadi: bolalik, o'quvchi, o'smirlik, katta yoshdagi inson, qarilik.

Ota-onalar tangliklari

Funksional buzilishlarga ega farzandlari mavjud ota-onalar hayot sikli mobaynida 2 bosqichdan o'tadi: ular davomida me'yoriy jarayonlar sinadi yoki buziladi. Bu bir yoki bir nechta funksional buzilishli farzand dunyoga kelganida yoki biror oqibatda bolada bunday buzilish vujudga kelgani - birinchi bosqich hisoblanadi. Ikkinchi bosqich bolaning o'sib borishi bilan kechadi, ikki bosqich ham ota-onalar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega va shuning uchun ular bola va o'smirning rivojlanishi hamda ilk hayot yutuqlariga yetarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Aynan shuning uchun yosh va yoshi katta ota-onalarning osuda hayotlarini qo'llab-quvvatlash ota-onalar tashkilotlari oldida turgan asosiy masalalardan biridir. Ota-onalar o'z hayotlari oxiriga yaqinlashgani sari yana bir tanglik vujudga kelishi mumkin. Bunda ular qisman yoki to'liq nutqning yo'qligi bilan kechadigan funksional buzilishlarga ega farzandlari bilan shaxsiy tajribada va bebaho xotiralari bilan o'zga hech kim tanish emasligidan aziyat chekishadi.

"Hayot tarixi"ni fotosuratli kitoblar, tabriknomalar, rasmlar va kichik hikoyalar tuzish xizmatchilarda bu bola haqida chuqurroq bilimga ega bo'lish va ular bilan muloqotga kirishishga yordam beradi, bu esa ota-onalarni tinchlantiradi.

Erta bolalik

Funksional buzilishlarga ega bola boshqa barcha bolalar qatori mehribonlik va yaqinlikka, insonlar bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj sezadi.

Hech qaysi vrach yoki boshqa inson vaziyatni qiyinlashtirmasligi ota-onalar tushuna olmaydigan yoki amalda qo'llab-quvvatlay olmaydigan uzoqni ko'zlovchi qarorlar qabul qilishga shoshilmasligi kerak. Biz shuni bilamizki, bolani intellektual va harakat funksiyalarini, shuningdek, uning hissiy va shaxsiy rivojlanishida ota-onalar mehribonligi katta o'rin tutadi. Aynan shuning uchun vrachlar hamjamiyati va boshqa jamiyat tashkilotlari bunday oilalarga maslahatlar berib borish zamirida



ushbu etik me'yorlar va ushbu psixologiyaga katta e'tibor bilan yondoshishlari, ayniqsa, muhimdir.

Agar natijada nogiron bola ilgarigidek o'z ota-onasi bilan yashay olmasligi va unga mos oila topilmayotganligi aniqlansa, unda bolani iliq muhitli bolalarga, hizmat ko'rsatuvchi xodimlar va ota-onalar doim yaqin munosabatda bo'ladigan katta bo'lmagan guruhli yashash uylariga joylashtirish kerak. Xizmatchilarning almashinuvi eng kam darajada bo'lishi lozim, chunki aynan shu yo'l bilan bolani har tomonlama himoyasini va ota-ona o'rnini bosuvchi insonlar bilan muloqotga kirishish imkoniyatlarini ta'minlasa bo'ladi.

Funksional buzilishli bola o'zining hissiy taassurotlarini boyituvchi bilim va malakalarini sug'oruvchi asosga ega muhitda o'ziga hos o'sish va rivojlanish ehtiyojiga ega.

Xizmatchilarni bolalarga nisbatan me'yorlarga zid munosabatini, bolalarda esa yashashning noto'g'ri strategiyasini shakllantiruvchi yirik muassasalarda ushbu zaruriy ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Bunday muassasalarda xizmatchilarni aniq bolalarga emas, balki aniq masalalarga yo'naltirilgan amaliyoti ko'p hollarda muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Bunda bir xizmatchi bir qancha bolalarni har tomonlama parvarishlashga mas'ul bo'ladi. So'nggi holatda xizmatchi amaliyotni avtomatik aylanmasi bilan emas, balki bolalar ehtiyojlari bilan hisoblashadi.

Bolalarni guruhli yashash uylari - maktab yotoqxonalarini - faqatgina zaruriy jismoniy parvarishni ta'minlashi kerak emas. Avvalambor, u bolalar uchun o'z uylari bo'lishi kerak, ikkinchidan bolalarga rivojlanish stimullarini taqdim etish kerak va uchinchidan, jamiyat bu bolalarga oddiy maktabgacha tarbiya muassasasi va tayyorlov maktablariga hamda ularni rivojlantiruvchi dasturlarga yo'l ochib berish kerak.

Jismoniy nuqsonga ega nogiron bolaga yangi taassurotlarni olishga to'sqinlik, unda bu bolaga nafaqat davolovchi jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishigina emas, balki uning harakatlarini kuchaytiruvchi yordamchi texnik vositalar imkonini ham berish lozim. Agar bola ko'rish nuqsonga ega bo'lsa, ma'lum darajada ishonchni yaratishga yo'naltirilgan alohida xatti-harakatlar qilish lozim. Ular bolani harakat malakalarini egallashga va qo'llashga qo'rqqmaslikni va atrof olamni izlanim tushunishni boshlashga o'rgatadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaga keladigan bo'lsak, ular bilan muloqot emiziklik vaqtdan o'rnatilishi kerak, bola hayotini birinchi yilida alohida imo-ishoralar yordamida, keyinchalik esa to'liq imo-ishora yordamida amalga oshiriladi.

Aqliy buzilishga ega bo'lgan bolalarda bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha funksional buzilishlar - serebral falaj yoki boshqa harakat funksiyalarining buzilishlari - ko'rlik, karlikni oldindan inobatga olish va ularga ta'sir etish lozim, bu aqliy qo'liqlik chuqurlashuvining oldini olish uchun zarur. Autizmga ega bo'lgan bolani parvarishlashga qo'yiladigan asosiy talablar ham shunga kiradi.

Maktab yoshida

Maktab yoshi muhim davr sanaladigan jadal rivojlanishning shunday bosqichiki, inson nuqtai nazaridan o'z imkoniyatlari va qobiliyatlarini anglash davridir. O'z-o'zini tushunish bilimlariga ega bo'lishdan, maktabni yakunlaganidan



so'ng me'yoriy hayot kechirish uchun zarur bo'lgan o'zini baholash, o'ziga baho berish jihatidan muhim bosqichdir. Maktab davri, bu shunday davrki, unda maktab tashqarisidan olingan taassurotlar shaxs shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanishda orqada qoladigan maktab yoshidagi bolalar va o'smirlar taassurotlarini chegaralab yoki xiralashtirib qo'yadigan yopiq muhitda yashamaslik kerak. Shuningdek, bolalar imkon qadar o'ziga tengdosh nogiron bo'lmaganlar bilan munosabatda bo'lib, ijtimoiy tasavvurlarga ega bo'lishlari, ularning ijtimoiy moslashuvi esa ular uchun oddiy hayot tarzini va ochiq jamiyatning oddiy shartlarini tajribada qo'llay olishga asos bo'lishi kerak.

Bu ma'noda eshitishi zaif bolalar mustasno holat bo'lib, ular uchun imo-ishora yordamida o'qitadigan maxsus sinf tashkil qilib bo'lmaydi. Ularga maktab-internatga borish imkonini berish lozim, bu yerda ular nutqiy va tushuncha munosabatlarida rivojlana oladilar, shuningdek, imo-ishora nutqini bilmaydiganlar bilan aloqada bo'lishda zarur bo'ladigan bilim va malakalarga ega bo'ladilar.

Yirik yopiq muassasada yashayotgan bolalar kattalar hayoti haqida asosan xizmatchilarni kuzatib ma'lumotga ega bo'ladilar, bu esa ularga chegaralangan bilim va tajribani beradi. Yana bir xavf shunda mujassamki, muassasada qobiliyatlar qotib qolishi mumkin, chunki rivojlanishida yuqori potensialga ega bolalar ko'pchilikka majburan moslashadilar.

Yopiq muassasalarda bolaning rivojlanish muhitlari - pedagogik, ijtimoiy, ruhiy nuqtai nazardan to'g'ri kelmasligi ilmiy isbot qilingan.

Hatto og'ir aqliy qoloqlikka ega bolalarning maktabga borishlari uchun maqsadga yo'naltirilgan va yordamchi pedagogik vositalar bilan ta'minlangan o'quv rejasi zarur. Hozirgi kunda xalqaro miqyosda bunga imkoniyat bor. Bu esa hozirda yopiq muassasalarda yashovchi bolalarni keyinchalik jamoa bo'lib yashash xonadonlari yoki maktab yotoqxonalariga o'tish hamda ochiq jamiyatda yashashga tayyorgarlik uchun xizmat qiladi. Shu tarzda ochiq jamiyatga integratsiyalash imkonini beradigan tizimdan foyda keltirib chiqarish mumkin.

Og'ir (murakkab) nuqsonli nogiron bolalar haqida

Integratsiyalash - bu insonga kuch baxsh etadigan va uni yuksaltiradigan jarayondir. Agar u to'g'ri tashkil qilinsa, nogiron bolaning kuchliroq namoyon bo'lishi va qadr-qimmat hissining salmog'i oshishiga imkon beradi. Shularni e'tiborga olib, integratsiyalash imkon qadar eng yuqori darajada qo'llanilishi lozim.

O'zlarini ajratib qo'yilganlar singari sezmaslik uchun do'stlar orttirish va ular bilan vaqtlarini o'tkazish, ayniqsa, bolalar uchun juda muhim.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, rivojlanishida orqada qolgan bola aqliy buzilishga ega tengdoshlari bilan bir sinfga borishi mumkin, albatta, agar ular mutaxassislar tomonidan yetarlicha ko'mak va zaruriy vositalar bilan ta'minlansa.

Aynan shular jismoniy funksional buzilishlarga va rivojlanishi orqada qolgan bolalarga ham taalluqlidir. Tajribalarning ko'rsatishicha, funksional buzilishga yoki o'xshash muammoga ega bolalar bilan birgalikda ekanligidagi guruh dinamik effekti - (maktabda bo'sh vaqtlarda, mashg'ulotlarda) o'ziga xos qiynchiliklarni yengishga yordam beradi va ahamiyatli bo'lishi mumkin.



Aqliy buzilishga ega, shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar shu guruh uchun maxsus tashkil etilgan sinflarga borish imkoniga ega bo'lishlari kerak - bu ularga to'liq ta'lim olish va imo-ishora nutqining doimiy amaliyotini ta'minlaydi. Bu ularni karlar madaniy jamiyati bilan munosabatlarini osonlashtiradi. Xuddi shunday katta yoshda ham ular birga guruhli xonadonlarda yashash imkoniga va imo-ishora nutqidan foydalana oladigan xizmatchilar bo'lishiga imkoni bo'lishi kerak. Bunday nogironlarni parvarishlash uchun xizmatlar karlarga o'qituvchi va xizmatchilar ishini taklif etadi.

Me'yorlashtirish tamoyili qo'llanilganligi sababli aqliy buzilishga ega shaxslar, shuningdek, karlar madaniy birlashmalarga integratsiyalash imkoniga ega bo'ladilar.

Kattalar hayoti

Bolalar o'z ota-onalari bilan yashashlari va ulg'aygach ota-onalarining uylarini tark etib, o'zlari mustaqil hayot boshlashlari ham me'yoriy holdir.

Ammo o'smirlik bilan vidolashuv va katta odamga aylanish, ayniqsa, aqliy buzilishga ega shaxslar uchun - ancha uzoq, og'ir va boshqalarga nisbatan tushunarsiz jarayondir. Ko'p hollarda ularni o'zlari haqidagi tasavvurlari chalkashib, noaniq bo'lib qoladi. Ular bilan doim ham kattalar singari munosabatda bo'lishmaydi, kattalar singari qabul qilishmaydi va hurmat qilishmaydi. Bunda atrofdegilar munosabati xoh ularning ota-onalari, qarindoshlari, xizmatchilar yoki jamiyat bo'lsin katta ahamiyatga ega.

Barcha servis xizmatlari nogironlarga mos kasb yoki mehnat ta'limini tashkil qilishlari, guruhli yashash xonadonlaridagi, o'z xonadonlarida hayot malakalarini rivojlantirishlari, katta yoshda ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishlari, ijtimoiy treninglarni kengaytirishlari, jinsiy madaniyatni tarkib toptirishga yordam berishlari zarur.

Yoshlar uchun tashkil etilgan trening-dasturning maqsadi nogironlarning kundalik hayotda imkon qadar mustaqil bo'lishlari, shuningdek, jamiyat hayotida ular istaganlaricha yoki imkoniyatlari darajasida ishtirok etishlariga imkon beradigan ijtimoiy malakalarni rivojlantirishdan iborat.

Bunday dasturlar nafaqat real motivatsiya beradi, balki funksional buzilishlarga ega odamlarning shaxsiy qiziqishlarini hisobga oladi. Bunday tarzda ularga qaror qabul qilishni mashq qilish uchun juda muhim imkoniyat berish mumkin: qaror qabul qilish imkoniyati - yetilish, o'sish, layoqatni rivojlantirish, katta inson sifatida o'z qadrini anglash jarayonining tashkiliy elementidir. Bu turdagi dasturlar nafaqat biror insonga yordam beradi, balki ota-onalarda yuzaga keluvchi muammolarga to'g'ri yechimlarni taklif etadi. Odatda, katta bo'la boshlagach yoshlar ta'lim oladilar va ish topadilar, ota-ona uylarini tark etib oila quradilar, farzandlar orttiradilar va ularni ota-onalari bilan munosabatlari doim o'zgarib turadi. Bu ota-onalarning keksayishiga ko'ra sodir bo'ladi. Ammo yoshi katta nogironlar - qizi yoki o'g'lini bo'lishi bunday namunaga doim ham mos kelavermaydi. Bu ota-onalar stresslariga va ular tomonidan haddan ziyod parvarishlarga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, ularning bolalarida stress va qo'rquv holatlarini, hatto kamsitilish hissini uyg'otishi mumkin. Bu yerda gap



deyarli tasdiqlangan xavotir haqida ketyapti, u funksional buzilishga ega odamga ham, uning oilasiga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun umum qabul qilingan namunaga amal qilish yetarlicha ko'mak beradi, bu vaziyatda uni funksional buzilishga ega o'g'il yoki qiz, shuningdek, butun oila o'zaro munosabatlarini me'yoriy davom ettirishi uchun yetarli bo'ladi.

Ijtimoiy shart-sharoitlarda izlanishlar shuni ko'rsatdiki: aqliy buzilishga ega odamning hayoti qanchalik mustaqil va uning kundalik hayot faoliyati qanchalik adekvat bo'lsa, u o'zini hayotda xuddi boshqalar singari yaxshiroq his qiladi. Ammo jamiyatning boshqa a'zolari bilan bo'ladigan munosabat va bo'sh vaqtni o'tkazish haqida so'z yuritilsa, ko'p hollarda bu va boshqa insonlar orasidagi farq ulkandir. Bu munosabatlar va xordiq nisbatan chegaralangan, passiv va tor yoki ilgari ta'kidlanganidek ular umuman bo'lmaydi.

Katta yoshda qiziqish, bilim va malakalarni kengaytirish borasida ta'lim olish vaziyatni yaxshilashda ijobiy imkoniyatlarni keltirish mumkin. O'qish uchun qulay va sodda tilda yozilgan kitoblar, gazeta va jurnallar kattalar uchun boy madaniy va ijtimoiy hayot bilan yashash imkonini beradi, sport bilan qiziquvchilar uchun shunga o'hshash yo'llar mavjud. Demokratiya asoslari va yig'ilishlar o'tkazish texnologiyasini o'rganish kurslari ishtirokchilarda o'zlarining shxsiy klub va qo'mitalarida faoliyat olib borish qobiliyatlarini kuchaytiradi, qaror qabul qilish imkonini beradi, o'z istaklariga ko'ra hordiqqlarini tashkil qilishga va ifoda etish shakllarini taklif etadilar. Shuningdek, bu qo'mita va turli tashkilotlarning boshqaruv organlarini va sport klublarining biror topshiriqlarini bajarishga yo'l ochib beradi.

Bu turdagi dasturlar o'z oldiga ishtirokchilarni boshqarish, ularning doimiy mashq qilishi va bu bilan ularning tobeligini mustahkamlashni maqsad qilib qo'ymaydi. Aksincha, kattalarga qulay yo'naltirilgan pedagogik usul va ish shakllarini qo'llab, bu insonlarga yangi qiziqishlarning paydo bo'lishi, ijtimoiy malakalarni mustahkamlash va biror narsaga ta'sir ko'rsatish bilimlarini egallashlari uchun shart-sharoitlar yaratishga yordam beradi.

Ular madaniyat va ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish imkonini beradi va shu bilan aqliy buzilishga ega odamlarning o'zlarini mustaqil va jamiyatga ta'sir o'tkaza oladigan vakil sifatida anglashlariga olib keladi.

Qarilik (keksalik)

Qarilik ishlashga iloj, layoqatning bo'lmasligi hisoblanib, u ko'p insonlarda ularning hayotini mazmunga to'ldirib turgan barcha narsalar bilan o'zlariga yahshi ma'lum bo'lgan muhitda, do'stlar va tanishlar davrasida muloqotda bo'lib yashashdan iborat. Shuning uchun aqliy buzilishga ega keksa odamlarning turar-joyi ular hayotini o'tkazgan joyga yaqin joylashishi zarur. Funksional buzilishga ega odamlar hayotining ushbu bosqichini jamiyat tomonidan funksional rejalashtirish ilgarigi bosqichlardagidek muhim. Shaxsiy ijtimoiy xonadonga ega bo'lgan odam his qiladigan osudalik va qoniqish hissi juda kuchli.

Agar hayot kechishini me'yoriy shakllari bilan yopiq turdagi muassasalarda yashashni taqqoslasa, u yerdagi hayot umrbod zindonbandlik singari ekanligi yaqqol ko'rinadi. Faqatgina ochiq jamiyatda yashashgina inson rivojlanishi uchun real



sharoitlarni ta'minlaydi. Mana shunday qilib soniyama-soniya, so'zma-so'z singari kun, hafta, yil, 10 yilliklar - vaqt o'tib bormoqda.

U doim o'zgarib va to'xtovsiz oqib turadi va me'yorlashtirish tamoyilining asoslaridan birini uning mazmun, maqsad va bog'liqliklarini isbot qiladi.

5. Hurmat va tanlash huquqi

Me'yorlashtirish tamoyili, shuningdek, funksional buzilishga ega odamlarning talablarini, istaklarini ularni tanlash huquqlarini eng yuqori darajada hurmat qilish va inobatga olish kerakligini anglatadi. O'z shaxsiy qo'mitalarini tuza oladigan insonlarni intilishlarini rag'batlanish lozim. Ularning vakillari esa ishchi xizmatchilar bilan birga qoidalar, tartib va voqealarni muhokama qilishda qatnashishlari lozim.

Bu ushbu tamoyilni markaziy tashkil etuvchisi bo'lib, u gapira olmaydigan yoki fikrini bayon etib bera olmaydiganlar fikri ham inobatga olinishi kerakligini anglatadi. U shaxsiy o'zlikni hurmat qilish zaruriyatini anglatadi: agar imkon bo'lsa, funksional buzilishli insonning o'zi o'z kiyimlarini, mebel va boshqalarni sotib olishi zarur yoki vaziyatga ko'ra ularni sotib olinishida ishtirok etishi kerak.

Shvesiyada 1968 yili aqliy buzilishga ega bo'lgan 20 nafar yoshlar ishtirokida anjuman o'tkazilgan.

Ular ta'tillar va bo'sh vaqtlarini muhokama qilishgan. Ular o'z bo'sh vaqtlarini o'tkazish masalasiga ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lishni xoxlardilar. Ular o'zlari boshqaradigan klub va o'quv maslahatxonalarini bo'lishini va ularning so'zlari kasaba uyushmasi va ular xizmat joylarida inobatga olinishini istashardi. Ular 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va bolalar bilan turli bayramlarga jalb qilinganliklariga va turli haddan ziyod katta guruhlar birlashuviga qarshi chiqdilar. Ta'til vaqtidagi sayr va sayohatlarda qatnashadigan guruhlar kichik va bir xil bo'lishini talab etishdi. Ularning fikrlaricha, katta guruhlarda bo'lish ma'lumotlarni eshitish va tushunishga qiyinchilik tug'diradi. U vaqtlardan so'ng aqliy buzilishga ega odamlar hayotini yaxshi tarafga o'zgartiradigan ko'p voqealar sodir bo'ldi. Kattalarning ta'lim olishlari uchun yordam dasturlari, birlashma texnologiyalarini o'rganish kurslari, shuningdek, aqliy buzilishga ega odamlarning o'z klub va qo'mitalarida faoliyat olib borishi natijasida to'langan tajriba - bularning bari milliy va xalqaro darajalarda o'tkaziladigan kongress va anjumanlar natijasidir. U yerda bu insonlar siyosiy poydevor yaratishlari va o'z talablarini ilgari surishlari mumkin edi.

Barcha nogironlar uchun ularni qiziqtirgan savollarning muhokama qilinishida mahalliy va milliy darajalarda ishtirok etish muhimdir. Shvesiyada aqliy buzilishga ega odamlar 2 vaziyatda qonunchilik jarayonida ishtirok etishgan. U yangi qonun qabul qilinishida sodir bo'lib, aqliy buzilishga ega odamlarni jamiyat xizmatidan foydalanish huquqini mustahkamladi. O'z fikrlarini bayon etish maqsadida aqliy buzilishga ega shaxslar butun mamlakat bo'ylab guruhlarda ishladilar. Natijalar rejalarga ko'ra qo'shildi, so'ng yangi qonunlarni qabul qilish loyihasi ishlarining tashkiliy qismi sifatida hukumat tomonidan kitob shaklida chiqarildi. Shu bilan aqliy buzilishga ega odamlar fuqaro sifatida me'yoriy demokratik qonunchilik jarayonida ishtirok etishdi, bu esa manfaatdor barcha shaxslar uchun katta ahamiyatga ega edi. Aqliy buzilishga ega odamlarning o'zi uchun esa bu ularning



bilimlari va fuqaro sifatida hurmatga munosibliklarini isboti bo'ldi. Og'ir, jiddiy yoki murakkab turdagi nogironlikka ega yoki nutqiy muammosi bo'lgan odamlar uchun atrofdagilarni shunga xos munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tushunilish va atrofdagi insonlarga ishonish imkoniga ega bo'lish juda muhimdir. Ularning "sokin tilini" tushunish uchun barcha mavjud vositalar qo'llanilishi lozim. Hozirda turli yordamchi vositalar qatori mavjud bo'lib, ular o'z ichiga imo-ishora tili va kompyuter texnikasini oladi. Bu insonlarning hissi, istaklari, qarorlari va ehtiyojlarini tushunish uchun yuz harakatlarini, tovush tana tilini va xulqini "o'qish" bilimi hamda odatiga ega hizmatchilar bo'lishi lozim. Bu ularga qo'yiladigan asosiy talab.

"Tilsiz" individni shaxs huquqlarining kafolati uchun, bir nechta odam uni tushunishi va u bilan bilimlarini bo'lishish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur. Agar bularning barini birgina inson bajara olsa nogiron jiddiy xavfda bo'ladi, bu xavf u insoning ortiq ishda bo'lolmay qolishidir. Bu yerda bir paradoks bor: odatda, insonning shaxsiy ishi haqidagi ma'lumot ishonch bilan bog'liq bo'ladi va uning shaxsiy himoyasi maqsadida mahfiy hisoblanadi.

Ammo bir insonga kuchli tobe bo'lib qolgan inson bilan muloqotda bo'lishning yuklatilishi nogiron shaxsi va uning himoyasi uchun xavf soluvchi noto'g'ri yondashuvdir. Barcha ehtiyojlarni nogironlarni parvarishlaydigan insonga tushuntirib berish lozim. Shuningdek, har ehtimolga qarshi ularni bunday mas'uliyatli ish bilan shug'ullanuvchi boshqa xizmatchilarga ham tushuntirib o'tish lozim.

"Hurmat va tanlash huquqi" yopiq muassasalarda kamsituvchi guruhga ega, ochiq jamiyatda esa bu fuqaro sifatida jamiyat ishlarida ishtirok etish imkonini va muvaffaqiyatli ish olib boruvchi demokratiyani anglatadi.

6. Jamiyatdagi madaniyat uchun xos bo'lgan me'yoriy oilaviy hayot shakllari

Me'yorlashtirish insonlarning "2 jins" dunyosida yashashlarini anglatadi. Aqliy buzilishga ega insonlarning bunday munosabatlari bilan bog'liq xavf-xatar yuqori darajada oshirilgan edi. Bu ko'p hollarda aqliy buzilishga ega odamlarga zarar keltiradigan tabiiy bo'lmagan segregatsiyaga olib kelgan va ularning tabiiy rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Ular ham boshqalar singari ancha ozod va tabiiy sharoitda – nafaqat bolalar bog'chalarida, biror mashg'ulotda, uylarida balki o'z turar-joylarida ham munosabatda bo'lish imkoniga ega bo'lishlari lozim. Tajribalarning ko'rsatishicha, jamoa bo'lib yashash xonadonlarida va turli xildagi muassasa bo'limlarida erkak va ayollarning birga yashashi bilan bog'liq yuqori pog'onalar mavjud. Buning natijasida yaxshi axloq va ancha tabiiy muhit shakllanadi. Biz barchamiz bu narsani anglashimiz lozim. Bu hislar sohasi va jinsiy layoqat u yoki bu darajada hayotning tashkiliy qismlaridir va ular doim ilk bolalikdan keksalikkacha turlicha namoyon bo'ladi. Biz muhabbat paydo bo'lganida u juda qadrli va biror kimga taqdim etishimiz mumkin bo'lgan narsa ekanligini, uni rivojlantirish va ideal holatlarda uzoq vaqt mobaynida saqlashimiz muhimligini anglaymiz. Biz bilamizki, bolalar shunday zotki, ularni sevish, ardoqlash, parvarishlash, ko'p yillar davomida yo'naltirib turish lozim.



Oilaviy ma’rifat har bir inson uchun tushunarli shaklda berilishi va birgalikdagi hayotni omadli qilishni o‘z ichiga olishni bilishi lozim. Shuningdek o‘zaro hurmat, gigiena haqida va turli kontratsepsiya vositalarini qo‘llash hamda homiladorlik haqidagi bilimlarini yoritishi lozim. Avvallari majburiy va kamsituvchi sterilizatsiyalar o‘tkazilgan, hozirda esa turli kontrasepsiya vositalaridan foydalanishga binoan undan voz kechish mumkin. Bundan tashqari, kasallanish xavfi majburlash va xo‘rlash, o‘zini himoya qilish, o‘ziga nisbatan xavf tug‘ilganda yaqindagi insonga murojaat qilish kerakligi, iloji boricha politsiyaga xabar berish kerakligi haqida ma’lumotlar beriladi. Mana shu hajmdagi bilimlarni egallash zarur bo‘ladi!

Ba’zi odamlarga nikoh qurish bilan bog‘liq va bola huquqlari bilan bog‘liq qonunlar haqidagi bilimlar ham kerak bo‘ladi. Shuningdek, ular bolani parvarishlashni va uni parvarishlashda jamiyat xizmatchilari bilan hamkorlikda bo‘lish zarurligini bilishlari lozim.

Yopiq muassasalarda jinsiy hayotning me’yoriy shakllarini yuzaga keltirib bo‘lmaydi, ochiq jamiyatda esa real talablar va imkoniyatlar mavjud.

7. Mamlakat uchun xos bo‘lgan me’yoriy iqtisodiy shakllar va huquqlar

Aqliy buzilishga ega insonlar imkon qadar me’yoriy darajadagi hayotga erishishlari uchun, albatta, ularga boshqa barcha insonlarda mavjud fundamental iqtisodiy va ijtimoiy himoyani ta’minlash lozim. U umumiy ijtimoiy qonunchilikka va kompensatsion iqtisodiy yordamchi o‘lchamlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu masalan, bolalar nafaqalarini, vaqtdan ilgari nafaqani, ishga ko‘ra nafaqani, eng kam maosh va boshqalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Biror turdagi yopiq muassasalarda yashaydiganlar haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu mablag‘ni katta qismi oziq-ovqat va yashashga sarflanishi mumkin, ammo turli sarflar uchun zarur bo‘lgan kundalik pul miqdarini bu inson doimiy ravishda olib turishi lozim, bu real ijtimoiy treningga asos soladi, unga erkin tanlash imkonini beradi va shaxsiy vakolatlilik hissini oshiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan hozirda barcha yopiq muassasalar umuman samarasiz bo‘lsa kerak. Ular o‘z tasarruflaridagi insonlarni ongsizlashtiradi va ularni ijtimoiy munosabatlarda sustlashtiradi, shuningdek, xizmatchilarning mutaxassisligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ishchilar harakatlari ijtimoiy jihatdan ko‘rib chiqilgan ahamiyatli natijalarga olib kelmaydi.

Yopiq muassasalar uchun xos bo‘lgan fikrlar obrazi o‘z ortidan, shuningdek, sarflar ularning samaradorligidan kelib chiqqan holda hisoblanmayotganligi bilan bog‘liq xavfni yetaklaydi. Mablag‘ni moslamalarga emas, insonlar va xizmatchilarning ta’limiga sarflash lozim. Ular esa yildan-yilga tajriba orttirib boradilar. Yopiq muassasalar iqtisodiy shakldan chetga chiqadilar. Mablag‘ini kadr resurslari va nogironlarni o‘qitishga sarflash lozim.

8. Jamiyatda atrof-muhitga va turar-joy standartlariga qo‘yiladigan me’yoriy talab

Me’yorlashtirish tamoyili – turar-joy standartlariga, masalan, maktab yotoqxonolari, jamoa bo‘lib yashash xonadonlari va boshqa xonadonlarga qo‘yiladigan talablar boshqa fuqarolarga qo‘yiladigan talablar bilan bir xil bo‘lishi



lozimligini anglatadi. Bu funksional buzilishga ega insonlar turar joyi hech qanday vaziyatda ular rozi bo'lgan insonlar sonidan ortiq insonga mo'ljallanishi kerak emas. Vaqt o'tib borgani sayin yopiq muassasalar tobora samarasiz bo'lib bormoqda, chunki maosh va boshqa sarflar o'sib borgan, ammo natijalarning sezilarli yaxshilanishi sodir bo'lmagan. Xizmatchi xodimlar, ota-onalar, shuningdek, aqliy buzilishga ega odamlar shartlarining insoniyligini ko'rib chiqish talablari ham keyingi rivojlanishga asos bo'ladi.

Jismoniy buzilishga ega insonlar uchun ijtimoiy interfaollikni va harakatlanishni osonlashtiradigan maxsus texnik moslamalari mavjud muhit zarur. Yordamchi texnik vositalar bilan bu odamlar katta mustaqillikka va shaxsiy hayotlarida ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Izolyatsiya va segregatsiya insoniy qadr-qimmatni tushiradi va turli fikrlarga zamin yaratadi. Aqliy buzilishga ega odamlar hayotini integratsiya va me'yorlashtirish ota-onalari bilan normal sharoitlarda yashash imkonini beradi va insonlararo munosabatlarning rivojlanishini yuzaga keltiradi, bu esa nogironni jamiyatda tushunilishi ijtimoiy sabr va uning integratsiyasiga asos bo'ladi.

Funksional buzilishga ega odamlarning zaruriy ehtiyojlariga moslashuvchi oddiy ish joyi va maktablarning qo'llanilishi amalda tejamkorliroqdir. Bu maxsus maktab va ish joylarini barpo etishdan qulayroq. Chuqur og'ir yoki murakkab nogironlikka ega odamlar uchun ochiq jamiyatni shunday faoliyat turlariga imkon yaratilishi kerakki, u yerdagi joy va atrof-muhit juda muhim ahamiyat kasb etadi, buning uchun nogironlarning harakatlanishlariga bog'liq bo'lgan maxsus transportlar, moslamalar zaruriyati kelib chiqadi.

Yopiq muassasalar me'yoriy muhitning aksidir. Ochiq jamiyatda yashovchi funksional buzilishga ega odamlarning turar-joylari ba'zida ushbu jamiyatning boshqa guruhlari uchun ham foydali bo'ladigan moslashuvini talab etadi.

Aqliy buzilishlarga ega odamlarni o'qitish jarayoni uchun

Me'yorlashtirish jarayonining ustunliklari

Yuqorida nomi keltirilgan Me'yorlashtirish tamoyilini 8 ta tashkil etuvchilariga rioya qilish, aqliy buzilishga ega aniq bir odamning hayot vaziyatini me'yorlashtirish imkonini beradi. Me'yorlashtirish tamoyili ko'pchilik uchun to'liq mustaqillikka va ijtimoiy integratsiyaga erishish imkoniyatlarini ochishi mumkin. Hatto, butun umrlari davomida u yoki bu darajada parvarish olishlari zarur bo'lgan insonlarga ham nisbatan mustaqillikka erishishga yordam berishi mumkin. Biror rivojlanishi jiddiy orqada qolgan yoki murakkab tibbiy, ruhiy yoki ijtimoiy turdagi nogiron insonlar biror kimsaga tobe bo'lganlarida ham jamiyatda qabul qilingan me'yoriy hayot kechirish imkoniga ega bo'lishlari mumkin.

Aqliy buzilishga ega bolalar, o'smirlar va katta yoshdagi insonlar uchun deyarli har bir vaziyat pedagogik ahamiyatga ega. Bilim olish va o'qishga har bir fuqaroning haq-huquqi bo'lganidek, bu insonlar ham o'zlariga mos keladigan o'qish, trening va rivojlanish huquqiga egalar. O'z-o'zini baholash uchun alohida qobiliyatlarni rivojlanishi doimo butun shaxsning rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun aqliy buzilishga ega odamlar bilan mashg'ulot o'tkazish, uning hayotini shakllantirishda ishtirok etayotgan odamlarga jiddiy mas'uliyatni yuklaydi.



Rivojlanishda orqada qolish inson uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi va unda tushkunlik hissini uyg'otadi, bu esa unda o'ziga baho berishni shakllantirishga ko'maklashish zaruriyatini tobora orttiradi.

Rag'batlantirish va boy taassurotlarga binoan inson o'zini faol shaxs sifatida qabul qila oladi, kam rag'batlantirish esa shu vaqtni o'zida qo'shimcha nogironlikning yuzaga kelishiga olib keladi. O'ziga xoslikni anglashning rivojlanishi – katta ahamiyatga ega. O'zining hech kim emasligi hissi – xavfli va zararli. Aqliy buzilishga ega insonning o'zi haqidagi tasavvuri uning shaxsiy bilimlarini ijobiy sezishiga ko'ra shakllanishi kerak. Boshqalar tomonidan ajratib qo'yish, ishonchsizlik, qo'rquv va kuchsizlik hissini uyg'otadi.

O'zini hurmat qilish hissini rivojlantirish uchun aqliy buzilishga ega odam o'z intilishlari orqali turli ishlarni uddalay olayotganini anglash imkoniga ega bo'lishi va shu bilan o'ziga mas'uliyatni olishni o'rganishi kerak. Demak, ko'p hollarda shaxsiy faollikka imkon bermaydigan haddan ziyod tor va himoyalangan muhit uning omadsiz ekanligi, hayotiy mavqei va e'tiborining yo'qligi hissini uyg'otishga olib keladi.

O'z qadr-qimmatini hissining rivojlanishi o'zini tutishni ma'lum darajasiga yetish borasida hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin. Shu vaqtni o'zida boshqalar tomonidan hurmat va e'tiborni ko'rsatilmaslgi xavf-xatar va bo'shliq hissini uyg'otadi.

Aqliy buzilishga ega odam o'zini katta yoshdagi mas'uliyatli va o'ziga to'g'ri baho bera oladigan inson sifatida qabul qilinishi lozim bo'lgan bosqichga yetganida bu barcha omillar asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu omillarning muhim sanalishi shundaki, ulg'ayish, shuningdek, o'z aqliy qoloqligini anglab yashashga o'rganish zaruriyatini anglatadi⁶.

O'zaro munosabatni yaxshilash uchun

Me'yorlashtirish tamoyilini qo'llanilishi rivojlanishi orqada qolgan insonlar, nogironlar ota-onalari va jamiyat uchun ilgarilib boruvchi oqibatlarga ega.

Aqliy buzilishga ega bo'lgan bolalar uchun turar-joylar tashkil etilganida, ekspluatatsiya qilingan va bolaning haqiqiy uyi sifatida qaralganida, maxsus maktablar oddiy maktablarga integratsiyalashganda va kattalar uchun mo'ljallangan guruhli xonadonlar, avvalambor, shu insonlarning uyi deb qaralganida aqliy buzilishga ega odamlarga nisbatan jamiyatda mavjud kundalik to'g'ri munosabatlarning me'yoriylashuviga olib keladi. Integratsiya - bu insonlarni atrofdagilar tomonidan tushunishning yaxshilanishiga asos bo'lsa, izolyatsiya va segretatsiya bilimsizlikka zamin yaratadi.

Aqliy buzilishga ega odamlar yashaydigan muhitni Me'yorlashtirish, shuningdek, xizmatchi (personal) mehnatining shartlari me'yoriylashuviga olib keladi. Xizmat ko'rsatuvchi personal aqliy buzilishga ega odam bilan umuman boshqa munosabatda bo'la boshlaydi, uning va o'zining rolini tushuna boshlaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyat tomonidan xizmatchilarni boshqa taraflama qabul qilinishiga olib keladi. U o'z baholanishini yuksalishiga va ijtimoiy obro'si

⁶ Шубина А.В. Особый ребенок: уход и развитие. Пособие для родителей. -Т: РЦСАД, 2009, 69 стр.



salmog'ining oshishiga erishadi, bu esa doim ishchi kuchi samaradorligining yuksalishiga olib keladi.

Me'yorlashtirish tamoyilini qo'llanilishi, shuningdek, ota-onalar holatlarining me'yoriylashuviga olib kelishi mumkin. Me'yoriy standartlarga mos va qulay joylashgan turar-joyning, maktabgacha ta'lim muassasasi, mehribonlik uylari, maxsus jihozlangan ustaxonalarining mavjudligi, vaqtni o'tkazish joylarini tanlashda qulaylik yaratadi. U ilojisiz tanlashga emas, balki tinch, osuda muhitda tanlab olish imkonini beradi.

Agar mas'ul jamiyat tashkilotlari vakillari rivojlanishi orqada qolgan insonlar bilan chambarchas munosabatlarga kirisha olsalar, o'z qarorlarini shakllantirishlari oson kechadi, ular samaradorlikning maqsadga yo'naltirilgan dasturlari vujudga kelishiga olib keladi⁷.

Integratsiya

O'zlikda bo'lish – begonalar orasida o'zlikda bo'lishni bilish va imkoniga ega bo'lish. Bu insonning integratsiyasini anglatuvchisi. U insonlar orasidagi munosabat boshqa insonning o'ziga xosligini o'zaro tan olish va umumiy qadr-qimmat, huquqlariga asoslanishi kerakligini anglatadi.

Bunday tan olishlarning bo'lmasligi tarki dunyo qilish, segregatsiya va boshqalardan ajralish (yakkalanish) oqibati bo'lishi mumkin.

Me'yorlashtirish tamoyili ushbu tamoyil qamrab oladigan sakkizta tashkil etuvchilarga ko'ra boshqa odamlarni aqliy buzilishga ega odam bilan o'zaro munosabati haqidadir. Shuning uchun ushbu tamoyilga asosan inson ko'pgina sohalarning bog'liqligini tushunishi va u orqali jamiyatga kirishi hamda integratsiyalashishi jamiyat tomonidan o'ziga xosligi hurmat qilinishi kerak.

Integratsiya quyida keltirilgan aniqliklar yordamida tahlil qilinishi mumkin.

Integratsiya turlari

1. Jismoniy integratsiya funksional buzilishlarga ega odamlarga boshqa insonlar bilan bir xil jismoniy muhitda yashash va u yerda me'yoriy kundalik, haftalik va yillik ritmga ega bo'lish imkonini beradi. Jismoniy integratsiya bu insonlar uyi oddiy rayonlarda joylashganligini, ta'lim olish umumta'lim maktab binolarida o'tishini, ish joylari ishchi va ishlab chiqarish rayonlarida joylashganligini, shuningdek, bo'sh vaqtlari imkon qadar shunga monand joylarda o'tishini anglatadi.

2. Funksional integratsiya – boshqalar singari va ular bilan birga jamiyat funksiyalariga yondashish imkoniyati mavjudligini anglatadi. Funksional buzilishga ega har bir odam do'kon, muzey, basseyn, restoranlar singari atrof-muhitni me'yoriy funksional komponentlaridan foydalanish bilimlari va imkoniga ega bo'lishi kerak. Agar maktabda aqliy buzilishga ega bolalar uchun dam olish va tushlik vaqti alohida belgilansa, bunda funksional integratsiya haqida hatto u boshqa tarafdama integratsiya funksional bo'lsa-da, so'zlamasa ham bo'ladi.

3. Oilaviy integratsiya – ushbu inson uchun muhim bo'lgan insonlar bilan doimiy o'zgarib va o'sib boruvchi shaxsiy ehtiyojga ko'ra birga yashash bilan

⁷ Грюневальд Г., Нире Б. Ақлий ва бошқа функционал бузилишларга эга бўлган шахслар учун ташкил этилган ёпиқ муассасаларда ҳаётни меъёрлашуви. СПб, 2003.



bog'liqdir. Bu esa o'z ichiga bolani ota-onasi, aka-uka, opa-singillari, yaqinlari va do'stlari bilan, kattalarni esa qarindoshlari, do'stlari, erlari yoki xotinlari va farzandlari bilan bo'ladigan munosabatni qamrab oladi.

4. Guruhli integratsiya (jadallashuv) turli ijtimoiy guruhlariga kirib borishni, qo'shilishni anglatadi: qiziqishlarga ko'ra maktabda kundalik darslarda, do'stlar davrasida turli birlashma va klublarda. Integratsion jarayonni ishtrokchilarini asta-sekin almashtirib boradigan guruh dinamikasi yordamida qo'llab turish mumkin. Masalan, oddiy vakildan boshqaruv vakiligacha yoki hatto o'z klubida oqsoqol yoki yuqori pog'onalarda – regionlarda (mintaqalarda, milliy yoki xalaro darajalarda).

Turli guruhlarda o'zligini bilish imkoni – passiv yoki faol ijtimoiy xabardorlik darajasining oshishiga, qadr-qimmat hissining kuchayishiga va o'zi tanlash qobiliyatining o'sishiga asos bo'ladi.

5. Ijtimoiy integratsiya o'z ichiga yuqorida ko'rsatilgan barcha turdagi integratsiyalarni qamrab oladi, lekin undan tashqari insonlararo yoki maktabda, ishda, qo'shnilar bilan va umuman jamiyatda munosabatga kirishishni o'z ichiga oladi. Bu yerda munosabatlar, urf-odatlar va baholash o'zaro bog'liqlikda bo'ladi. Ushbu munosabat maydoniga ommaviy axborot vositalarining umumiy munosabatlari va funksional buzilishga ega odamlar haqidagi jamiyat tasavvurlari ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy nogironlikni atrofdegilar yuzaga keltiradilar.

6. Jamiyat integratsiyasi deb o'zini anglashda o'z ehtiyojlarini amalga oshirish imkoniyati va qonuniy huquqlari haqida gap ketganda fuqarolar huquqining amalga oshirilishiga aytiladi. Shuning uchun yakka dasturlar va rejalashtirilgan qarorlar iloji boricha eng yuqori darajada bular taalluqli bo'lgan va uni kelajagiga bog'liq inson yoki uning ishongan kishisi bilan birga qabul qilinishi va amalga oshirilishi lozim.

Funksional buzilishga ega inson ham jamiyatda turli xil guruhlarini, birlashmalarni tashkil qiluvchi insonlar bilan bir qatorda o'z huquqlarini namoyon etishlari mumkin. Tanlash huquqining amalga oshirilishi ko'proq nogironlar bilan bo'ladigan munosabatlar uchun muhimdir, chunki aksi bo'lganda yana qo'shimcha tarzda ularga bo'lgan o'z-gacha munosabat namoyon bo'ladi va ular jamiyatga to'liq integratsiya qilinishga nomunosib insonlar sifatida ko'riladi, ularning individualliklari inobatga olinmaydi, xavf ostida qoladi yoki inkor etiladi.

7. Tashkiliy integratsiyasi o'z ichiga funksional buzilishga ega odam integratsiyasi jarayonini qo'llovchi va ularga yordam ko'rsatuvchi shunday tashkiliy shakllar va tuzilmalarni oladi, ular boshqalarga nisbatan to'g'ri yo'l tutadi. Jamiyatda bu eng yuqori darajada bo'lgan me'yoriy model va boshqa organlarni ishga kiritish orqali erishiladi. Zaruriy harakatlar me'yoriy servis xizmatlari doirasida qabul qilina olmaganda yoki maxsus bilim va maxsus tajriba talab etilganda yoki jamiyatda bunday servis xizmatlari bo'lmaganida tashkil etilayotgan servis xizmatlari avvalgi mavjudlariga parallel ravishda bunyod etilishi va boshqa jamiyat servis xizmatlariga monand bo'lishi zarur. Integratsiyalash – bu shaxsiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u funksional buzilishga ega odamlarning kuchlarini birlashishiga, boshqa fuqarolar tomonidan funksional buzilishga ega odamlarning



barcha insonlar singari hurmat qilinishiga va bir xil huquqlarga ega bo'lishiga asoslanadi⁸.

Xalqaro integratsiyada funksional buzilishlarga ega odamlarning halqaro munosabatlari va BMT miqyosida hal qiluvchi o'rin tutgan anjuman tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

BMT 1971-yildayoq aqliy buzilishga ega insonlarni huquqlari haqidagi deklaratsiyasini qabul qildi, oqibatda u bir qancha yangi tavsiyalar bilan to'ldirildi, bu tavsiyalar barcha funksional buzilishga ega odamlarga taalluqli edi. Aqliy buzilishga ega odamlarni xalqaro integratsiyasi elektron pochtaga kirish, turli anjuman va uchrashuvlarda ishtirok etish imkoniga, shuningdek, tarjimon xizmatidan foydalanishga asoslanadi. Buning bari ishtirokchilarni tanlash huquqi borasidagi tajribalarni boyishiga zamin yaratadi va ularni o'zlari yaratgan xalqaro mavqedan bahra olishlariga xizmat qiladi.

Shvesiya nogironligi bo'lgan odamlarga yordam berishni uyushtirish muhitida peshqadamlik qilayotgan davlat hisoblanadi. Bu davlatda nogironligi bo'lgan odamlar hayotini Me'yorlashtirish tamoyili ilgari surilgan. 1968 yili "Nogironligi bo'lgan odamlar sharoitini Me'yorlashtirish haqida"gi yangi qonun ishlab chiqildi. Biroq bu qonun doirasida nogironligi bo'lgan odamlar hayotini Me'yorlashtirish maxsus muassasalar sharoitida (alohida inshootlar, shaxsiy mebellar, bayramlar) amalga oshirilardi. Keyinroq ma'lum bo'ldiki, "Me'yorlashtirish" tamoyilini maxsus muassasada hayot bilan birga olib borish mumkin emas ekan.

Shu munosabat bilan Shvesiyada 1987 yili nogironligi bo'lgan odamlar uchun maxsus muassasalar taqiqlandi. Bugungi kunda nogironligi bo'lgan kattalar va bolalar o'z mamlakatining barcha oddiy fuqarolari kabi yashaydilar.

1994 yilda "Muayyan funksional buzilishi bo'lgan odamlarni qo'llab-quvvatlash va ular uchun ijtimoiy xizmatlar haqida"gi qonun qabul qilindi. Bu qonun qabul qilinguniga qadar nogironligi bo'lgan odamlar "Ijtimoiy xizmatlarni taqdim etish bo'yicha Qonun" asosida yordam olardilar. Bu qonun barcha aholining ehtiyojlarini ta'minlardir. Bu qonun asosida yordam olish uchun kasallik tashhisi, nogironlik darajasining zaruriyati yo'q, ijtimoiy ehtiyojning mavjudligini o'zi yetarli.

Bugungi kungacha nogironligi bo'lgan 70 foiz odamlar Shvesiyada shu Qonun bo'yicha yordam olishni afzal ko'radilar, qolgan 30 foizi yangi qonunga murojaat qiladilar.

1994 yildagi qonun bo'yicha nogironligi bo'lgan odamlarga ijtimoiy xizmatlarni olishda teng imkoniyatlar huquqi taqdim etildi. Yashovchi aholining holati uchun munitsipalitet mas'uldir. Nogironligi bo'lgan odamlarga xizmat jamoatchilik tashkilotlari va jamg'armalari hisobiga emas, soliqlar hisobidan taqdim etiladi.

Nogironligi bo'lgan odamlar, xususan, bolalarga ham quyidagi xizmatlarni olish kafolatlanadi:

1. Mutaxassislarning maslahati (logopedlar, okkupatsional terapevtlar, ijtimoiy ishchilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari).

2. Maxsus yordam (kimki shunga muhtoj bo'lsa, kuniga 24 soatgacha) – kundalik hayotda yordamlashish – odamning shaxsiy kvartirasida kiyinish,

⁸ Чичерина Я., Нуркелдиева Д. Не интеграция, а равноправие // Бола ва замон. - №2, 2006. - С. 20-21.



ovqatlanish. Bu chora alohida e'tiborga sazovor bo'lgan. Alohida ehtiyojli odamlar shunday yashash joyi bilan ta'minlanadilarki, unda maxsus yordamchi uchun alohida xona bo'ladi. Istasalar ota-onalar ham maxsus yordamchi bo'lishlari mumkin, u holda bu xizmatlari uchun ular haq oladilar. Tibbiy sug'urtasi bo'lgan alohida ehtiyojli odamning o'zi ish beruvchi bo'lishi va yordamchi xizmatiga haq to'lashi mumkin.

3. Sherikning xizmatlari – odamning xohishiga ko'ra unga do'st rolini bajaruvchi sherik taqdim etilishi mumkin. U alohida ehtiyojli odamni madaniy tadbirlar, diskoteka va h.k. larda kuzatib boradi, unikiga mehmonga boradi, muloqot qiladi. Sherik xizmatiga haq fakt bo'yicha amalga oshiriladi.

4. Kontaktli yordamchi – intellektual buzilishi bo'lgan odamlar uchun yordamchi. U turmushga oid turlicha vaziyatlarda nogironligi bo'lgan odamlarning manfaatlarini himoya qiladi.

5. Qarindoshlarini almashtirish yuzasidan xizmatlar (relif-servis) – asosan alohida ehtiyojli bolalarning qarindoshlariga dam olishga imkon berish maqsadida yoki uydan tashqarida qandaydir ish qilishlari uchun taqdim etiladi.

6. Qisqa muddatga uydan tashqarida bo'lish – tegishli markaz, yozgi oromgoh, uzoq muddatli bo'lmagan kurslar yoki boshqa oilada bo'lishni tashkil etishi mumkin.

7. Qisqa muddatli qarab turish – 12 yoshdan oshgan alohida ehtiyojli bolalarga uydan tashqarida bo'lish uchun yoki maktab mashg'ulotlari tamom bo'lgan vaqtda, dam olish kunlari va ta'tilda taqdim etiladi.

8. Bolalar uchun yashash shakllari – bolaning boshqa oilada, alohida xizmatlar taqdim etish bilan oilaviy uylarda bo'lishini ta'minlash uchun qo'shimcha xodimlar jalb qilinadi. Bolalar miqdori 6 ta odamdan oshmasligi kerak.

9. Kattalar uchun joylashtirishning muqobil shakllari – birgalikda yashash, sherikchilik.

10. Kundalik faoliyatni uyushtirish – bevosita alohida ehtiyojli odam bilan rejalashtiriladi va mehnat terapiyasi, boshqa faollikni o'z ichiga oladi, odamlar buning uchun haq olishlari mumkin⁹.

Nazorat savollari:

1. Normallashtirish tamoyilining mazmunini yoritib bering.
2. Psixik va jismoniy nuqsonlari bo'lgan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar qanday ijtimoiy xizmatlarga muxtoj bo'ladilar?
3. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan maktab yoshidagi bolalar qanday psixik va ijtimoiy muammolarga duch keladilar?
4. Bunday holatlarda reabilitatsion pedagog qanday yordam ko'rsatilishi lozim?
5. Yoshlar va kattalar bilan reabilitatsion pedagogika texnologiyalarini yoritib bering.

⁹ Counseling theories and techniques for rehabilitation and mental health professionals: second edition. Editors: Fong Chan, PhD, CRC, Norman L.Berven, PhD, Kenneth R.Thomas, DEd. Springer publishing company, LLC, 2015 New York., PART I: INTRODUCTION: An Introduction to Counseling for Rehabilitation and Mental Health Professionals: Norman L. Berven, Kenneth R. Thomas, and Fong Chan, 1-15 pages



6. Sizing rayonigiz shaharingizda innovatsion ijtimoiy xizmatlarning qaysi shaklini ko'rsatish eng qulay va oson?

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Gryunevald G., Nire B. Aqliy va boshqa funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslar uchun tashkil etilgan yopiq muassasalarda hayotni me'yorlashuvi. SPb, 2003.
2. Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA.
3. Shubina A.V. Osobyi rebenok: uxod i razvitie. Posobie dlya roditeley. T: RSSAD, 2009.
4. Chicherina Ya., Nurkeldieva D. Ne integratsiya, a ravnopravie // Bola va zamon. - №2, 2006. - S. 20-21.

3-mavzu. Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni rivojlanishida buzilishlari bo'lgan bolalarni parvarishlash, tarbiyalash va rivojlantirishga o'rgatish

Reja:

1. Psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar oilasining ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasi.
2. Psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar oilasidagi o'zaro munosabatlar.
3. Psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarning mustaqil hayoti.

Tayanch tushunchalar: emotsional zo'riqish, jamoatning yordami, ijtimoiy integratsiya, oiladagi munosabatlar, haddan tashqari vasiylik qilish, ijtimoiy moslashuv, mustaqil hayot.

Psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar oilasining ijtimoiy moslashuvi va integratsiyasi

Hech kim jismoniy yoki boshqa kamchiligi bor bolani xohlamagan bo'lar edi. Biz farzandimizning sog'lom, chiroyli, aqlli bo'lishini, jamiyatda yutuqlarga erishishini, bizga tayanch bo'lishini kutamiz. Biz, hattoki, kichkintoylar orasida chiroylilar tadbirini o'tkazamiz. Hayron qoladigan joyi yo'q, har bir farzand kutayotgan ota-ona hayajonlanadi, agarda ular kutayotgan bola biror nuqson yoki kamchilik bilan dunyoga kelsa, ular uchun og'ir musibat hisoblanadi.

Bunday kutilmagan holat, odatda, ota-onalar uchun og'ir hisoblanadi. Boshida ular o'zlarini ayblashadi, uyalishadi, o'z-o'ziga rahmini keltirib vaziyatdan chiqishga urinishadi. Ba'zida o'zini va bolani o'ldirish xohishi paydo bo'ladi. Natijada bunday



holatni qabul qila olmaslik boladan voz kechishga, u bilan baxtsiz hodisa yuz berishiga yoki uning begonadek bo‘lib qolishiga olib keladi.

Onalar o‘zlarini savollar bilan qiynashadi: “Nimani men noto‘g‘ri qildim?” Menga nima bo‘ldi? Natijada qo‘rqinchli javoblar topishadi. Men sog‘lom bola tug‘a olmayman. Mening bo‘ksam juda tor, shuning uchun uning boshini ezib qo‘yganman. Turmushga chiqmaganim ma‘qul edi. Sog‘lom farzandli ota-onalarni ko‘rishga ko‘zim yo‘q! Ba’zida orqasidan quyidagi savollar tug‘iladi: Men qanday baxtsiz odammanki, mening boshimga bunday fikrlar keladi. Uni sevuchi ona kerak, biz esa undan voz kechmoqchi edik!

Afsus qilish bilan birga yolg‘izlikka intiladi hamda sog‘lom farzand ko‘rish umidi ham so‘nib boradi. Ular orzu qilgan farzand yo‘qligini o‘ylab kuyib turgan vaqtlarida ularning yonlarida nogiron bola mavjud, uni parvarishlash zarur.

Achchiq haqiqatni qay tarzda yengishlari faqatgina farzandlarning kelajagiga emas, balki butun oilaning barqarorligiga ta’sir etadi. Sir emaski, ota-onalar bu bolaga 2 xil munosabatda bo‘lishlari mumkin: Sog‘lom farzandlari kabi uni sevishadi, yaxshi ko‘rishadi yoki undan jahllari chiqib, boladan voz kechishadi. Shuni tushunish mumkinki: bola kutilgan va sevimli, biroq uning nuqsoni kutilmagan va shuning uchun ota-onalar qayg‘urishmoqda. Ko‘pgina ota-onalar uni sog‘lom ko‘rish umidida yangi shifoxonalarga va shifokorlarga murojaat qilib ko‘rishadi. Aybdorlik hislari va jahlini begunoh bolaga emas, boshqalarga qo‘ymoqchi bo‘lgan ota-onalar 2 yo‘ldan birini tanlashadi: O‘zida ayb sezgan holda butun umrini nogiron farzandiga xizmat qilishga bag‘ishlaydi yoki aybni shifokorlarning sovuqqonligiga, ijtimoiy xizmatchilar, o‘qituvchilarning ehtiyotsizligiga yuklashadi. Ba’zilar uni ham, buni ham qilishadi.

Ota-onalar tezroq o‘zlarini qo‘lga olgan holda hodisaga ko‘nikishlari lozim, aks holda oila barqarorligiga putur yetkazishadi. Ko‘pgina ota-onalar ushbu holatni o‘zlari, mutaxassis yordamisiz yengishga urinadilar, lekin bu bola bilan munosabatning buzilishiga, oila tinchligining yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Axir oqibat ota-ona va farzandlari orasidagi ijtimoiy munosabat yo‘lga qo‘yiladi, lekin farzandning iloji boricha nuqsonlarini yengishiga qo‘shimcha yordam zarur bo‘ladi.

Nuqsonli bolaga sog‘lom bola singari uni sevishlari qanday bo‘lsa shundayligicha barcha muammo va qiyinchiliklari bilan qabul qilishlari lozim. Bolani tan olish u bilan o‘zaro aloqani o‘rnatishdir. Uning oilasiga yoqadigan xursandchilik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish bola rivojlanishi uchun eng yaxshi joy hisoblanadi. Shundagina u o‘ziga ishongan holda olamga kirib keladi, u jamiyatga yaxshilik tilaydigan, foyda olib keladigan bo‘ladi, bola qanday bo‘lsa shundayligicha, ya’ni harakat-tayanch a’zolarida nuqsoni bor yoki aqliy nuqsonlari bilan birga ijtimoiy jihatdan moslashadi. Har qanday sog‘lom yoki kasal bolaga uning kelajak baxti va jamiyatdagi muvaffaqiyati uchun baxtli va to‘liq oila kerak. Agar u baxtli bo‘lsa va oilasidan o‘zaro munosabat umidlari bo‘lsa uning ta’lim olishi shunchalik osonroq kechadi.

Farzand nogiron tug‘ilganligini shifokorlar to‘g‘ri qilib yetkaza olsalar va eng qiyin damlarida yordam bersalar, ota-onaga bu xabar unchalik zarba bo‘lib tuyulmaydi. Hattoki, hozir bunday yordamni ko‘pgina oilalar olishmaydi. Sekin



bo'lsa-da vaziyat o'zgarmoqda. Agar ota-onalar qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lishsa, ular Buyukbritaniyaning 3SORE jamoasiga yoki MEKSAR ga murojat etsalar, ular jamoaga kerakli mutaxassislarni topishda yordam beradilar. Zarba susaygach oila yangi tug'ilgan go'dakka yordam berishi lozim. Oila uchun eng zarur narsa - bu ota-onaning o'zaro munosabatlari mustahkamligidir, shu bilan birga, bir-birlarini qo'llab-quvvatlab yordam berishlaridir. Shunisi zarurki, ikkala ota-ona bolani parvarishlash bo'yicha javobgarlikni bir xilda olishlari kerak. Eng yomoni teng huquqlikning bo'lmasligi, ulardan biri o'z zimmasiga hamma og'irlikni olishi yoki teskarisi bola bilan ham shug'ullanish, barcha tashvishlarni, parvarishni onalar o'z bo'yinlariga olishadi, otalar esa qarshilik ko'rsatishmaydi. Ona to'liq to'qqiz oy farzandini ko'tarib yuradi, u sog'lom tug'ilishi uchun barcha maslahatlarni eshitadi, unga ziyon yetkazib qo'yishdan qo'rqadi. Tabiiyki, barcha aybdorlik hislarini u o'z zimmasiga oladi va bolaning azob-uqubatlari, parvarishini o'zi bajaradi. Achinarlisi, bunday vaziyat tug'ilishiga shifokorlar ham aybdordir, chunki ular suhbatga faqatgina otaning o'zini chaqirishadi va bu salbiy xabarni xotiniga o'zi yumshoqroq qilib aytishni taklif etishadi. U bolaning bunday holati onasiga tegishli ekanligini, otasining vazifasi esa uni parvarishlash ekanini ko'rsatib o'tadi.

Hayotda ota-onalar o'zaro juda yaqin bo'lib, bir-birlarini quvonch va tashvishda bir xilda qo'llab-quvvatlashlari kerak. Eri shuni yaxshi tushunishi kerakki, u xotiniga o'zining muammolarini ochiqchasiga aytishi ayoli uchun juda muhimdir. Boshidanoq ota-onalar shuni bilishlari kerakki, biron-bir narsaga xohish faqat farzandlarida emas, balki ularning o'zlarida ham bo'lishi va o'zlarining nikohlaridan rohatlanib yashashlari lozim. Ular bir-biri bilan o'zaro aloqaga zordirlar, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazishga, do'stlari bilan uchrashishga, jamoaviy hayotni yuritishga, boshqa farzandlarini ham parvarishlashga haqlidirlar. Nuqsonli bolaga, uning aka-opalariga va ota-onasiga doimo me'yoriy oila zarurdir. Nogiron farzand ustida keragidan ortiq qayg'urish qattiq charchashga olib keladi va oila tarqalib ketishi bilan tugashi ehtimoldan holi emas. Otalar bolasidan xafa bo'lishadi, chunki onasining barcha diqqatini u egallab oladi, avval esa ushbu e'tibor unga, ya'ni otasiga qaratilgan edi. Faqatgina diqqat-e'tibor nuqsonli bolagagina qaratilsa uning aka va opalariga uyning qiziq joyi qolmaydi va ular sekin-asta uzoqlashib ketishadi.

Yo'q: Nuqsonli bolaning talablari xuddi sog'lom bolalarnikiday. Ularni ham sevish, parvarishlash, hayotda mustaqil bo'lishiga va jamoada o'z o'rnini topishiga yordam berish kerak.

Farzandining nuqson bilan tug'ilishini bilgach, ota-onalar qo'ni-qo'shnilarga, qarindosh-urug'larga nima deb aytish haqida o'ylab qoladilar. Javob bitta: haqiqat, shifokordan to'g'risini aytishini so'raysizmi, demak, siz xam shunday qilishingiz kerak. Ba'zi shifokorlar ota-onalarga rahmi kelib, undan bor haqiqatni yashirishadi, ota-onalar ham do'stlarini noqulay vaziyatga qo'ymaslik uchun ular ham shunday qilishadi. Tug'ruqxonadan kelganingizdan so'ng do'stlaringiz, qo'shnilaringiz go'dak xaqida sizdan so'rashadi, agar o'sha vaqtda bor haqiqatni aytmasangiz, keyinroq yanada qiyin bo'ladi. Hamma so'rayotganlarga, shu jumladan, farzandlaringizga zo'rلامasdan. imkoni boricha to'g'risini, ya'ni shifokorlar fikricha, go'dakning qo'l va oyoqlari nozikligini yoki unda aqliy yoki jismoniy nuqsonlarni mavjudligini yoki



unda hushidan ketishlar kuzatilishini, uni davolash ishlari boshlanganini ayting. Siz uyalishingiz kerak emas, hech kim sizdan yordamini ayamaydi. Agar bolangizda “hammasi yaxshi”, - deya yolgʻon gapira boshlasangiz, oʻzingiz va doʻstlaringiz orasida devor qurishni boshlaysiz. Keyinchalik uyingizda mehmon kuta olmaysiz, chunki ularning oʻzlari farzandingiz nuqsonini payqab qolishadi. Ular oʻzlaridan soʻrashadi: Balki hammasini bilasiz, lekin aytishga uyalasiz? Balki siz hech narsani payqamayapsiz? Lekin ular koʻzingizni ochishni xoxlashmaydi. Sekin-asta jamoadan oʻzingizni olib qocha boshlaysiz, doʻstlaringiz ham boʻladigan uchrashuvdan oʻzlarini olib qochishadi.

Albatta, boshqa odamlar sizga yordam bermoqchiliklari noqulayliklar tugʻdiradi. Baʼzilar shifokor fikrining notoʻgʻri ekanligini va uning oʻzi ham kichkina bolada nima boʻlishini qaerdan bilishini yoki vaqt oʻtishi bilan hammasi oʻtib ketishini aytib, sizni tinchlantiradi. Siz minnatdorchiligingizni bildirgan holatda ularning fikrlari notoʻgʻri ekanligini tushuntiring.

Agar siz toʻgʻrisini borligicha aytsangiz, sizning atrofingizda yordam berishni xohlovchilar: doʻstlar, qarindoshlar, qoʻshnilar, doʻkondagi sotuvchilar toʻplanadi va sizni qoʻllab-quvvatlashadi. Agar boshqa yoʻlni tutsangiz, sizga qiyin boʻladi, tashqi dunyo bilan toʻqnashishdan qoʻrqasiz, oilangizning oʻzini ichida yopiq holda qolib ketadi va bu juda yomondir. Agar jamiyat bilan aloqada boʻlsangiz har xil gap-soʻzlarni yengib oʻtishingiz osonroq kechadi. Sizga qaratilgan ogʻriqlardan xafa boʻlmang, ularga sizni tushunishlariga yordam bering. Nuqsonli farzandlari bor oila talablarini jamiyat eʼtiboriga olib chiqish, ota-onaning tabiiy huquqiga aylanishi kerak.

Ota-onalar koʻpincha bizga hech kim yordam bermayati, deya shikoyat qilishadi. Agar koʻpchilikka yordam berish imkoniyati topilsa, ularga yordam berishgan boʻlar edi. Avval atrofingizdagilarni tanlab oling. Judayam magʻrur boʻlib, yordam soʻrashdan uyalmang hamda yordamdan voz kechmang. Turmush oʻrtogʻingiz bilan oqshomgi aylanishlardan oʻzingizni mahrum qilmang. Tanishingizdan bolangiz bilan birga oʻtirib turishini iltimos qiling va juftingiz bilan bir-biringizning diydoringizga toʻying. Siz oʻzingizni bunday xursandchiliklardan turlicha: hech kim sizga yordam berishga koʻnmaydi, hech kim bolangizga toʻgʻri qaray olmaydi, balki unga biror narsa boʻlib qoladi va siz uning oldida boʻlishingiz kerak va h.k. sabablar bilan mahrum qilasiz.

Siz oʻzingizni oʻzingiz tashvishlarga toʻldirib yuborasiz, lekin bu bolaga yordam bermaydi, aksincha oilaviy xursandchiliklardan mahrum etadi. Agar ona doimo asabiy boʻlsa, oila baxtli boʻla olmaydi. Bir necha tarbiyachitoping. Agar birortasini ham bilmasangiz oilaviy shifokoringizdan, hamshirangiz, ishchilaringizdan soʻrab koʻring, ular sizga nimanidir tavsiya etadilar. Baʼzi qoʻshnilar bir-birining bolalariga qarashadi, yordam berishadi, ularning hamrxligiga qoʻshilarsiz? Tarbiyachiga bolaning shikoyatlari tugʻilishi mumkin boʻlgin muammolar va ularni qanday bartaraf etish mumkinligi haqida aytib bering. Bolani parvarishlash, hatto oʻsmirlarning ham qoʻlidan keladi, agar ulardan iltimos qilinsa, xursand boʻlib yordam berishga rozi boʻladilar. Agar jamiyatga yuzma-yuz kelib, nuqsonli insonlarning muammolarini



bildirmasangiz, ular hech qachon ularning muammolarini bilishmaydi va tushunishmaydi hamda yordam berishmaydi.

Ota-onalar bolaning nuqsonlariga ko'nikib va u uchun qo'llaridan kelgan hamma narsani qilishga tayyor bo'lganlarida, avval ular nima qilmoqchi ekanliklarini aniq bilib olishlari kerak. Nuqsonli bola ulg'ayadi. Katta bo'lganda o'z o'rnini topishi jamiyatga qanday qo'shilishiga bog'liq. Agar uning hayotida do'stlari bo'lsa, jamiyatda me'yoriy yashay olsa, jamiyat hayotida qatnashsa va odamlar ichida dam ololsa, u baxtli bo'ladi. Aksariyat hollarda, do'stlarisiz, atrofdagilardan qochib, g'alati qiliqlar qilsa, unda u baxtsiz bo'ladi. Shuni ota-ona boshidanoq bilishi kerakki; har bir bola ulg'ayadi va o'zini kattalardek tuta olishi zarur. Agar bola yoshiga mos axloqni egallay olmasa unda bolaning ijtimoiy moslashishi qiyin kechadi yoki butkul moslasha olmaydi. Siz, albatta, so'rashingiz mumkin: agar bola o'zini qanday tutish kerakligi haqida fikr yuritish uchun yetarlicha aqlli bo'lmasa-chi? Javob shunday: bu haqda siz unchalik qayg'urmang, chunki bu to'g'ri emas. Jamiyatda o'zini to'g'ri tuta olishi uchun alohida aql kerak emas. Unga o'rgatayotganingizda shunday sharoitlar yaratingki, bola shu vaziyatlar orqali o'zini qanday tutish kerakligini o'rgansin. Shunda u hayotda shunday sharoitlarga tushib qolganida o'zini qanday tutish kerakligini aniq biladi.

Psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar oilasidagi o'zaro munosabatlar

Bola eng birinchi va eng kerakli aloqani oila a'zolaridan o'rganadi va shundan boshlab ijtimoiy moslashishi boshlanadi. Odamlar bilan munosabatga kirishishida u birinchi olgan tajribasiga tayanadi, agar ular samarali bo'lsa, bu uning kelajakda shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Hissiy va ijtimoiy tarafdin qaraganda nuqsonli bolalar boshqalardan hech narsasi bilan farq qilmaydi. U sizning parvarishingizga, uni yaxshi ko'rishingizga muhtoj, lekin boshqa bolalardan ortiq emas. Unga ortiqcha rahm qilishingiz, erkalashingiz, hayotiy davolanishlarni olib borishingiz kerak emas. Albatta, bola hayotining boshida sizning muloqotingizga, erkalashlaringizga, parvarishlaringizga ehtiyoj sezadi. Bu narsalar faqat tinch, ijobiy hayotdagina o'z samarasini ko'rsatadi, chunki chaqaloq onasining ovozi va unga bo'lgan jismoniy muloqot orqali uning kayfiyatini yaxshi sezadi.

Biroq go'dak shaxs sifatida tez shakllana boshlaydi. Endi u yordamga muhtoj va passiv emas, agar unda qandaydir nuqsonlar kuzatilsa, uni diqqat bilan kuzatib boring, lekin uning eshitayotgani hamda kuzatayotganini e'tiborga oling. Ayni shu paytdan oilaviy munosabatlar boshlanadi, u endi sizni va olamni tushunib, idrok eta boshlaydi.

Bolaning rivojlanishi, uni qanchalik muhimligi haqida hozirgi kunda ko'p gapiriladi, lekin uning ota-ona bilan o'zaro aloqasining zarurligi to'g'risida kam gapirishadi. To'g'ri, ota-ona va bolaning o'zaro aloqasi vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Ikki xaftalik go'dakka qilinadigan oddiy aloqa 5-6 oylik bolaga va albatta undan ham ko'proq 5 yoshli bolaga o'tmaydi: "U hali kichkina yoki hali ulguradi yoki u hali tushunmaydi" tarzidagi qarashlardan qoching. Bular orqali ota-ona farzandining kamchiliklarini yashirishga urinadi, buning oqibatida bola ham o'zi haqida shunday



xulosalarga kela boshlaydi, o'zini kichkina deya hisoblaydi, shu bilan o'zining yordamga muhtoj ekanligini ko'rsatadi. Afsuski, bunday munosabat bolani zaif qilib qo'yadi, natijada bola rivojlanishida erisha oladiga yutuqlardan orqada qoladi. Bola rivojlanishining qaysi tomoni yaxshiroq bo'lsa, uning o'sha tomoniga ko'proq e'tibor berish zarur, shundagina u ko'progina to'siqlarni ikki barobar kuch bilan yenga oladi. Agar umuman teskari holat bo'lsa, ya'ni ota-ona bolani hadeb aybli, yordamga muhtoj qilib ko'rsatsa, u holda bola mustaqil bo'la olmaydi. Bolangiz to'g'ri rivojlanishi uchun uning har bir ijobiy harakatini rag'batlantirib turishingiz kerak. Shunda oydan-oyga, yildan-yilga sizning qo'l ostingizda bola avval erisha olmagan bilish ko'nikmalarini o'rganadi. Xuddi shu narsa haqiqiy ota-ona mehrini beradi. Bolani batamom o'zingizga qaram qilib qo'ymang.

Qachondir bola sizsiz qoladi, hattoki biror nuqsonga ega bo'lishiga qaramasdan egallagan bilim, malakalar unga mustaqil, sizga qaram bo'lmasdan jamiyatda boshqa odamlarga qo'shilgan holda yaxshi yashashiga zamin yaratadi. Shunday qilib, bola rivojlanishining oxirgi maqsadi, ya'ni mustaqil, qaram bo'lmasligi shunday ifodalanadi: boshida bergan mehr, parvarishingiz orqali unda o'ziga ishonch uyg'onadi, so'ngra qadamma-qadam mustaqillikka o'rganadi.

Go'dakning ijtimoiy rivojlanishida onaning jismoniy va hissiy muloqoti muhimdir. Onasi bilan va keyinchalik boshqa insonlar bilan bo'ladigan muloqot bola xulqiga o'z ta'sirini ko'rsatish imkonini beradi. Go'dak hayotining birinchi oylarida, homilalik davrida onasining yonida, qorni to'q, o'zi issiq bo'lgani bois onasini rohat oluvchi tanbadek hisoblaydi. Go'dak uchun hattoki onasining hidi, ovozi, unga tegishi juda muhimdir. Uyg'oqlik paytida o'zini onasining oldida himoyalagandek sezadi va bundan taskin topadi, chunki u agarda nimadir bo'lsa onasi yordam berishini va unga yaxshi bo'lishini biladi. Bola ijtimoiy rivojlanishida onasining muloqoti zarurligi aniqdir, lekin bolaning aqliy rivojlanishida ham uning roli katta. Ta'lim berishni 5 yoshdan yoki maktabdan boshlash emas, balki tug'ilishi bilanoq boshlash lozim. Hamma zarur narsalarni ko'pincha bolalar o'zlari bilmagan holda onalaridan o'zlashtirib oladilar. Hayotda o'rab turgan ko'p narsalardan kerakli predmetni ajratib olish, bilim, ko'nikmalarini onasi u bilan qilgan muloqotdan bilib oladi. U, shuningdek, e'tiborli bo'lishga, o'ylashga, oldindan topishga, o'z fikrini ifodalashga, intilishga o'rganadi. Bolaning qilgan harakatlarini onasi rag'batlantirib, kulib qo'yadi. U bundan zavqlanadi.

Ushbu holat uning keyingi ta'limi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Narsalarning darajasiga to'g'ri e'tibor bermasalar ularga hech nimani o'rgatib bo'lmaydi. Onasining yuzi unga yaqinlashganda go'yo butun dunyo yaqinlashgandek tuyuladi va bu kun sayin davom etadi. Shuningdek, onasining yuzi unga qiziqarli bo'lib ko'rinadi, uning shakli, rangi, ko'zlarining chaqnashi, tanish ovozi, hidi, yoqimli tegishi uni rom etadi. Tasavvur qiling, istalmagan farzand nimalarni his qiladi. Ko'p vaqt u bir o'zi yolg'iz yotadi, uni hech kim erkalamaydi, yoqimli bo'lgan ovozni eshitmaydi. Bu holat bolaning ulg'ayganida befarq, e'tiborsiz, baxtsiz va jamiyatga qo'shilmaydigan bo'lib qolishiga sabab bo'ladi.

O'yinlar bolaning rivojlanishida muhim o'rin egallaydi, lekin hamma ota-onalar ham farzandlari bilan to'g'ri o'ynashni bilishmaydi. Agar o'yin sharti qiziqarli bo'lib



bolaga yoqsa, unda bu o'yinni bola faol va xohish bilan bajaradi. Bordi-yu o'yin shartlari zerikarli bo'lib, bolaga yoqmasa yoki qiyinlik qilsa, uni bajarish murakkab bo'lgan ishday qabul qiladi, natijada bajarishi uchun biror narsa va'da qilishga to'g'ri keladi. O'yin davomida ota-ona va bola bir xilda zavqlanishi kerak.

Bolaga tomosha qiladigan o'yinlar ham yoqadi: uning yuziga kattalar yuzlarini yaqinlashtiradilar, goho uzoqlashtirib boshini o'girib unga tilini chiqaradilar, berkinib olib va yana paydo bo'lishadi va hokazo. Yana "ovozli" o'yinlar, kattalar qo'shiq aytadi, hushtak chaladi, tili bilan turli ovozlarni chiqaradi. Asta-sekin oddiy tizimli o'yinlarga o'tiladi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ota ham bola bilan o'ynashi kerak. Ota bilan o'ynaydigan o'yinlar o'ziga yarasha qiziqarlidir. Uning ovozlari past, qarashlari o'zgacha. U bolasini osmonga otishni yaxshi ko'radi. Bu o'yinlar bolaning hayotiga o'zining turli ta'sirlarini o'tkazadi, shu bilan birga, erkakcha fe'l-atvor, xulqi bilan tanishishga imkon beradi. Ovozlariga qiziqtirish juda zarurdir. Buning uchun bolaga har xil ovoz chiqaruvchi o'yinchoqlar berilishi, qog'ozlarni g'ijimlash, qoshiq bilan piyola yoki patnisga urish orqali tovushlarga o'rgatish mumkin. Doimo birgalikda shug'ullanayotganingizda u bilan gaplashing, jim o'tirmang, unga alohida so'zlarni qaytarishga majburligini bildirib, biror-bir tovushni mustaqil tinglashga, oddiy ona nuqtini eshitishga imkon bering. Keyinroq ularga taqlid qilib gugulashi va o'zining ovozi bilan sizni hayajonlantiradi. Hattoki artikulyatsiya a'zolarida nuqsonlar bo'lsa ham nutqning tushunilishi, tabiiyki, ko'p qaytariladigan oddiy so'zlarning tushunarli bo'lishi muhim omil hisoblanadi. Agar bolangiz biror tovush chiqarsa, hatto oddiy ovoz bo'lsa ham uni qaytaring. Ozingizni kutib turib yana qaytaring, asta-sekin bola sizning ovozingizni qaytarishga, qabul qilishga o'rganadi va uni eshitib sizga kulib qo'yadi. U tovushlar bilan o'ynay boshlaydi, keyinchalik bola atayin siz qaytarishingiz uchun turli ovozlarni chiqara boshlaydi. Shunday qilib, siz bolangiz bilan xuddi koptok otib o'ynagandek, tovushlar bilan o'ynaysiz va rohatlanasiz. So'ngra tovushlarni o'zgartirishingiz mumkin, bunda bola sizning orqangizdan takrorlashga harakat qiladi. Tovushlarni to'g'ri chiqarishi uchun siz unga eshitish va o'zining nutqiy apparatidan to'g'ri foydalanishga o'rgating. Shunday qilib, u gapirishga o'rganadi. Har bir o'yinda ta'limning har bir shaklidek bolaning reaksiyasi va javobini kuting. Chidolmasdan boladan kutayotgan javob reaksiyasini uning o'rniga qilishingiz oson, lekin bolaning o'ziga bajarish imkonini berish zarurdir. Bolaga nima qilishni ko'rsatganingizdan so'ng kutib turing, u kutganingizdek topshirilgan vazifani bajarib beradi. Agar u sizning harakatlaringiz va tovushlaringizni qaytarishga urinsa, yana bir bor qaytarib uning navbati ekanini ko'rsatib kutib turing. Juda tez va ko'p qaytarilgan vazifalar bolada o'ynash xohishini yo'qotishi mumkin va u boshqa harakat qilmaydi. U hattoki tomoshabin bo'lib sizni tomosha qilishga qaror qiladi¹⁰.

Bu yerda o'yinda foydalangan qoidalarni qo'llash kerak. Bolaning o'zi harakat qilishga imkon beruvchi barcha kuchlarni to'plash zarur. Faqatgina sabr emas, balkit vaqt ham zarur. Bolani uzoq vaqt muammolari bilan qoldirmaslik kerak, chunki u

¹⁰ Inclusive Special Education: Evidence-Based Practices for Children with Special Needs and Disabilities, Garry Hornby, University of Canterbury College of Education Christchurch, New Zealand. Springer Science+Business Media New York 2014, Chapter 7 Skills for Collaborating with Professionals and Parents, 143-157 pages.



omadsizliklar natijasida intilish, xohishini yo'qotadi, lekin darrov yordam berishga ham shoshilmaslik kerak, bo'lmasa ular passiv qo'g'irchoqqa aylanib qolishadi. Ko'pgina urinishlardan so'ng siz bilan birga kerakli harakatlarni bajaradi. Injiqlik qilsa ham bu ko'p davom etmaydi. Qachonki bular amalga oshirilganda, bola bajarilayotgan harakatlarga qo'shilganda unga yordam berishni kamaytirish, ayniqsa, vazifaning oxirida aralashmaslik kerak. Bolaga ishning oxirigacha yetkazishga imkon berish zarur. Masalan, bolaga qoshiqda ovqat yeyishiga o'rgatayotganingizda u qoshiqni o'zi ushlashi kerak, siz esa uning qo'lidan tuting. Qoshiq lablariga tegay deganda qo'lingizni qo'yib yuboring. Shunday qilib, bola boshlagan ishini o'zi tugatishi kerakligini tushunadi. Bolaga o'ziga-o'zi xizmat qilish ko'nikmalarini tug'ilganidan boshlab o'rgatish zarur. Bolani emizganingizda oldin unga ko'kraklaringizni ko'rsatib, uning uchi lablariga tekkanida og'zini ochish kerakligini imlash lozim. Ko'krak uchi yoki so'rg'ichni uning og'ziga zo'rlab tiqmang. Chaqaloqni, ayniqsa, biror nuqsoni bo'lsa, u hech narsani tushunmaydi, deb o'ylash osondir, bolada qiziqish uyg'otmaslik uni hech qanday harakatlarga undamaslik natijasida siz unga xalaqit berasiz. Siz istasangiz, istamasangiz ham bola o'rganadi. Agar bolani o'z-o'ziga yordam berishga o'rgatmasangiz unda siz uni harakatsiz qilib qo'yasiz.

Bola sizga to'liq qaramligini bilish sizni xursand etishi mumkin, lekin bu xursandchilikning kichik nozik soyasidir, siz aksincha, unga o'zining kamchiliklarini yengishga yordam bersangiz siz yanada ko'proq xursand bo'lasiz.

Bolaga ta'lim berishning barcha davrlarida sizning urinishlaringiz samarali bo'lishi uchun bir qator qoidalarga rioya eting:

- bola har qanday yoshda ham harakat qilishga tayyor bo'lishi kerak, ya'ni vazifa qiziqarli bo'lishi lozim. U diqqat bilan, xursand bo'lib sizga javob bersin. Shuning uchun u yoki bu harakatlarga juda qiziqqan paytda o'rgatish kerak. Masalan, bolaga mustaqil ovqat yeyishni uning qorni och paytida o'rgatish zarur, qorni to'q yoki o'yinqaroq paytida o'rgatish tavsiya etilmaydi;

- bolani oz-ozdan o'qitish kerak: agar uning zerikib qolganini sezsangiz tezda mashg'ulotni to'xtating. Bola bilan janjallashish mumkin emas, siz baribir yutqazasiz, ikkalangizga ham to'xtash maqsadga muvofiq;

- shunday qiling: ko'rsating, kuting, olqishlang, kuting, ko'rsating va h.k.;

- bolaning intilishini ko'rib, o'ziga kelib olishi uchun vaqt bering, olqishlang, maqtang, kulib qo'ying va h.k.;

- bolaning har bir harakatlariga yaxshi munosabatda bo'ling, uning har bir xatolariga tanbeh bermang, har bir, hattoki, eng kichik harakatlarini ham rag'batlantiring. Shunda u xohish bilan o'rganadi;

- oxirgi bosqichdan boshlab vazifani bajarishga o'rganing. Avval birgalikda bajaring, oxirgi qadamda esa bolani o'ziga mustaqil bajarishiga imkon bering. Shu bosqichni yaxshilab o'rganganidan so'ng oxirigidan bitta oldingisiga o'ting. Shunday qilib, bola avval egallagan harakat-ko'nikmalariga qaytadi va unda o'z kuchiga ishonch, omadni sezadi va o'zi bajara olishidan xursand bo'ladi;

- agar bola qarshiliklar ko'rsatsa, uni qiynamang, yaxshisi mashg'ulotni to'xtating. Siz uni qanchalik majburlasangiz u shunchalik qarshilik ko'rsatishini



unutmang. Nima uchun? Chunki bola o'z kuchiga ishonib, sizni o'jarligi bilan jahlingizni chiqarib, bo'ysunishni xohlamaydi. Xafa bo'lganingizni ko'rsatib, uni xursand qilmang. Agar bola ovqat yeyishdan bosh tortsa, uning idishini tinchgina olib qo'ying (unga rahm qilmang, keyingi ovqatgacha hech narsa bermang, o'jarligi sizga emas, o'ziga zararligini tushunsin). Qattiqqo'llik? Umuman, unday emas, yaxshisi oxir-oqibat qattiqqo'llik qilish kerak. Aniq qoidalar tez va oson qabul qilinadi;

- sizdan sabr va vaqt talab etiladi. Agar nuqsonli, sekin harakatlanuvchi bolangizga yetarlicha vaqt ajratmasangiz, farzandingiz kutilayotgan vazifani bajarishga ulgurmaydi. Natijada u sizga hech narsani tushunmayotgandek tuyuladi. Bu, ayniqsa, jismoniy nuqsoni bor bolalarga tegishlidir: ularning harakatlari sekin va qiyin, ba'zida bola ularni bajarishga qurbi yetmaydi;

- agar bolaning qo'l-oyoqlari butunlay ishlamas, unga sizni tushungan yoki tushunmaganligini ko'rsatishga o'rgating. Masalan, boshini egib "ha", boshini chayqatib "yo'q" deyishi mumkin;

- harakatlaringizni to'xtatmang, hattoki tuzalish juda qiyin kechsa ham har bir yaxshilanish tomonlarini hisobga oling. Agar siz o'rgatishdan to'xtasangiz unda boshqa o'rganishga imkon bo'lmaydi. Agar siz bola biror narsani qila olish imkoniyatiga ega emas, deya qaror qilsangiz, u bu ishni hech qachon qila olmaydi. Suzishni qanday o'rganganingiz esingizdami, bir muddat sizning qo'lingizdan kelmaydi, deb o'ylagansiz, boshqalar suzishiga qanday havas qilganingiz esingizdami?! Birdan siz ham suzishni o'rgandingiz, endi nimasi qiyin bo'lganini eslay ham olmasiz.

Tabiiyki, bolaning kelajagi haqida ota-ona qayg'uradi. Bu holat doimiy bo'lib qolishi mumkin. Ota-onalarni quyidagi savollar qiynaydi: u gapiradimi, u yura oladimi, qachondir ishlay oladimi, bizdan keyin u qanday yashaydi? Bu savollarga oilaviy shifokor javob berishi lozim, faqat imkon bo'lganda. Javobni nihoyatda ehtiyotkorlik bilan aytish darkor, chunki bola kichikligida hamma narsani oldindan aytib bo'lmaydi.

Biroq bolaning kelajagi haqida qayg'urmasdan, unga hozirdan biror kuch bilan yordam berish zarur. Tashvishlanish ko'pincha siz uchun buzuvchidir, chunki u barcha imkoniyatlardan foydalanishga xalaqit beradi, bu esa, albatta, bolaga o'tadi, natijada u baxtsiz bo'ladi. Hamma narsaga ishonavermasdan, bolaning holatini baholab, unga barcha imkoniyatlaringizni jamlab yordam bering. Hech narsa tashvishlaringizni tuzatmaydi, siz o'zingiz tushungan holda farzandingiz muammolariga doimiy yordam berib borsangiz samarali bo'ladi. Omad, hattoki, eng kichigi ham – bu umiddir. Umid qilish maqsad sari qo'yilgan birinchi qadamdir. Bolangizga qanday yordam berishingiz haqida kerakli ma'lumotlarni o'qing, eshiting, so'rab, surishtiring. Siz uning asosiy o'qituvchisi hisoblanasiz. Mutaxassis sizga yordam beradi, lekin sizning vazifangizni ular bajara olmaydi. Ulardan o'rganing. Shundagina bolangizga mukammal yordamni ta'minlay olasiz. Shuni unutmang, siz birinchi kundanoq bolangizga eng zarur ishni qildingiz, siz unga sevishni, diqqat-e'tiborli bo'lishni, olamni kuzatishni, ta'lim olishga xohishni uyg'otdingiz. Shuning uchun siz bir to'xtamga kelib, bolaning hozirgi holati, uning nimalarga muhtojligi yoki ehtiyoj sezishi mumkinligi haqida o'ylang, biroq u umuman me'yoriy holatga



kelib qoladimi, deb o'ylash kerak emas. Achinish, tanbeh, qo'rquv, nuqsoni tuzalib ketadi, deb kutib o'tirish ortiqchadir. Sizga zarur narsa – bilim, ko'nikma, sabr, bir fikrga kelish. Ammo bularga asta-sekin erishish zarur. Bola haqidagi tashvishlar sizni to'liq qamrab olishi noto'g'ri. Aks holda siz va butun oila a'zolaringiz baxtsiz bo'lib qolasiz.

Ota-ona vazifalarini everest alpinisti bilan solishtirish mumkin: u ham balandlikka chiqa olmasdan yiqilib tushishi mumkin. Ammo u oldidagi to'siqlarni qanday yengishini biladi. Juda baland chiqa olmas, o'zi uchun odam qanday balandlikka chiqa olishini bilib oladi, shuning uchun har bir qadamini yaxshilab o'ylab bajaradi.

Balki nuqsonli bolalar uchun “tartib-qoida” so'zi juda qattiq yoki kerakmas bo'lib tuyular, lekin unday emas. Serebral falajlangan bola boshqalar singari jamoa olida o'zini to'g'ri tutishni bilishi shart, aks holda jamoa qoidalari bilan hisoblashmasa, u o'zi haqida salbiy fikrlar tug'ilishi mumkinligini bilishi zarur. Hattoki, og'ir aqliy nuqsonli odamlar ham o'zini jamoa oldida to'g'ri tutishni o'rgana olishlari mumkin, chunki buning uchun ko'p aql zarur emas. Biroq bunday bolalarga ta'lim berayotganlardan tizimli ishlash talab qilinadi: boladan nima kutilayotganini va u nima qilishi kerakligini bilishi kerak. Agar nuqsonli o'smir yoki katta odam o'zini bolalardek tutsa, bu uni o'zini kattalardek tuta olish qobiliyatiga ega emas, degan fikrni tug'dirmasdan, balki unga o'zini shunday tutish o'rgatilgan, deb o'ylanadi. Umuman hamma narsaga o'rgatish mumkin: yugurmasdan jim o'tirishga, narsalarni olmaslikka, ularni taqillatmaslikka, odamlar g'ashiga tegmasdan ular bilan suhbatlashishga, bolalar o'yinchoqlarini olib qo'ymasdan ular bilan o'ynashga...

Tartib-qoidaga va o'z-o'zini idora etishga o'rganishni ilk yoshlaridan boshlash kerak. “U buni tushunish qobiliyatiga ega emas”, deb o'ylamaslikka xarakat qiling. “U boshqalar singari o'rganishi kerak”, deb o'zingizga ayting.

Boshidanoq bola siz bilan birgalikda o'zaro muloqot qurishni o'rganishni boshlaydi: u sizning tanbehlaringizdan qochib, sizning roziligingizni olishga urinishi zarur. Buning hammasi bolaga o'zining qay vaqtda to'g'ri va noto'g'ri ish tutayotganligini tushunishga yordam beradi. Noto'g'ri hulqini tuzatishni bola sizning qoshlaringiz bilan unga qattiq qarashingiz yoki ovozingiz orqali bilib olishi kerak. Shunday qilib, siz uning yaxshi xulq-atvoriga erishasiz. Sizga tizimli bo'lishingiz haqida qaytarishga sabab yo'q.

Albatta, ko'pgina ota-onalar o'zlarini shunday tutishadi, lekin o'zingizni bir marotaba xam noto'g'ri tutsangiz, unda xech narsa o'xshamaydi. Ushbu sxema faqatgina shunday hollarda o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinki, qachonki siz bolangizni urishishdan ko'ra ko'proq maqtab o'zaro munosabatlaringizni ijobiy qilsangizgina yordam beradi. Shunda u siz uni yaxshi ko'rishingiz va u ham sizni yaxshi ko'rishini biladi. So'ngra sizlar bir-biringizga xursandchilik ulashishga harakat qilasiz. Shunda u sizni hafa qilmaslikka harakat qiladi. Agar bolaga tanbeh berib, undan norozi bo'laversangiz, sizning o'zaro aloqangiz juda sust va yomon bo'ladi. Bola o'zini keraksiz va yomon deb his qiladi. Doimiy tanbeh va noroziliklar bildirsangiz u bilan uzoqlashtirishga yoki boshqa muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Natijada bola yana quloqsiz, sizni xafa qilishdan xursand bo'ladigan yoki



qo'rqoq bo'lib qoladi. Har ikki holatda ham ijtimoiy tarbiyalash ko'nikmalari imkonsiz bo'lib qoladi. Natijada bolaning o'jarliklariga umuman chiday olmaydigan bo'lib qoladi. Agar bolani urisha turib kattalar kulib turishsa yoki ijobiy munosabat bildirib tursalar yoki ota-onadan biri boshqacha munosabat bildirsa, bola tushunmovchilikda qoladi va tarbiyani olmaydi yoki noto'g'ri salbiy tomonini oladi. Kattalar bolalarning erkaliklarni qo'llab jamoa oldida noto'g'ri xulqini tasdiqlayotganlarini tushunishi oson emas. Bola kichikligida qilgan qiliqlarini avval qo'llab-quvvatlagan bo'lsangiz asta-sekinlik bilan harakat qo'ling. Bolaning rivojlanish imkoniyatlari me'yoriy bo'lishi uchun u bilan birga ota-onasi ham shakllanishi, o'sishi kerak. Men shuni nazarda tutayapmanki, bola bilan birgalikda ota-onasi ham ulg'ayishi kerak. Nuqsonli bolalarning ota-onalariga qiyin. Ularga bola shakllanmayotgandek tuyuladi va natijada ular ham bo'shshib qolishadi. Lekin ular o'zlari shakllanib, rivojlanib bormasalar, unda bolada hech qanday o'zgarish bo'lmaydi. Bola bilan o'zaro rivojlanishingiz juda zarurdir. Aks holda siz bolani go'dakligidagi onasiga bo'lgan munosabatni saqlab qolasiz va uni buza olmaysiz. Go'dak tirnoqlari bilan yuzingizni tilganda yoki qo'llari bilan sochingizni tortganda sizga bu yoqimli tuyuladi. Siz uni kulib qo'llab qo'yasiz. Bu to'g'ri, siz bola bilan ijtimoiy munosabatga kirishmoqdasiz, buning natijasida uning harakat-ko'nikmalari rivojlanadi. Sizning tanangiz tuzilishini o'rganadi. Lekin vaqt o'tishi bilan kuchi ko'payadi, u nozik harakatlar qilishga, boshqa odamlarning tuyg'ulariga diqqatini qaratishga va endilikda turli o'yinchoqlarni, predmetlarni, o'rab turgan olamni kuzatib o'rganishi kerak. Buning uchun ota-onalar bolaning predmetlarga bo'lgan qiziqishlarini qo'llashi va yomon xulqining oldini olishlari kerak. Shuni aytib o'tish kerakki, bolani tarbiyalashda uning axloqini hadeb muhokama qilavermay, rivojlanishini to'xtatib qo'ymaslik uchun asta-sekinlik bilan o'rgatib borish zarur. Bola avval faqat kattalar bilan o'ynagan bo'lsa, o'yinchoq olganidan so'ng diqqatining bir qismi unga qaratiladi. Bolani o'rab turgan olam esa unga uchinchi tomonlama munosabat bo'ladi. O'yinchoq va mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqish bolaning rivojlanishiga yordam beradi. U endilikda ikki tomonlama odam va odam munosabatiga bog'lanib qolmaydi. U hali ham kattalarning qo'llashiga muhtoj, lekin endilikda u o'ziga doimiy diqqatni talab qilmaydi. Chunki u o'zi uchun yangi olamni ochdi, bu o'yinchoq bilan bo'lgan munosabatdir. Ota-onalarga yutuq bu bolaning mustaqil bo'layotganini, shaxs sifatida shakllanayotganini har xil holatlarda odamlarga ko'nikishini kuzatishdir.

Har doim bolaning ko'ngliga qarayverish uni tantiq qilib qo'yadi, lekin ota-onalar birdaniga bola o'zini boshqacha tutishi mumkinligini tushunib qolib, unga birdaniga boshqa talablarni qo'yib kelishadi. Bunday tez o'zgarish bolani bir tizimlikdan chiqarib tashlaydi. Siz har doim ruxsat bergan narsalaringizga ruxsat bermang va mana sizga yoqimsiz sovg'a: u bolacha to'polonni boshlaydi, chiyillaydi, polni oyog'i bilan taqillatadi. Agar u bu bilan o'z niyatiga yetsa onasi qo'rqqanidan uni qo'yib yuborsa, bola ushbu xulq-atvorni o'z maqsadlarini amalga oshirish yo'lida doimiy qo'llaydi. Bunday bo'lmasligi uchun bolaning xulqini sekin-astalik bilan oddiy iltimoslar orqali to'g'rilab borish, har biri talablaringizni tinch, qattiq qo'ying. Agar to'polon qilish ko'nikmalari shakllangan bo'lsa, ularni to'g'rilash mumkin. Eng



yaxshisi unga e'tibor bermasdan boshqa xonaga chiqib ketish, agar u odamlar oldida bunday qilsa uni olib ketib tinchlanmagunicha yolg'izlatib qo'yish kerak. Agar to'polonni harakat-tayanch apparatida kamchiligi bo'lgan bola uyushtirsa, u tinchlanmaguncha unga orqangizni o'girib oling. Shuni aytib o'tish kerakki, bunday tomon bilan o'zini noroziligini bildirayotganday bola sizga javoban bir qancha vaqt o'zini yomon tutishi mumkin. To'polonlar unga barcha narsalarga erishishiga yordam bergan va tabiiyki, u sinalgan usulni qo'llaydi. Qarshilikka duch kelib u yanada balandroq baqirib, oyog'i bilan uzoq va qattiqroq urishi mumkin. Shuni tushunish muhimki, kelajak munosabatlaringizni yaxshilash uchun bularning hammasidan o'tish kerak. Agar ko'pgina urinishlaridan so'ng kechirishdan voz kechasiz, vaziyat yomonlashadi, chunki bola endilikda biladiki yaxshilab harakat qilsa, o'z niyatiga yetadi.

Qayta tarbiyalashga to'g'ri vaqtni tanlash ham muhim ahamiyatga ega. Bu ishni do'konda yoki boshqa jamoaviy joyda boshlamang: odam ko'p joyda to'polonga ta'sir etish qiyin. Eng yaxshisi buni uyda qilganingiz ma'qul, o'zingiz tomonga ijobiy xal bo'lguncha odamlar oldida munosabatlaringizni hal etmang.

Ta'kidlab o'tamanki: barcha ko'rsatilgan muammolardan qochish mumkin, agar boshidan o'zingizni oldingizda bolani to'g'ri tarbiyalashni maqsad qilib qo'ysangiz va sekin-astalik bilan o'zini to'g'ri tutishga o'rgatib borsangiz, shunda o'zingizdan kuchsiz insonga bunchalik ayovsiz kuch ishlatsangiz to'g'ri kelmaydi. To'polonlarni to'xtatish uchun jismoniy kuch ishlatib uni urish kerak emas, yaxshisi uni o'zga ko'zlardan olib ketish kerak. Jismoniy tomondan uni urishish bola bilan bo'lgan o'zaro aloqangizni buzadi, u asabiy, o'jar bo'lib qoladi, chunki sizga taqlid qiladi. U o'zining aka-opalari yoki boshqa bolalar bilan urishqoq bo'lib qoladi. "Uni ursang men seni uraman" kabi qo'rqitishlarni o'ylab topishi mumkin. Shunday qilib, siz unga urishqoq bo'lishi mumkinligini, kim kuchli bo'lsa o'sha yutishini ko'rsatasiz.

Ota-onalar bolaga har kuni go'sht, baliq, oqsillar yeyishi kerakligiga ishonib uni qanchalik majburlasalar, bola ularni yeyishdan shunchalik bosh tortadi. Qancha ko'p uni majburlasangiz u yanada ko'proq qarshilik qiladi. Siz bolagniovqat yeyishga va yutishga majburlay olmaysiz, u darrov qayt qilib yuboradi. Majburlashlar yumshab, urish tugaganidan so'ng bola o'zi bir kuni boshqalar yeyayotgan ovqatdan yegisi keladi. U sizga boshqa qarshilik qilmaydi va sizni xafa qilmaydi.

Shunday holat yana siz bolangiz ko'proq ovqat yeyishini xohlaganingizda ro'y beradi. Ovqatlanib, u yegulik bilan o'ynashga tushadi va stolni ifloslantiradi. Bolaga tez va ko'proq qarshilik ko'rsatishga imkon yaratasiz. Siz bolaga katta odamdek munosabatda bo'lib, o'zi qancha ovqat yeyishini hal qilishga imkon bering, ovqat bilan o'ynashi esa uning qorni to'yganligidan dalolat bo'ladi. Tuvakka o'rgatishda ham xuddi shu joydan qaytariladi. Uni majburlashingiz bolaga siz uchun bu zarur ekanligini bildiradi, siymasdan ushlab qolishga imkon tug'diradi. Agar bola tuvakka borishdan voz kechsa yoki 10 daqiqa o'tib ishtonini ho'llasa, hoynaxoy u ushlab turgan bo'ladi.

Kasalxonalarda ba'zan og'ir xulq buzilishlariga ega bo'lgan, masalan, kechasilari qichqiradigan, boshini uradigan, qo'llarini tishlaydigan, doimo tebranadigan yoki giparfaol bolalarni ko'rish mumkin. Bunday muammolar tibbiy



tekshirishni talab etadi, chunki bu tarzda axloq ko'pgina kasalliklarda kuzatiladi, ammo ko'pincha hech qanday kasalliklari bo'lmasligi ham mumkin.

Diqqat-e'tibordan qolgan, muloqotdan, erkalatishdan maxrum bo'lgan bola tanasi bilan o'ynab o'zini o'zi mashg'ul qilmoqchi bo'ladi. Bu usulni ko'pincha eshitishi, ko'rishi buzilgan, og'ir aqli zaifliklar bo'lgan bolalar qo'llaydilar. Ko'pgina stereotip harakatlar – chayqalish, boshini chayqash, tilini chiqarish, barmoqlari bilan g'ayritabiiy harakatlar qilish – bunday bolalarda atrofdagilar bilan aloqa qilishni, rag'batlantirishning o'rnini bosadi. Bu harakatlardan bolalar ko'pincha o'zini o'zi tinchlantirish uchun foydalanadilar. Agarda bunday harakatlar turg'un bo'lib qolgan bo'lsa, ularni yo'qotish juda mushkul bo'ladi. Taqiqlash bilan ish bitmaydi, bu harakatlar o'rnini bosadigan qiziqroq mashg'ulotlarni kiritish lozim.

Ta'kidlab o'tamanki, barcha ko'rsatilgan muammolardan qochish mumkin, agar boshidan o'zingizning oldingizga bolani to'g'ri tarbiyalashni maqsad qilib qo'ysangiz va sekin-astalik bilan o'zini to'g'ri tutishga o'rgatib borsangiz, shunda o'zingizdan kuchsiz insonga bunchalik ayovsiz kuch ishlatishingizga to'g'ri kelmaydi. To'polonni to'xtatish uchun jismoniy kuch ishlatib uni urish kerak emas, yaxshisi uni o'zga ko'zlardan olib ketish kerak. Jismoniy tomondan uni urishish bola bilan bo'lgan o'zaro aloqangizni buzadi, u tajovuzkor, o'jar bo'lib qoladi, chunki u sizga taqlid qiladi. U o'zining aka-opalari yoki boshqa bolalar bilan urishqoq bo'lib dushmanlashib qoladi. "Uni ursang men seni uraman!" kabi qo'rqitishlarni o'ylab topishi mumkinligi eng yomonidir. Shunday qilib, siz unga urishqoq bo'lish mumkinligi, kim kuchli bo'lsa o'sha yutishini ko'rsatasiz.

Passiv o'jarlikni turli yo'llar bilan tuzatish mumkin. U qachonki bolaga biror ishni majburlab qildirish bilan birga unga xadeb tanbeh berish orqali paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, agar kattalar sabrsiz va betoqat bo'lib bolani hadeb urishaversa, uni imirsqi, axmoq, qobiliyatsiz deb atayverish, bularning barchasi, ayniqsa ta'lim berish sharoitida o'zaro aloqaning yomonlashishiga olib keladi. Harakat qilishni xohlamaslik – tabiiy reaksiyadan qochish, o'z xohishini ko'rsatmaslik, boshini egish, ko'zini olib qochish yoki yumish, qo'lini bukib musht ushlab orqali ifodalanadi. Vaziyatni to'g'rilash uchun bolani shoshirmaslik, sabr bilan uning harakatlarini rag'batlantirish zarur. Ba'zida bolaga o'qishga xohishni uyg'otish, avvalgi o'qish qavatidagi muvaffaqiyatsizliklarni unutishga pedagog yoki boshqa odam yordam berishi mumkin. Faqatgina ushbu mashg'ulotlarga ruxsat bermaslik bilan vaziyatdan chiqib bo'lmaydi, uni o'rnini bosuvchi yanada qiziqroq va yoqimli mashg'ulot topish kerak. Muloqotga va olamga bolada qiziqish uyg'onish uchu, uzoq sabr va mashaqqat kerak. Bir yoki ikki odam bolaning olamiga kirib ko'rishiga harakat kerak, lekin bola ustidan hukmronlik qilish kerak emas. Avval unga oddiy jismoniy muloqotli o'yinlar o'ynashiga o'rgatish zarur. So'ngra har xil moslamalardan foydalanuvchi o'yinlarga o'tish, keyinroq esa predmetli o'yinlarga, masalan, koptok bilan mashinalar bilan o'ynashga o'rgatish kerak.

Harakatida nuqsoni bor bolalar kamdan-kam bog'lanuvchi harakatlarga to'xtashmaydi. Agar bunday holat yuz bersa yoki bola sizga e'tibor bermayotganini sezsangiz uni tezroq mutaxassisga ko'rsating. Bolaning ko'rish va eshitishini



tekshirib (yoki qayta tekshirib) ko‘rishadi va sizga u bilan qanday o‘ynashni hamda uni qanday rivojlantirishga o‘rgatishadi.

Boshqa turdagi noto‘g‘ri axloqdan bola sizning e‘tiboringizni qaratish uchun foydalanishi mumkin: u uy bo‘ylab tentakka o‘xshab yurishi mumkin, olishga ruxsat berilmagan buyumlarni beso‘roq olishi mumkin. Soqov bolalar o‘zlarining g‘alati xulqi bilan kattalar diqqatini tortishiga urinsalar, jismoniy yordamga muhtoj bolalar baqirib e‘tibor qaratidilar. Ko‘pchilik xafa bo‘lgan bolani tinchlantirishning yo‘li u bilan gaplashib ko‘rish, qo‘liga ko‘tarib uni erkalash, krovatiga yotqizib qo‘yish deb hisoblashadi. Me‘yoriy bola, tabiiyki, kattalar bilan ijtimoiy muloqotga kirishishga harakat qiladi va hatto tekshirishlarda tasdiqlanganki, bolalar kattalarga har bir soniyalarda e‘tiborlarini qaratishadi, bu ovozi, qarashida ifodalanadi, ko‘zi bilan kattalar ko‘ziga qarab muloqot o‘rnatishadi, jismoniy tomondan qo‘llarini ushlaydi, tizzalariga chiqib olishadi va javobga erishishadi Afsuski, jismoniy nuqsonli bolalar ham xuddi shu muloqot talablarini his etishadi, ko‘pincha o‘zlariga diqqatni oddiy yo‘llar bilan qarata olmaydilar. Agar bola harakatlana olmasa, chaqira olmasa, boshini aylantira olmasa, hattoki ba‘zida sizga nazar tashlay olmasa unda nima qilish qoladi? U qila oladigan yagona narsa baqirish. Agar u yordam bersa, unga e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan vaqtda har gal baqiradi.

Ushbu muammolarni oddiy bo‘lib ko‘rinar, lekin oson emas, ona boshida bolani yonida hamma vaqt bo‘lishga harakat qilish kerak yoki doimo uni eshitishi, qarab turishi yoki unga tegib turish bilan e‘tibor berishi zarur. Buni gapirish oson, siz bunga hamma kuchingizni ishlatishingizga to‘g‘ri keladi, chunki u sizni boshqacha chaqira olmaydi. Bu bir necha oylarni, hattoki yillarni, uzoq vaqtni talab etishi mumkin. Sizdan sabr va toqat talab etiladi. Boshqa juda zarur tomoni bu siz kuzatuvchan bo‘lishingiz kerak. Albatta, har doim bolani kuzatib o‘tira olmaysiz, lekin u chiqarayotgan har bir tovushlariga e‘tibor berib, unga javob bering, bu uni qiziqtiradi va sizni chaqirishni o‘rganib qoladi. Agar siz uning past ovozlari e‘tibor bermasangiz, unda yanada balandroq baqirishga to‘g‘ri keladi. Yodingizda tutishga harakat qiling, me‘yoriy bola ota-onasi bilan tez-tez muloqotga kirishishiga intiladi, nuqsonli bolaning talablari ham xuddi shunday, bu qiyin? Ha! Onalar ko‘pincha bolaning xohishlariga e‘tibor berib charchaganliklarini bildiradi, biroq shuni esingizda tutingki, muloqot uning rivojlanishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Kattalarning e‘tibori orqali bola unga kerakli muloqotga diqqatini qanday yo‘l bilan qaratishni bilib oladi. U baqirayaptimi, demak, uni muloqotga chaqirishlari qabul qilinmagan, uning tinch qarashi bilan yoki past ovozi bilan qilgan harakatlari e‘tiborga olinmagan. U baqirgandan keyin kelib qiladigan ko‘p e‘tiboringiz kerak emas, unga uni past balandlikda eshitishingiz kerak. Boshqacha aytganda u baqirmaguncha uni xech kim payqamaydi, shuning uchun u baqirish bilan xohshiga erishadi. Baqirayotgan bolani ko‘pincha darrov tinchlantirishadi, ovutishadi, quchoqlashadi, silashadi yoki tebratishadi. O‘zi bir necha haftalik bolaga o‘yinli harakatlarni o‘rgatish kerak. Imkoni boricha u bilan erta o‘ynashni boshlashi kerak. Bola bilan “ku-ku yana” (bekinib paydo bo‘lish) o‘yinini, so‘ngra unga shiqildoq o‘yinchoqlar berish, qog‘oz o‘yinchoqlar, predmetlar bilan olamga qiziqishini uyg‘otish lozim.



Xuddi shu sabablarga ko'ra og'ir jismoniy kamchiliklarga ega bo'lmagan bola boshi bilan urishi, qo'li bilan chapak chalishi, judayam faolligi bilan yoki o'zini boshqacha tarzda yomon tutishi mumkin. Xulqi, harakati qanchalik yomonlashsa, u kattalar e'tiborini shunchalik o'ziga qaratishga harakat qilgan bo'ladi. Kattalarning uni tinchlantirishga harakat qilishlari natijasida bola talab qilayotgan e'tiboriga erishadi, chunki boshqacha yo'l bilan ushbu e'tiborga ega bo'lolmaydi. Barcha kuchingizni to'plab ushbu xulqni bartaraf etishingiz lozim, yana shunisi zarurki, boshqa safar bola uchun qiziqarli va kerakli mashg'ulot bilan shug'ullanishingiz zarur. Ba'zi kattalarga bola tinch va ijobiy kayfiyatida bo'lganida uning e'tiborini o'ziga qaratish qiyin ekan. Siz bolangiz bilan munosabatda ijobiy kayfiyatda bo'lishingiz lozim, chunki siz unga nimanidir o'rgatmoqchisiz. Siz uni oldiga kelib, biror narsa bilan qiziqtirishingiz, qo'llab-quvvatlashingiz, u bilan o'ynashingiz kerak, chunki faqatgina uni tinchlantirishingiz yoki jim qilishingiz uchun emas. O'zingizdan "qachon u bilan oxirgi marotaba gaplashdim?" deya so'rang. Agar u baqirganidan keyin, oyog'i bilan polni taqillatib, boshi bilan urganidan keyin bo'lsa unda siz bolani o'zingizni diqqatingizni xuddi shu yo'l bilan qaratishiga o'rgatayapsiz.

Agar bola odatdagidan ko'ra kattalarga uzoq vaqt muhtoj bo'lsa, ayniqsa, uni bitta odam parvarishlasa unda bolada bog'lanib qolish xavfi bor. Ushbu muammo faqatgina maktabgacha ta'lim muassasasi yoki maktabda o'z qiyinchiligini ko'rsatmasdan, balki sizning yo'qligingizda u judayam ta'sirchan bo'lib qoladi, axir siz kasalxonaga tushib qolishingiz yoki vafot etishingiz mumkin. Shuningdek, uning o'zini kasalxonaga yotqizib qo'yishlari mumkin. Bola hayotining birinchi yilida ota-onasi bir xilda qarashlari, vaqti-vaqti bilan uning opa-akalari va boshqa odamlar u bilan vaqtini o'tkazishi juda zarur.

Boshqa insonlar bilan o'tkazayotgan vaqti bolani oddiy me'yoriy hayotining bir qismini egallashi zarur. Shunda ijtimoiy munosabatlar uni xafa qilmasdan, balki rohat bag'ishlaydi. Ikki yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun ijtimoiy munosabat yanada muhimdir, uning tanishish doirasini kengaytirish kerak, shunda u 3-4 yoshga yetganida maktabgacha ta'lim muassasasida sizdan ajralishini o'ylamasdan bemalol qoladi. Agar bolani judayam ayasa, u onasiga yoki ikkala ota-onasiga judayam bog'lanib qoladi, natijada uni muassasaga berish barcha uchun og'ir va qiyin kechadi.

Ona bolasi hali kichkinaligini va usiz biron soat ham qololmasligiga o'zini ishontira boshlaydi. Oxir-oqibat agar bolani yana uyda qoldirishsa, u yanada ko'proq ularga bog'lanib qoladi, bu qanchalik uzoq davom etsa, u shunchalik qattiqroq bog'lanadi.

Ijtimoiy rivojlanish boshqalar kabi asta-sekinlik bilan amalga oshirilishi zarur, chunki bola avval o'zini o'z oilasida erkin tutsin, so'ngra boshqa odamlar oldida tutish, vaziyatlarga, o'ziga ishonsin. Ota-onalar bolalarni ortiqcha ayash orqali uni baxtli va o'ziga ishonuvchan qilib emas, balki baxtsiz, o'ziga ishonmaydigan xavfli, qaram, atrofdagilarni yomon ko'radigan qilib qo'yadilar. Shuni yaxshi esda tutinki, sizning nogiron bolangiz boshqa bolalaringiz singari ulg'ayadi. Sizdan ajraladi va boshqa odamlarga intiladi, siz uning quvonch va tashvishlarida ko'makdosh bo'lishingiz kerak.



Nogiron farzandning aka va opalari to'g'risida ko'pincha unutib qo'yishadi, vaholonki ular ham o'zlariga alohida e'tiborni xohlaydilar va ular bunga haqlidirlar. Kichik yoshdagi bolalar ota-onasini yangi tug'ilgan chaqaloqdan rashk qilishadi, ayniqsa, hamma e'tibor unga qaratilsa, ko'pincha shunday holatlar tug'ilsa, tabiiyki, ota-ona undan tashvishlanib u bilan ko'proq vaqtini o'tkazadi. Katta bolalariga vaqt ajratish va e'tibor berish, o'yindagi talablarini qondirish, ular bilan muloqot qilishni davom ettirishi kerak, buning uchun qo'shimcha kuch kerak bo'ladi. Bolalar o'zlarini xo'rlangan va esdan chiqarilgandek his etishlari kerak emas. Katta farzandingizni chaqaloqqa qarab turishiga jalb qilishingiz mumkin, bu unga foydali, shunda siz bir yo'la ikkala farzandingizga e'tibor qaratasiz. Agar siz kichik yordamchingizga rahmat aytib, uni maqtasangiz foydasi tekkanini bilib xursand bo'ladi va singil yoki ukachasiga mehri uyg'onadi. Tez orada nima uchun kichkintoyning rivojlanishi sekin kechishini so'raydi: nima uchun o'tira olmasligi, yura olmasligi, gapirmasligi haqidagi javobni to'g'ri va bola tushunadigan tilda berish kerak.

O'smirlar ba'zida go'dakda biror nuqson bo'lsa uyaladilar. Ular, ayniqsa, uylariga o'ziga qarama-qarshi jinsli o'rtoqlarini chaqirishganda siqilishadi. Lekin ota-ona uning savollariga doimo to'g'ri javob bergan bo'lsa, uning o'rtoqlari va qo'shnilari bilan ochiqchasiga muloqotda bo'lgan bo'lsa, u yaqin orada o'zini tabiiy tutadi va qattiq siqilmaydi.

Psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalarning mustaqil hayoti.

Bir umr ota-onalar nogiron bolasi to'g'risida qayg'uradilar, ular qarigandan yoki vafot etganidan keyin bolaning taqdiri nima bo'ladi, deb o'ylaydilar. Ilgari ota-onalar o'lim to'shagida boshqa farzandlaridan nogiron farzandini tashlab qo'ymasliklari to'g'risida va'da olar edilar. Ular nogiron farzandini internatga tushib qolishidan qo'rqishar edi, lekin hozir hammasi o'zgardi, Buyuk Britaniyadagi shu tipdagi muassasa yaxshi parvarishni ta'minlaydi. Bola o'smirlik yoshiga yetganda uni ba'zida uyining oldidagi internatga yuborib turish kerak. Agar u yer bolaga yoqib qolsa, ota-onalar kelajakka tinch qaraydilar. Bu bolaga mustaqil bo'lishga o'rgatishning bir turidir.

Hozirda Buyuk Britaniyada ko'p katta yoshdagi nogironlar vaqti-vaqti bilan bir oz muddatga internatga borib turishadi, tabiiyki, bu ularga ota-onasining uyini tashlab ketish imkonini beradi. Katta bo'lgach, nuqsonli inson o'zi alohida yashashi mumkin. Uning holatiga ko'ra unga kerakli muolaja ta'minlanadi. Bundan tashqari, uning ota-onasi, tabiiyki, dam olishga va qarilik gashtini surishga haqlidir. Uning aka va opalari vaqt o'tishi bilan o'zining oilalarini quradilar, unga doimo qarasha olishmaydi, albatta, ko'pchilik yordam berishga harakat qiladi.

Tushunarli holki, nogiron bolalarning ota-onalari o'z farzandlarining o'qish, yozish, sanash malakalarini va hech bo'lmaganda o'rta ma'lumotga ega bo'lishlarini xohlaydilar. Nogiron bolalar xuddi sog'lom bolalar singari hayotga moslashishi, intellektual rivojlanishidan ham zarurroqdir. Agar bolada ta'lim olishga qiyinchiliklar tug'ilsa, mavhum fikrlash qobiliyati bo'lmasa, unda o'z o'ziga xizmat qilish ko'nikmalarini (ovqatlanish, yurish, kiyinish, gaplashish) tarbiyalash kerak, shunda u atrofdagilar mehrini qozonadi. Eng zarur, lekin juda qiyin egallanadigan sifatlardan biri – bu odamlarni o'ziga qarata olishdir. Boshqalarni o'ziga yumshoq so'z,



bag'rikenglik bilan qarata olish, ulardan yordam so'rash yoki yordam taklif etish juda qimmatli sifatdir.


Biz shu fikrga keldikki, nuqsonli insonga boshqalarga yordam berishga imkon yaratish va bu ishlarini qo'llab-quvvatlashlari zarur. Kimki jamiyatga foydali inson qilib o'zini ko'rsata olsa, bu uning yutug'i bo'lib hisoblanadi. Jamiyat faol harakatdagi odamlarni, tobe, harakatsizlardan farqli ravishda ularni hurmat qiladi. Nogiron inson ham boshqa odamlarga yordam berishi kerak. Bu g'alati tuyular, lekin buning imkoni bor. Ko'p hollarda katta yoshdagi nogironlar kichik yoshdagi og'ir nogironlarni parvarishlaydilar, o'zlarining mehrlarini beradilar, evaziga mehr qozonadilar, boshqa hollarda bunga erisha olmasdilar.

Xullas, hayotining ko'p qismini odamlarga muhtoj bo'lib o'tkazishdan ko'ra, har bir kishi o'zi ham yordam qo'lini cho'zishi shart va lozim. Unga iloji boricha ertaroq uy yumushlarida, aka-opalariga, qo'shnilari, do'stlariga yordam berish kabi yengilroq vazifalar yuklash lozim. Bizning maqsadimiz - bunday odamlarni faqatgina mustaqil bo'lishga o'rgatish emas, balki unga xursand bo'lishga imkoniyat yaratish, boshqalar tomon qadam tashlab, ularga yordam berish va parvarishlash orqali xursand bo'lishga o'rgatishdir. Faqat shundagina u o'zini jamiyatning bir qismidek sezadi.

Quyidagi misollar ko'rsatganidek, terapevtik javob talab qiladigan kasbiy terapiya o'z ichiga shaxslararo hodisalarni qamrab olgan (hulq, xis tuyg'ular o'zaro ta'sirlar). Hammaga ma'lumki, terapevtik aralashish shaxsiy, individual hamda sub'ektiv jarayon bo'lib, haqiqatdanam kasbiy terapiya omadli o'tganligini ko'rish mumkin. O'tgan misollarda ko'rinib turibdiki, kasbiy doktorlar yaxshilab o'ylab tartib bilan vaziyalarga baxo bermaganda bu terapiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi. O'sha vaziyatlarning xar birida terapevtlar maqsadli munosabatlar Modelining tushunchalari va prinsiplaridan foydalangan.

Maqsadli munosabatlar Modeli kasbiy terapiyaning shaxslararo jarayonlarini batavsil konseptualizatiyani tavsiya etadi.

Bu model "men"ning kasbiy terapiyada yordam berish va ijobiy natija ko'rsatish maqsadida qanday qo'llanilishini tushintirib o'tadi. Maqsadli Munosabatlar Modeli har kungi amaliyotda paydo bo'ladigan shaxslararo dilemma va muommalarni hal qilishga ergoterapevt uchun mo'ljallangan. Maqsadli munosabatlar modelining ko'pgina tushunchalari psixoterapiyaning asosida yoshlar o'z ildizlari va nazariyalariga ega. Bunga qaramasdan, mijoz va terapevt o'rtasidagi munosabatlar katta ahamiyatga ega bo'lgan ananaviy psixoterapiyadan va faoliyatga diqqatni qaratilgan okkupatsion terapiyadan bu model farq qiladi. Shu yo'l bilan maqsadli munosabatlar Modeli okkupatsion terapiyaning mazmuni boshqa okkupatsion amaliy terapiyalar bilan aniqlanishini tan oladi. Shuni aytib o'tish kerakki mijozning faoliyati mijoz va terapevt o'rtasidagi munosabatlarni uzviy aloqadorligini bu model belgilab o'tadi. Shu yo'l bilan, mijoz va terapevtning munosabatlari okkupatsion terapiyaning umumiy jarayoniga qanday ta'sir etishi va terapiyaning samaradorligini oshirish uchun qo'llanilishini maqsadli munosabatlar Modeli (MMM) tushintiradi.



Nazariya

1-rasmda ko'rsatilganidek, maqsadli munosabatlar Modeli terapevtik munosabatlarni quyidagi tushunchalardan tarkib topganini ko'rsatib o'tadi.

Mijoz

Terapiya jarayonida sodir bo'ladigan shaxslararo hodisalar.

Terapevt

Okkupatsiya

Mijoz

Mijoz bu modelning koordinatsion markazi xisoblanadi; mijoz bilan ijobiy ijobiy munosabatlarni rivojlantirish va mijozga to'g'ri baxo berish uchun, terapevt mijozni hozirgi vaziyatni va shaxslarning tabiyatini tushunishi uchun ko'p ishlashi lozim. Vaziyatning xolatlari mijozning aniq bir vaziyatga bo'lgan o'tkir xissiy reaksiyalarini aks etirishadi (kassallik, pushaymonlik yoki stres xolatlari). Bu tavsiflar mijozning fel atvori yoki shaxsiyatini aslo aks ettirmaydi.

Vaziyatdagi tavsiflar mijozni jaxlini chiqarganda, hafa qilganda yoki terapevt mijozga biror nima qilib ta'sir qilganda kuzatilishi mumkin. Asosiy tavsiflar mijozning fel atvorini aniqlab beradi. Ular o'z ichiga mijoz tanlagan muloqot usuli



ishonch qobiliyati va boshqa nazorat va o'zgarishlarga, pushaymonlikka to'g'ri baho berishini qamrab oladi. Bularni bilib terapevt mijozga bu vaziyatlardan chiqish yo'lini ko'rsatadi.

Shaxslar o'rtasidagi sodir bo'ladigan hodisalar – bu tabiiy muloqot, jarayon terapiya vaqtida sodir bo'ladigan xolatlar. Bu bobni yoritib bergan ssenariylar shaxslar o'rtasidagi sodir bo'ladigan hodisalarni misollari xisoblanadi:

Mijoz terapevtik tomondan xavf sezadi va buni qilish uchun sekinlashadi.

Terapevt mijoz emotsional tomondan javob berishi qiyin bo'lgan savol beradi.

Terapiya jarayonida noqulayliklar sodir bo'lgani uchun mijozni ko'ngli qoladi.

Mijoz va terapevtning terapiyani maqsadi haqidagi fikrlar bir biriga to'g'ri kelmaydi.

Mijoz terapevt bergan maslahatlarni foydaliligiga shubxa bilan qaraydi.

Albatta, bu professional terapiya jarayonida sodir bo'ladigan sanog'i yo'q shaxslar o'rtasidagi hodisalarni kichkina bir qismi. Mijozlar o'zlarining shaxsiyatig, boshqalarga bo'lgan munosabatiga asoslanib. Bu hodisalarni qabul qiladi va tushunadi. Shuning uchun hodisaning ta'sirligi aynan ishtirok etayotgan mijozga bog'liqdir. Shaxslar o'rtasida hodisalar sodir bo'lganda, terapevt bulardan habardor bo'lib. To'g'ri baho berishi lozim.

Shaxslar o'rtasidagi hodisalar terapiyaning boshqa hodisalaridan o'zining emotsional. Hissiy ta'sirchanligi bilan farq iladi. Shundan kelib chiqadiki. Bu hodisalarga befarq bo'lib, ularga noto'g'ri javob berish terapevtik munosabatlarni va mijozning faoliyatini xavf ositga qo'yadi. To'g'ri javob berilganda esa ular ijobiy, samarador o'qish, mijozni o'zgartirish va terapevtik munosabatlarni yanada mustahkam qilish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Bu hodisalar muqarrar ekan, shu uchun terapevtik avvalombor MMM yordamida, terapevtik munosabatlarni mustahkamlamoq uchun, shu muqarrar hodisalarga to'g'ri baho berish kerak¹¹.

Terapevt.

MMM bo'yicha. Terapevt (barcha) munosabatlarni samarador qiladigan barcha aqliy harakatlar uchun ma'suldir. Terapevt munosabatlarga shaxslarning o'zaro faoliyatining uchta asosiy asosiy tushuncha kiritadi:

O'zaro faoliyatning asosiy qobiliyatlari

Terapevtik modaallnostlar (shaxsiy usullar)

Shaxslarning o'zaro faoliyatini asoslash qobiliyat

Terapevtning odamlar bilan ishlash asosiy qobiliyatlari mijoz bilan to'g'ri, yaxshi natija ko'rsatadigin munosabatlar qurish uchun terapevtga kerakdir. Quyidagi jadval o'sha modelni ichiga kirgan bir qancha qobiliyatlarni ko'rsatib beradi. Terapevtning tajribasiga, bilimiga va imkoniyatlariga bog'liq bo'lgan ba'zi qobiliyatlar onson qo'llanadi, ba'zilar esa samarador qo'llanishi uchun ko'pgina harakat va amaliyotni talab qiladi.

¹¹ Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA. Section 2 Conceptual Practice Models, 99-103 pages.



Asosiy qobiliyatlar mintaqasi	Mazmuni
Terapevtik kommunikatsiya	so‘zlari va so‘zsiz (verbal, noverbal) muloqot, terapevtik, tinglov ishonch, mijozga rahbarlik va qayta aloqa qilishga imkoniyat bermoq.
Intervyu olish qobiliyatlari	sezgir bo‘lish va oldindan rejalashtirilgan savollar berish, strategik savollar ishlatish, bu degani mijozni yanada keng va erkin o‘ylashga, fikrlashga yordam beradigan savollar tuzish.
Munosabatlarni tashkil qilmoq	o‘zaro tushinish, terapevtik uslubni mijozga moslashtirish, mijozning kuchli hissiyotlarini boshqarish, madaniyatlik kabi fazilalarni tashkili.
Oilalar, ijtimoiy tizimlar, guruhlar	tushunish; sheriklar (partnyorlar), ota-onalar, boshqa oilalar. Va do‘stlar bilan terapiya maqsadida hamkorlik tashkil qilish; tizimning, jarayoning va shaxslar o‘rtasidagi guruhli terapiyaning faoliyatini tushunishi.
Rahbarlar, ish beruvchilar va boshqalar bilan samarali hamkorlik	mijozlar to‘g‘risida boshqa mutaxassislar bilan so‘zlashuv. Dinamik kuch v qadriyatlar tizimini tushunishi; ular ustoz va talaba, ish ish beruvchi va ishchi o‘rtasidagi munosabatlarni belgilab o‘tadi.
Mrakkab shaxslar o‘rtasidagi xulqni tushunish va boshqarish	o‘z ichiga manipulyatsiya (o‘z hoxishiga qarshi boshqaruv), qaramlik, barqarorlik, hissiy ajralish va inkor, dushmanlik, hamda munosabatlar va ishonch paydo bo‘lish jarayonidagi qiyinchiliklarga samarali javob berish va baho berish bo‘limi.
Empatiya va munozaralar	munozaralarni hal qilish, tinchlantirish; mijoz va terapevt o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni tashkil qilish bo‘limi.
Kasbiy xulq, qadriyatlar va axloq	o‘z qadriyatlar ergoterapiyaning asosiy qadriyatlariga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi, ahloqli xulq va qarorlar qabul qilish o‘zining xulqini, fe‘l-atvorini anglash sodiqlik, mahfiylik, kasbiy chegaralarni tashkil qilish va boshqarish bilimi.
Terapiyaning rivojlanishi va shaxsning o‘sishi	mijozlarga bo‘lgan hissiy emotsional reaksiyalarni bilish, boshqarish va ma’suliyat sezish; o‘z shaxsiy hayotini nazorat qilish va kerakli yordam izlash, mijozning ijobiy natija ko‘rsatishiga ishonish.

Shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarning ikkinchi qismi – bu terapevtik modalnostlar bilan qo‘llanish. Terapevtik modalnost’ – mijozga bo‘lga maxsus bir munosabatning turi. MMM olti asosiy terapevtik modalnost’larni belgilaydi:

- Advokatirovaniya (himoya qilish)
- Hamkorlik



G'amxo'rlik

Ruxlantirish

Ta'limiy

Muommolarni hal qilish

Quyidagi jadvalda bu modalnostlarni misollari ko'rsatib o'tilgan:

Modalnost	Tavsif	Misol
Himoya qilish	Mijozning haqlari talab qilinishi taminlamoq. Terapevt o'rta tushishi. fasilator. Himoyachi bo'lishi mumkin.	Sug'urta kompaniyalaridan mijoz uchun barcha imkoniyatlar yaratib berish.
Hamkorlik	Mijozdan faol va teng terapiyaning ishtirokchi bo'lishini kutmoq. Mijozning erkinligini, mustaqilligini, yuqori darajada ta'minlamoq.	Mijoz bilan irgalikda terapiyaning maqsadlarini aniqlab, ularni tez-tez qayta ko'rib chiqmoq.
Empatiya	Bironta bir qaror chiqarganda mijozning hayollarini, hislarini xulqini tushinishga bo'lgan doimiy intilish. Bu mijozning terapevtning rostgo'yiligini va ishonchliligi tasdiqlashini ta'minlashidir.	Yaqinda orqa miyya shikastlanishini boshidan o'tkazgan mijozining qo'rquvini tushunish va g'amxo'r bo'lish, uni to'liq eshita bilish.
Ruxlantirish	Har doim mijozga najot, umid berish, hursand qilish, qo'llab quvatlash, o'ziga bo'lgan ishonchini ortirish.	Yangi usulni o'rgatayotganda bolani balan ovoz bilan quvvatlamoq.
Ta'limiy	Terapevtik faoliyatni ba'tafsil tizimlashtirish. Aniq buyruqlarni va mijoz bajarayotgan vazifalariga baho berishni taminlash.	Mashqlarni, vazifalarni qanday qilishni ko'rsatib bermoq, yordam bermoq.
Muommolarni hal qilish	Mantiqiy fikrlashga dilemmalarni yechishga undamoq, rag'batlantirmoq, strategik savollarni aniqlab, solishtirish va analiz qilib o'ylashga imkoniyatlar bermoq.	Jaroxatdan keyin mijoz o'z faoliyatiga qaytishi uchun u bilan hatolar ustida ishlamoq, harakat qilmoq.

Terapevtlar terapevtik usullari bilan qo'llanilishi tabiiy. Terapevtik usullar bilan foydalanishiga qarab terapevtlar farqlanadi. Ba'zilar faqat bir yoki ikki usullar orqali ishlaydi, bo'o'qalar esa yuqori natijaga erishish uchun ko'pgina usullardan foydalaniladi. MMM barcha usullar bilan ishlashni tavsiya qiladi. Terapevtik uslub



shu bilan aniqlanadi. Multimodel terapevtlar barcha usullar bilan samarali foydalana oladilar.

MMM bo'yicha, terapevt mijozning fe'l-atvoriga moslashtirib aniq bir terapevtik usullarini tanlashi va ishlatishi kerak. Teulorni aytishi bo'yicha, "agar muammo hal qilish paytida mijoz terapevtni harakatlarini befarqlik bilan qabul qilish, terapevt boshqa usulda ishlashi yaxshiroq bo'lardi muommoni hal qilish usulidan g'amxo'rlik usuliga, shunda terapevt mijozning reaksiyalarini, harakatlarini va muommoning ildizlarini yaxshiroq anglab yetadi".

Uchunchi asosiy qismi – shaxslar qobilayati o'rtasidagi o'zaro faoliyatni asoslash. Bu qobiliyat terapiyaning shaxslararo aspektlariga, tomonlariga va paydo bo'la oladigan muommolariga ahamiyat berishni, analiz va baho berishni talab qiladi.

Kerakli faoliyat turi

Kerakli faoliyat turi terapevt va mijoz terapiya uchun tanlagan vazifa yoki faoliyatga kiradi. Avval ta'kidlanganidek, kerakli faoliyat turini tanlash va uni kasbiy qo'llab-quvvatlash kitobda ko'rib chiqilgan boshqa modellarga asoslanadi. Maqsadli munosabatlar modeli terapevtni mijoz va terapevt o'rtasidagishaxslararo dinamikani boshqarishga yo'naltiradi. Terapevtik munosabatlar:

-kasbiy faoliyat uchun o'zaro harakat uchun;

-mijozning hislari va jarayonlar yo'naltirilgan, o'zining nuqsonlariga, uning asoratlari bilan bog'liq kundalik mashg'ulotlarni bajarish uchun fazo.

Terapevt ahloqiy tamoyillar va qiymatga ega bo'lgan munosabatlarni ma'lum bir ekspertizani o'tkazadigan shaxs sifatida ko'riladi. Mijoz esa ma'lum bir ehtiyojlarni qondirish uchun xizmatlarni qabul qiladigan shaxs sifatida qaraladi. Ularning o'zaro munosabatlari esa yagona maqsadda, ya'ni mijozning vaziyatini yaxshilashga qaratiladigan munosabat sifatida tushuniladi. Bu parametrlar - munosabatlarni aniqlashdagi muhim ko'rsakichlardir»¹².

Munosabatlar ikki xil turli daraja yoki shkalada ifodalanishi mumkin: makro-daraja (ya'ni, mijoz va terapevt o'rtasidagi o'zaro munosabat, terapevt o'rtasidagi o'zaro harakatning namunalari, o'zaro harakatlarning uzoq davom etishi va turg'un munosabatlar);

- mikro-daraja (ya'ni, hozirgi vaqtdagi munosabatlar bo'lib, terapiyaning shaxslararo munosabatlarini aniqlaydi, munosabatlarni ijtimoiy jihatdan qiyinlashtiradi yoki boyitadi.

Terapevtik o'zaro aloqadorlikning mikro i makro shkalalarining ikkalasi ham ergoterapiya jarayonida tanqidiy rol o'ynaydi va o'zaro bog'liq bo'ladi. Terapevt ma'lum bir tarzda terapevtik munosabatlarning chegaralarini aniqlashi va shaxslararo munosabatlarda ijobiy muhitni qo'llab turishi lozim (ishonch, o'zaro hurmat i soflik). Ikkala shkala terapevtning terapiyadagi personallaro hodisalarga javob berishi, diqqatni qaratishiga bog'liq bo'ladi. Terapevtik munosabatlar shuningdek, mijoz va

¹² Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA. CHAPTER 5: Emergence of the Contemporary Paradigm: A Return to Occupation 43-59 pages.



terapevt munosabatlari xarakteristikasi va xulqdagi, vaziyatdagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatadi (masalan, mijozning nuqsoni tabiati va terapiya konteksti).

Taylor (2008)ning ko'rsatishicha: «terapevtik munosabatlar bir maromda va muvaffaqiyatli bo'lishi uzoq davom etmaydi.

Ko'pincha, terapevt eng avvalo o'zaro tushunishni o'rnatishga harakat qilish, o'zaro aloqani yo'lga qo'yishi bilan boshlanadi, mijozning shaxslararo munosabatlarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan xolda terapiyaning vaziyatlariga va davolov parametrining talablariga mos bo'ladi¹³.

Terapevtik munosabatlarning muvaffaqiyatli bo'lishiga ko'pgina omillar ta'sir ko'rsatadi, terapevt o'z diqqatini ushbu omillarga qaratishi, bu omillarni o'rganishi, aniqlashi va qo'llab-quvvatlashi lozim. Mijozlar ham terapevtik munosabatlarga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadilar. Ammo, MMMning ta'kidlashicha, terapevt munosabatlarga to'laqonli javobgar ekanligini bilishi, mijoz uchun qulay sharoit yaratishi, uning zaif, ta'sirchan, asabiy, loqaydi yoki qo'rquvdan jaxldor bo'lishi o'zaro munosabatlarni buzilishiga olib keladi.

Quyida terapevtik munosabatlardagi ziddiyatlarni keltirib chiqadigan juda ko'p sabablardan bir necha namuna keltiramiz:

Mijoz avvalgi emotsional yoki xulqiy murakkabliklarni munosabatlarga ko'chirishi mumkin.

Terapiya vaziyatlari mijozga tajovuz sifatida tuyulishi mumkin (masalan, ishga qaytishga, nogironlikni tasdiqlash va nafaqa olishga yoki olmaslikka qaratilgan baxolashni amalga oshirish):

➤ terapevt va mijozning shaxslararo munosabatini yoshga, jinsga yoki etnik kelib chiqishga nisbatan mos bo'lmasligi;

➤ mijozni ekstremal stressga olib keladigan nuqson yoki biror bir hayotiy vaziyat o'zgarishi;

Mijoz yoki terapevt bexosdan biror narsani gapirishi yoki biror ish qilishi natijasida uning oqibati qattiq ta'sir sifatida idrok etiladi va vaziyat taxlil qilinmaydi, muammo xal etilmaydi.

Neizbejni shaxslararo munosabatlar potensial ravishda qiyinchiliklarni ko'paytiradi.

Terapevtning uchrashuvni boshqa vaqtga ko'chirishi yoki terapiyadagi biror bir jihatni tushunmaslik yoki shaxsiy tanazzul, dori-darmonlarning salbiy ta'siri kabi oddiy xolatlar o'rnatilgan munosabatlarga ham avval o'rnatilgan munosabatlarni buzilishiga olib kelishi mumkin. Terapevtning bunday hodisalarga qanday javob ko'rsatishi ham terapiya natijalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Hatto terapevtik munosabatlar kuchli bo'lgan ham terapevtning bunday hodisalarga reaksiyasi tanqidiy bo'lishi lozim. Shaxslararo hodisalarga to'g'ri javob qila olmaslik faoliyatga salbiy ta'sir ko'rsatadi va terapevtik munosabatlarni zaiflashuviga olib keladi.

¹³ Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA. CHAPTER 5: Emergence of the Contemporary Paradigm: A Return to Occupation 43-59 pages.



MMMning asosiy tamoyillari.

Bu modelning asosida 10ta fundamental tamoyil mavjud. Ular quyidagilar:

O‘z-o‘zini tanqidiy anglash - bu o‘zidan ixtiyoriy foydalanish kalitidir

O‘zini tanqidiy anglash, o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish turli shaxslar bilan turli vaziyatlarda, sharoitlarda muloqotda bo‘lishga doir umumiy bilimlarga, shaxslaro munosabat bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishni nazarda tutadi.

Shaxslaro tendensiyalar o‘ziga stressga, noqulaylikka, asabiylashishga bo‘lgan shaxsiy emotsional reaksiyalar va xulqni (verbal va noverbal) kiritadi. Shaxsning o‘zidan samarali foydalanishi doimo tanqidiy o‘zini-o‘zi anglashni talab etib, insonning o‘zi kommunikatsiyani tanlashini ko‘rsatadi (verbal- so‘zlarni tanlash, noverbal (imo-ishora va yuz ifodasi), va hissiy (ovozning balandligi, toni, hajmi).

Personalaro o‘zining intizomi –o‘zidan samarali foydalanishning asosi.

Terapevt mijoz bilan doimiy terapevtik munosabatlarni bevosita va bilvosita aloqa o‘rnatishga va uni boshqariga ma’sul. Bu personallaro o‘zining intizomini (oldindan ko‘ra bilish, mijoz bilan davom etayotgan kommunikatsiyaning samarasini o‘lchash va javob berish) talab etadi. Shaxslararo o‘zining intizomi (o‘zini tutish) terapevtga mijoz bilan mustaxkam munosabat o‘rnatishga, bunda mijoz terapevtga ishonadi, mijoz terapevtidan nimani istayotganini aniq biladi, terapevt esa o‘zaro munosabatlardan mijoz nimani istashiga diqqatini qaratadi va o‘zining shaxsiy reaksiyasi va istaklarini chetga suradi. Bu ayniqsa, injiq, sezgir, murakkab yoki qandaydir bir tarzda zaif mijozlar bilan ishlashda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Avval o‘ylash, so‘ngra esa his qilish

Hech kim tabiiy xolda terapiya bilan mos ravishda tutish va unga munosabatda bo‘lish bo‘yicha o‘zining yuragi qanday to‘g‘ri holatda ekanligini ta’minlay olmaydi. Ko‘pincha barcha terapevtlar doimo ham mijozlarga ijobiy ta’sir ko‘rsata olmaydilar ma’lum bir tendensiyalarga (o‘zining ijobiy rejalariga qaramay) ega bo‘ladilar. Shu sababli mijozlar bilan faoliyat yuritishda hislarga emas, balki o‘zini, faoliyatini tanqidiy anglashga, shaxslararo intizomga rioya etish zarur.

Mijozni bilish uchun ongli empatiya zarur

Onli empatiya – bu «ichki emotsiyalar, ehtiyojlar, motivlarni sezish va tushunish, shu bilan birga ob’ektiv qarashni e’tiborga olgan xoldagi kuzatishning haqqoniy modalligidir. Bu terapevtik munosabatlarning yaxshi garovidir. Ongli empatiya terapiyadagi ularning tajribasiga bo‘lgan mijozlarning ekspertligidir.

O‘zingizning shaxslararo bilimlaringizni bazasini kengaytiring.

Shaxslararo kommunikatsiya majmuaviy bo‘lib, terapevtidan samarali tinglash, aniq kommunikatsiya, asosiy to‘qnashuv va hodisalarni bartaraf etish, o‘zining mustahkamliligi va oldindan ko‘ra bilishini nazarda tutadi. Bu model terapevt o‘zida rivojlantirishi kerak bo‘lgan malakalar to‘plamini birma-bir muhokama qilishni nazarda tutadi.

Terapevtik modalliklarning keng to‘plami okkapatсион terapiya jarayonida ularni to‘g‘ri va o‘z o‘rnida qo‘llashda o‘zaro almashtirilishi mumkin.

Har bir terapevt hayotiy tajribasi davomida tug‘ma va egallangan shaxslararo xarakteristikaga ega. Bu xarakteristikalar terapevtga bir yoki bir necha terapevtik

modallardan foydalanishga imkon yaratadi. Ammo, biror-bir modallar boshqasidan ustun emas. Bundan tashqari, juda farqli shaxsiy xarakteristikalariga ega bo'lgan modalnostlarning turli kombinatsiyalaridan foydalanayotgan ikki terapevt bir xilda samarali bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, ma'ulm bir modallar va persanallararo stillar odamlarning ma'lum bir guruhlari bilan va ma'lum bir vaziyatlarda yaxshi ishlaydilar.

Shuning uchun o'zidan terapevtik foydalanish modallardan mos va to'g'ri foydalanishni, mijozning ehtiyojlari va vaziyatga yo'naltirilishi zarur. Bu model terapevtlarga turli xil modalliklarni qo'llashdagi imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

Mijoz muvaffaqiyatli munosabatlarni aniqlaydi

Mijozlar terapevtik munosabatlardan nimani istashlari bilan farqlanadilar. Ba'zilar ancha formal munosabatlarni afzal ko'radilar, bunda terapevt asosan o'qitadi, yo'naltiradi, o'rgatadi. Boshqa mijozlar ancha shaxsiy aloqalarni va emotsional qo'llab-quvvatlashni istaydilar. Boshqa birlari esa teng munosabatlar va hamkorlikni istaydilar. Vaqt o'tishi bilan mijozlar munosabatlardan nima kutishlarini o'zgartiradilar. Masalan, boshida emotsional qo'llab-quvvatlashni va aniq ko'rsatmalarni istagan mijoz keyinroq hamkorlikka asoslangan munosabatlarni xohlaydi. Yoki avval hamkor bo'lgan mijoz nogironlik chuqurlashishi bilan duch kelganda kamroq ma'suliyat va javobgarlikni, ko'proq qo'llab-quvvatlashni istab qoladi. Va nixoyat, munosabatlardagi muvaffaqiyat ergoterapevt bilan emas, balki mijozga bog'liq bo'ladi.¹⁴

Turli nuqsonli har xil yoshdagi bolalarning ota-onalariga yordam beruvchi maqolani yozish qiyin. Faqatgina bir necha savollar ko'tarildi, lekin ular ham kimlardir qo'rqitib yuborishi mumkin. Yaxshisi, yo'lga chiqishdan avval hamma tomonini sinchiklab tekshirish zarur, toki to'siqlar bo'lmasin, shundagina qopqonga tushib ketilmaydi. Baxtimizga bolalar tez egiluvchan, ularni boshqalarning yordamisiz tarbiyalab olish ko'pchilikni qo'lidan keladi. Agarda ushbu muammolarni yenga olmasangiz, hayajon va g'amda bo'lsangiz unda qo'shimcha yordam so'rang, balki o'z boshidan o'tkazgan ota-onalar o'zlarining tajribalarini bo'lishar yoki kimgadir murojaat qilishingizga maslahat berishar. Nima bo'lgandayam kelajakka umid va ishonch bilan yashashga intiling.

Nazorat savollari:

1. Farzandining og'ir nogironlik tashxisini bilganda ota-onalarda kuzatiladigan stres holatlari haqida gapirib bering.
2. Oilaga stress xolatidan chiqishga va vaziyatga moslashishda nima yordam beradi?
3. Bunday oilalardagi munosabatlarda qanday qiyinchiliklar kuzatiladi?

¹⁴ Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA. CHAPTER 19: Therapeutic Reasoning: Using Occupational Therapy's Conceptual Foundations in Everyday Practice 283-290 pages.



4. Nogiron bolani parvarishlash va tarbiyalashda ota-onalarga maxsus pedagog qanday yordam ko‘ratadi?
5. Nogironligi bo‘lgan bolani mustaqil hayotga qanday tayyorlanadi?

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA.
2. Counseling theories and techniques for rehabilitation and mental health professionals: second edition. Editors: Fong Chan, Phd, CRC, Norman L.Berven, Phd, Kenneth R.Thomas, DEd. Springer publishing company, LLC, 2015 New York.
3. Inclusive Special Education: Evidence-Based Practices for Children with Special Needs and Disabilities, Garry Hornby, University of Canterbury College of Education Christchurch, New Zealand. Springer Science+Business Media New York 2014,
4. Bevin Dj. Проблемы, с которыми сталкиваются родители // N.Finni. Ребенок с церебральным параличом. – Москва: «Теревинф», 2001. - S. 37-53.
5. Chicherina Ya.E., Isaeva D.I., Bondareva Ye.V. Rannyaya diagnostika i vmeshatelstvo. T: RSSAD, 2010.
6. Shubina A.V. Особыи ребенка: уход и развитие. Posobie dlya roditeley. T: RSSAD, 2009.

4-mavzu. Reabilitatsion pedagogikada ergoterapevtik texnologiyalar

Reja:

1. Ergoterapiya - soxalararo faoliyat sifatida.
2. Mustaqil ovqatlanish va ichishga o‘rgatish.
3. Yuvinish, cho‘milish va shaxsiy gigiena malakalariga o‘rgatish.
4. Mustaqil kiyinishga o‘rgatish.
5. Kommunikativ malakalarni rivojlantirish.
6. To‘g‘ri ijtimoiy xulqni tarbiyalash.

Tayanch tushunchalar: ergoterapiya, faollik, o‘ziga-o‘zi xizmat qilish malakalari, ijtimoiy malakalar, hayotiy malakalar, kommunikatsiyaning alternativ usullari.

Ergoterapiya - soxalararo faoliyat sifatida

Ergoterapiya - bu o‘ziga xos soxalararo mutaxassilik bo‘lib, uning maqsadi turli jismoniy yoki ruhiy nogironligi bo‘lgan odamlarga kundalik hayotlarida boshqalardan maksimal darajada mustaqillikka erishishlari uchun yordam berishdir. Ergoterapiyaning asosi - bu maqsadga yo‘naltirilgan, zarur faoliyat bo‘lib, biror bir vazifani xal etishga, yo‘naltirilgan, harakatlanishdagi, hissiy, kognitiv va psixik funksiyalarning yaxshilanishiga yordam beradi. Ergoterapevt yordamida bemor o‘zining istak-xohishlariga mos ravishda atrofidagi jismoniy, ijtimoiy va madaniy



muhitda to'laqonli hayot kechirishga Masalan, harakalanishida buzilishlari bo'lgan bemor va uning yaqinlari uchun o'zining uyi sharoitida harakatlana olishi muhim bo'lsa, unda ergoterapevt nogironlik aravachasida harakatlanishini qaerdadir emas, uning uyida o'rgatadi. Bemorni to'g'ri harakatlanishga, bir joydan ikkinchi joyga ko'chishga o'rgatadi.

Ergoterapevt xonadonda bemor uchun yashash qulay bo'lishi va rivojlanishi uchun xavfsiz sharoit yaratish haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, nutqiy malakalarni va mayda motorikani rivojlantirish uchun ma'lumot muhitini yuzaga keltiradi. Bemorning jismoniy imkoniyati, atrofidagi omillar asosida dastur tuzadi. Ma'lum bir maqsadga erishilgandan so'ng keyingi maqsadlarga o'tiladi. Aniq reabilitatsion vazifalar amalga oshiriladi.

Mashg'ulot o'tishda ergoterapevt:

- bemor faol hayot kechirishi uchun jismoniy to'siqlar bunga xalaqit bermasligiga harakat qiladi;
- bemorning faolligi darajasini ko'tarishga va uning atrofdagilaridan mustaqil bo'lishiga intiladi;
- bemorning hayot faoliyati sifatini oshirish uchun yordamchi moslamalar, maxsus asbob-uskunalarni tanlaydi va qo'llashga o'rgatadi, atrof muhitdagi sharoitga moslashtiradi (uyda, maktabda, ishda).
- ergoterapiya tibbiy, maxsus pedagogika, psixologiya, psixiatriya, sotsiologiya, biomexanika, ergonomika va boshqa fanlardagi bilimlarni qo'llaydi va umumlashtiradi¹⁵.

Mustaqil ovqatlanish va ichishga o'rgatish

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalari

Bola o'zlashtirib olgan o'z-o'ziga xizmat qilish malakalari unga mustaqil ovqatlanish, choy ichish, kiyimlarini kiyish, shaxsiy gigienaga rioya qilish uchun imkon beradi. Boshqalardan farqli bolaga, albatta, o'zini parvarishlash malakalarini o'rgatish kerak, ayniqsa, rivojlanishi buzilgan ko'plab shunday bolalar uchun, hatto harakatlanishida og'ir buzilishlari bo'lgan bolalarda ham buni bemalol egallash mumkin. Ehtimol, sizning bolangizga ovqatlanishi, kiyinishi va vanna hamda hojatxonadan foydalanishni o'rganishi uchun ko'proq vaqt, qo'shimcha vositalar va sizning yordamingiz talab qilinar, lekin u bu malakalarni egallab olganidan keyin o'zini parvarish qilish kerak bo'lgan passiv ob'ekt sifatida emas, balki o'z hayotini ancha mustaqil qilishi bilan birgalikda erkin inson, deb his qiladi.

Ovqatlanish va ichimlik

Ovqatlanish ko'nikmasi – bolaning talablarini qondirish uchun ishlab chiqariladigan muhim hayotiy malakalardan biri.

Hatto yangi tug'ilgan chaqaloqda ham boshini burib ko'krakni qidirishi, so'rishi va yutinishi, och qolganida baqirishga majbur qiladigan reflekslari bor. Yoshi katta bo'lishi bilan bolada ovqatlanish malakalari mukammallashadi. Go'dak oldin suyuqlikni so'rishi va yutishi uchun lablari va tilidan foydalanadi, keyin esa og'zidagi yumshoq ovqatni joylashtirishni, qattiq ovqatni tishlab olish va chaynashni, qo'li

¹⁵ Грюневальд Г., Нире Б. Ақлий ва бoшқа функционал бузилишларга эга бўлган шахслар учун ташкил этилган ёпиқ муассасаларда ҳаётни меъёрлашуви. СПб, 2003. 38 стр.



bilan og‘ziga olib kelishni va nihoyat likopchadagi ovqatni yeyish uchun qoshiqdan foydalanishni o‘rganadi.

Rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan bolada ovqatlanish malakalarining tabiiy rivojlanishi og‘ir bo‘lishi mumkin. Bu malakaning shakllanishi harakatlanish qiyinchiliklarini, boladagi jismoniy yoki aqliy holatning ba‘zi buzilishlarini kechiktirishi mumkin. Lekin ba‘zida buning sababi boshqalardan farqli bolaning mustaqil ovqatlanishi malakalari sekin rivojlanishi yoki butunlay rivojlanmasligiga sabab ota-onalarning noto‘g‘ri munosabati bo‘ladi. Kattalar, agar bola ovqatlanishni o‘rganishga qiynalsa, u holda bolani “azoblash” kerak emas, deb hisoblashlari mumkin va butilka yoki qoshiqdan ovqatlantirish uning uchun “yaxshi” (ular uchun ham oson) bo‘ladi, deb davom ettiradilar. Ba‘zida ota-onalar agar bolaning rivojlanishida buzilishlar bo‘lsa, bunda u hech qachon mustaqil ovqatlana olmaydi, deb hisoblaydilar va unga shunchaki bu malakani o‘rgatmaydilar.

Bundan tashqari, bunday munosabat bola uchun g‘oyat muhim bo‘lgan hayotiy malakalarni egallash imkoniyatlaridan mahrum qiladi, u yana bolaning sog‘lig‘i uchun ba‘zi xavfli oqibatlarni tug‘dirishi mumkin. Agar o‘sayotgan bolani sut va suyuq bo‘tqalar bilan butilkadan ovqatlantirish davom ettirilsa, o‘sishi va rivojlanishidan tashqari bola doimo bir xil ovqatlanishdan oziq-ovqat moddalari va kerakli ovqat miqdorining yetishmasligini his qiladi. Bolada anemiya, vitaminlar, mikroelementlar va boshqa muhim tashkil topuvchilarning yetishmasligi paydo bo‘lishi mumkin, bu esa, o‘z navbatida, bola sog‘lig‘ining holatini yomonlashuviga olib keladi va uning rivojlanishini yanada ko‘proq pasaytiradi. Bundan tashqari, agar bola quyuq taomni hazm qilish holatida bo‘lsa ham faqat suyuq ovqat yesa, unda bola ichki organlarining ishlashida kasallanish boshlanadi va moddalar almashinuvi buzilishi mumkin.

Boshqa tomondan boshqalardan farqli bolani ortiqcha ovqatlantirib yuborish ehtimoli bor. Ko‘pincha bu ota-onalarning bolani tez-tez va ortig‘i bilan ovqatlantirish, ko‘p shirinliklar berish bilan o‘z g‘amxo‘rliklarini ifodalashlarida ko‘rinadi. Agar bola bunda harakatlanishdan cheklangan yoki ovqatga bo‘lgan o‘z ehtiyojini nazorat qilish uning uchun qiyin bo‘lsa, natijada bolaning ortiqcha vazni bo‘lishi mumkin.

Bolalar uchun qorni ovqatga to‘ymaslik kabi ko‘p yeb qo‘yish ham juda yomon, modomiki, unisi ham bunisi ham bolalar sog‘lig‘iga zarar yetkazadi va rivojlanishni buzadi. Shuning uchun rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan bola o‘zining yoshiga mos eng yaxshi hajmda to‘la qimmatli ovqatni olishi va ota-onalar bolani mustaqil ovqatlanishga o‘rgatishlari uchun hamma imkoniyatlardan foydalanishlari muhim.

Bolani qanchalik erta ovqatlanishga o‘rgatish juda muhim, chunki salomatlik va hayot uchun to‘laqonli ovqatlanish zarur.

Bolaning tili, lablaridan yaxshi foydalanishni bilishi va chaynash ko‘nikmalari nutq rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega, ovqatlanish vaqtida gavdaning to‘g‘ri holati jismoniy rivojlanishga imkon beradi, qo‘l va barmoqlardan muntazam foydalanish esa mayda motorika malakalarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi.



Bolani ovqatlantirish

Biz chaqaloq uchun eng yaxshi ovqat - bu ko'krak suti ekanligi haqida aytgan edik va bir yil davomida, hatto bir yarim yoshgacha ham bolani ko'krakdan ovqatlantirish mumkin va kerak. 6 oylikdan boshlab bolalarga qo'shimcha ovqat beriladi, taxminan bir yoshidan esa sekin-asta "kattalarning" ovqatiga o'tadi. Agar sizning bolangizda ovqatlanish va uni hazm qilish bilan bog'liq buzilishlar bo'lmasa, unda ovqatning tarkibi, konsistensiyasi va hajmi oddiy bolaning ovqatlanishidan hech qanday farq qilmasligi kerak.

Ba'zi bolalarda ovqatlantirish va ovqatlanishning mustaqil malakalarini egallash jarayonida murakkabliklar paydo bo'lishi mumkin

Bolaning o'z tanasini boshqarishi qanchalik qiyin bo'lsa, uning ovqatlanishi shunchalik qiyin bo'ladi. Bolada harakatlar muvofiqligining umumiy kuchsizligidan, agar uning ko'rish, o'tirish va predmetlarni ushlash qobiliyatlari yomon bo'lsa, ovqatlanish bilan bo'lgan qiyinchiliklar, og'iz va lab muskullarining kuchsizligi, boshni yaxshi ushlay olmaslikdan paydo bo'lishi mumkin. Bolaning ovqatlanishini yo'lga qo'yish va unga imkoni boricha o'zi mustaqil ovqatlanishini o'rganishi uchun yordam berish, bularning hammasini, albatta, hisobga olish kerak.

Ovqatlantirish jarayonini siz va bola uchun yengillashtiradigan, uni ko'krakdan, butilkadan yoki qoshiq bilan ovqatlantirayotgan bosqichda qulay holatni topish juda muhim.

Mustaqil ko'nikmalarni shakllantirish

Bola mustaqil ovqatlanishi uchun og'zi, lablari va tilini ishlata bilishdan tashqari, boshini to'g'ri ushlashni, predmetlarni ushlashi va ularni og'ziga olib kelishni bajara olishi kerak.

Bolaning ovqatlanishni va suvni o'zi ichishini o'rganishini rag'batlantirish uchun ovqatlanish paytida o'z yordamingizni asta-sekin kamaytiring. Bola yaxshi vaziyatda o'tirganini kuzating va unga chashkani mustaqil ushlashni hamda qoshiqdan foydalanishni o'rgating¹⁶.

Yuvinish, cho'milish va shaxsiy gigiena malakalariga o'rgatish

Shaxsiy gigiena ko'nikmalari

Shaxsiy gigiena ko'nikmalari – bola rivojlanishi va uning mustaqilligini shakllanishidagi muxim bosqich hisoblanadi. O'z shaxsiy tozaligi va ozodaligini saqlay olishi bolaga o'z-o'ziga g'amxo'rlik qila olishi va o'zini jamiyatda dadil his eta olishiga imkoniyat beradi.

Odatda bolalar shaxsiy gigienaning barcha ko'nikmalarini 6 yoshgacha o'rganadilar va rivojlanishida buzilishga ega bo'lgan bolani ham bu bosqichda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga o'rgatish muhimdir.

Bolani qo'li, yuzi, burnini toza tutishga, tish tozalash, cho'milish hamda boshini yuvishni, hojatxonadan foydalanishni o'rgatish lozim. Bolalar ko'p hollarda ko'chada sayr qilib yoki biron bir ijodiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lib ustki kiyimlarini iflos qiladilar. Masalan, rasm chizish vaqtida bolaning toza bo'lishini nazorat qilish qiyin va kerak ham emas.

¹⁶ Грюневальд Г., Нире Б. Аклий ва бошқа функционал бузилишларга эга бўлган шахслар учун ташкил этилган ёпиқ муассасаларда ҳаётни меъёрлашуви. СПб, 2003. 86 стр.



Eng muhimi bola kir bo'lgan qo'l, oyoq va yuzini tozalash oson ekanligini tushunib yetishidir. Belgilangan vaziyatlarda - hojatxonaga borib kelganidan keyin, ovqatdan oldin va keyin hamda uyqudan oldin, albatta, tozalik qoidalariga rioya qilishni odat tusiga kirgizishi muhimdir.

Bolaga iloji boricha o'z-o'zini kundalik gigienik parvarish qilishda mustaqil bo'lishiga yordam bering va hatto unga sizning yordamingiz kerak bo'lsa-da, bola uchun hamma ishni bajarmang.

Masalan, siz bolaga vannaga kirishiga va o'ziga qulay holatni egallashiga yordam berishingiz mumkin, lekin qolgan barcha harakatlarni uning o'zi bajarsin. Yodda tuting, agarda farzandingiz o'z-o'zini gigienik parvarish qilishni mustaqil amalga oshira olmasa, u ulg'aya borgan sari jamiyatda o'zini noqulay his qiladi.

Bolani cho'miltirish

Doimiy cho'milish barcha bolalar uchun zarur. Farzandingiz bu jarayondan qo'rqmasligi va uni yaxshi ko'rishi uchun bolani, iloji boricha, barvaqt suvga o'rgating hamda cho'milishni bola uchun yoqimli va qiziqarli qiling.

Bola bilan muloyim gaplashing, suvning harorati bola uchun qulay bo'lishini, bolaning ko'zi va og'ziga suv kirmasligini nazoratda ushlang, u bilan taktil va ko'rish aloqasini ushlang, bola o'zini tinch his qilsin. Bolani cho'chitmaslik uchun dush yoki tog'oradan bola boshiga suv quymang va uni suvga asta-sekin soling. Bu vaqtni faqat bolani cho'miltirish uchun foydalanmang, bolaga o'yinchoq bilan o'ynashga yoki shunchaki suvni shapillatishiga imkoniyat bering.

Bolaning o'sishi va rivojlanishi bilan uni cho'miltirish jarayoniga yanada faolroq jalb eting va o'z-o'zini parvarish qilish harakatlarini ko'proq uning o'ziga mustaqil bajarishiga ko'mak bering.

Bolaga yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish qulay bo'lishi uchun rakovinaning oldiga kichkina o'tirgich hamda bolaning bo'yiga moslab tish cho'tka va sovun uchun tokcha, sochiq uchun ilgich va ko'zgu qo'yish mumkin.

Farzandingiz o'zini ko'zguda ko'rishi juda muhimdir. Shu orqali u kir va toza yuzning farqini, tish cho'tkadan keyin uning tishlari qanday yarqirashini hamda uning burni oqayotganda u qanday ko'rinishda ekanligini ko'rishi mumkin.

Bolani o'z tashqi ko'rinishiga va yuvinish, tishini tozalash va boshini yuvganidan keyin ro'y beradigan o'zgarishlarga e'tiborini jalb etish uchun ko'zgudan foydalaning, shuningdek, u cho'milishdan so'ng qanday chiroyli va toza-ozoda bo'lganligini unga ayting.

Agarda bola belgilangan harakatlar natijasida u toza-ozoda, sog'lom, o'zi va boshqalarning e'tiborini jalb etuvchi holatda ekanligini tushunib yetsa, u ushbu harakatlarni o'rganish uchun o'z tayyorgarligini namoyon etadi.

Bolaning tishlari paydo bo'lishi bilan ularni tozalashni boshlash zarur. Avvaliga buni siz o'zingiz kichkina va yumshoq cho'tka yoki paxta o'ralgan tayoqcha bilan tozalashingiz mumkin. Uch yoshgacha bulgan bolalar uchun tish cho'tkasini ishlatish zaruriy emas.

Bola tish cho'tkasini ushlashni o'rganganidan so'ng uni o'z tishlarini mustaqil tozalashga o'rgating. Oldin unga tishni qanday tozalash kerakligini o'zingizda ko'rsating so'ngra boladan sizning harakatlaringizni takrorlashini so'rang. Bolaga



tish yuvish jarayonini tushunishi uchun unga tish cho'tkasini bering, uning qo'lini o'z qo'llaringizga olib, cho'tka bilan uning tishlariga olib boring.

Asta-sekin qo'llab-quvvatlashni kamaytirib boring va bolaga so'z orqali yordam bering. Boladan har safar tishlarini tozalab bo'lgach ko'zguga qarashni so'rang, va u bilan birgalikda uning tishlari toza va yaltirab turishidan quvoning. Bolaga tishini izchil tozalashga: ichki va tashqi tomonlarini, cho'tkani turli yo'nalishlar - u tomondan bu tomonga va yuqoridan-pastga harakatlantirishga o'rgating.

Hojatxonadan foydalanish ko'nikmalari

Tabiiy ehtiyojlardan holi bo'lishni o'rgatish bolada mustaqillikni va o'z shaxsiy g'ururini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Agarda bola jismoniy buzilishga ega bo'lsa, ushbu ko'nikmani egallashi uchun qiyinchiliklar yuz kelishi va mutaxassisning yordami kerak bo'lishi mumkin. Lekin, o'tib bo'lmas qiyinchiliklar mavjud bo'lmasa, bolani albatta hojatxonadan foydalanishga o'rgatish lozim.

Va hatto bola og'ir jismoniy buzilishga ega bo'lsa va unga hojatxonaga borishi va o'z kiyimlarini joylashtirish uchun yordam kerak bo'lsa, u yordam so'rashni va sabr qilishni o'rganishi mumkin.

Ushbu ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, farzandingizni bolalar bog'chasiga, maktabga, mehmonga borish va sayr qilish imkoniyati mavjud ekanligidan dalolat beradi, siz esa bolani parvarish qilish vazifangizni ahamiyatli darajada yengillashtirasiz.

Bolani hojatga chiqarishni o'rgatish turli oilalarda turlicha bo'lib, ular bir-birlaridan farq qiladilar. Lekin bugungi kunda mutaxassislar bolani bir yarim yoshgacha tuvakka o'tirishni so'rashini o'rgatishni tavsiya etmaydilar. Odatda ushbu yoshdagi bolada hojatga chaqiruvlar o'rtasidagi belgilangan masofa o'rnatiladi va bola o'z tanasida nima sodir bo'layotganligiga e'tiborini qarata boshlaydi. Alohida xususiyatli bola qovuq va ichaklari ustidan nazorat o'rnatish hamda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni anglab yetishi uchun uzoq vaqt talab etilishi mumkin, lekin uning bu o'zgarishlarni sezishi uchun ancha barvaqt ham tayyor bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Har qanday holatda ham, farzandingiz qaysi yoshda bo'lishidan qat'i nazar, tabiiy ehtiyojlaridan xoli bo'lishni o'rgatishni quyidagi mezonlarga suyangan holda boshlash mumkin.

Qovuqni nazorat qila olish qobiliyati. Agarda bola uzoq vaqtgacha quruq bo'lsa va u yoki bu usul bilan siyishga ehtiyoji borligini bildira olsa, demak unda bu qobiliyat shakllangan.

Jismoniy tayyorgarlik. Agarda bola mayda narsalarni ushlay olsa, yordamsiz o'tira olsa va muvozanatini saqlay olsa, u holda bolaga o'rgatishni boshlash mumkin.

Kattalar bilan o'zaro harakat qilishga tayyorgarlik. Agarda bola o'ziga qaratilgan oddiy so'zlarni tushuna olsa va sizning iltimosingiz bilan murakkab bo'lmagan harakatlarni bajara olsa, demak u o'rganishga tayyor.

Umuman bolani hojatxonadan foydalana olishga o'rgatish usuli ota-onaning boshqa har qanday bolani bu jarayonga o'rgatish usulidan farq qilmaydi. Farzandingizga ushbu ko'nikmani o'zlashtirishi uchun ko'p vaqt ketishi sizga esa



sabr va qat'iylik zarur bo'lishi mumkin, lekin olingan natija ushbu davrdagi qiyinchiliklarning o'rnini bosadi.

Bolani hojatxonadan foydalanishga o'rgatishni boshlashda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishga harakat kiling:

Bolani tuvakka o'tirishga moslashishi uchun imkoniyat bering. Bolani ishtoni yoki tagligini almashtirguncha, avval bolani tuvakka bir necha daqiqaga o'tirgizing. Bolani yaxshi ushlaydigan va mustahkam tuvak tanlang. Agarda bola tuvakka o'tirishni yoqtirmasa, u tuvakda bir necha daqiqa ushlab turish uchun uning e'tiborini biron bir qiziqarli narsa bilan jalb etishga harakat qiling, u bilan birgalikda o'ynang.

Bola o'z tabiiy ehtiyojlaridan holi bo'lishni bildiruvchi va bola tushunadigan hamda foydalana oladigan belgilangan so'zlardan foydalaning. Agarda bola so'zlashishga qiynalsa, so'zlar o'rniga imo-ishoralar yoki belgilarni o'ylab chiqaring. Har safar bola tuvakka o'tirgan yoki hojatxonaga boradigan vaqtda ushbu so'z yoki imo-ishoralarni takrorlang.

Bir necha kun davomida bolani kuzating, u qachon hojatga chiqadi, (masalan, nonushtadan yoki tushlikdan so'ng). Bolani har safar aynan shu vaqtda yoki bolaning xatti-harakatida uni hojatga chiqishni hohlayotganligini sezgan vaqtingizda tuvakka yoki unitazga o'tirgizing.

Hojatga chiqishni anglatuvchi so'z va imo-ishoralardan foydalanib, boladan tuvak yoki unitazga "o'z ishini bajarishini" so'rang, uni bir necha daqiqaga qoldiring, lekin 10 daqiqadan ortiq emas. Agarda ushbu vaqt ichida bola o'z hojatini chiqargan bo'lsa, uni maqtang, siz undan xursand ekanligingizni ko'rsating. Bolaning e'tiborini uni quruq va toza bo'lishiga jalb eting, buning uchun uni maqtang. Agarda bola hech narsa qilmasa yoki ishtonini iflos qilsa, uni urishmang va o'zini aybdor, deb his etishtga majburlamang.

Boladan nima talab etilayotganini unga ko'rgazmali tarzda ko'rsating. Siz plastmassa yoki rezinali qo'g'irchoqdan foydalanishingiz mumkin. Qo'g'irchoqni teshib, unga suv solinadi va bolaga u qanday qilib hojatxonaga chiqishni "bilishi" ko'rsatiladi. Siz, shuningdek, uning aka, singillari tuvak yoki hojatdan qanday foydalanishlarini ko'rsatishingiz mumkin, bu, ayniqsa, aqliy va nutq rivojlanishidan ortda qolgan bolalar uchun juda muhimdir.

Asta-sekin bola sizdan tuvakka o'tirgizishni so'raydi, u yoki bu usul bilan u hojatga chiqmoqchi ekanligini ko'rsatadi, lekin ma'lum bir vaqtgacha bu haqida xabarni kechikib ham berishi mumkin. Uni urishmang, aksincha u sizga bu haqda xabar berganligi uchun uni maqtang. Bola hojatga chiqishi uchun o'rgangan so'zlardan foydalanishi yoki sizning e'tiboringizni tortish uchun kiyimingizni tortishi, tuvak yoki hojatxona eshigini ko'rsatishi mumkin bo'lgan harakatlarga e'tiborli bo'ling.

Bola hatto tuvakka o'tirishni yoki hojatxonaga borishni so'rashni o'rgangan bo'lsa-da, kiyimini yechish va kiyish, hojatxona qog'ozidan foydalanish yoki suvni oqizish uchun unga sizning yordamingiz kerak bo'ladi. Agarda bola yoshi yoki



jismoniy yetukligi bo'yicha bu ishlarni bajara olsa, bolani bu ishlarni mustaqil bajarishga o'rgating¹⁷.

Mustaqil kiyinishga o'rgatish

Ust va oyoq kiyimlarini mustaqil kiyish va yecha olish - har qanday bola uchun muhim ko'nikmadir. Agarda uning harakatida buzilishi yoki rivojlanishdan orqada qolgan bo'lsa, bu holatda ushbu ko'nikmani egallash sekin amalga oshishi mumkin. Ushbu holatda ko'pincha ota-onalar va yaqinlarining yaxshisi bolani o'zlari kiyintirish yoki yechintirishlari tezroq bo'ladi deb bola uchun hamma narsani o'zlari bajarib qo'ya qoladilar, bu bilan bolaning o'rganishiga imkoniyat bermaydilar va uning rivojlanishini orqaga tortadilar. Kiyinish va yechinish – insonning har kuni bir necha marta bajaradigan harakatidir, agarda farzandingiz ushbu harakatlarni bajarishni o'zlashtirmagan bo'lsa, u har doim kimningdir yordamiga muhtoj bo'ladi va boshqa mustaqil harakatlardan cheklanib qoladi.

Bolaga kiyinish va yechinishni o'rgatish uchun vaqt va sabr-toqat talab etiladi, bundan tashqari kiyinish va yechinish bola harakat funksiyasining ma'lum darajada rivojlanishini talab etadi. Shuning uchun bolaga o'rgatishni boshlaganda yetarlicha vaqt ajrating, bolaning rivojlanish darajasidan kelib chiqib, sizga yordam berish istagini tug'dirgan holda uni bu jarayonga jalb eting. Ayni paytda bolani darhol barcha harakatlarga o'rgatishga intilmang, uning asta-sekin harakat qilishiga imkoniyat bering, yodda tuting kiyinish va yechinish – murakkab ko'nikma.

Siz kiyinish jarayonidan bolani darhol boshqa sohalarda ham rivojlantirish imkoniyati sifatida foydalanishingiz mumkin: o'zi va atrof-muxitni anglash, bilish jarayonlarini rivojlantirish, harakat ko'nikmalari va boshqaruvini rivojlantirish, nutq va muomala ko'nikmalarini rivojlanishi. Buning uchun bolani kiyintirish va yechintirish vaqtida, albatta, u bilan so'zlashing, kiyimlar va tana qismlarining nomini ayting, bolaning e'tiborini kiyimning rangi va paypaslashda qanaqa ekanligiga qarating. Bola kiyinib bo'lgach uni ko'zguga qarating va uning tartibli hamda chiroyli tashqi ko'rinishi uchun maqtang.

Bolani kiyintirish vaqtida bolaga qulay holatni topish uchun turli holatlarda sinab ko'ring.

Muskuli tortishuvchan bolani tizzalaringiz ustiga yotqizib, yuzini pastga qaratilgan, oyoqlari soniga bukilgan holatda kiyintirish mumkin.

Bolaga yonbosh holatda yotib kiyinish qulay bo'lishi mumkin. Ushbu holatda bola u yonboshidan bu yonboshiga burilib o'zi kiyinishni o'rganishi mumkin.

Bola devorga tiranayotgani va ota-onasi yonida ekanini chizib tugallash kerak.

Bolani kiyintira turib, kiyimlarni u ko'ra oladidan va qo'li yeta oladigan holatda taxlang.

Agarda bola harakatida buzilish bo'lsa, avval tanasining zararlangan qismini kiyintiring va yechintirishda esa shu qismini oxirgi navbatda bajaring.

Bolaga bajarayotgan harakatlaringizni ayting, iloji boricha unda bu jarayonga ishtirok etish xohishini uyg'oting, masalan, undan qo'lini ko'tarishni yoki oyog'ini bukishini so'rang.

¹⁷ 5. Gryunevald G., Nire B. Aqliy va boshqa funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslar uchun tashkil etilgan yopiq muassasalarda hayotni me'yorlashuvi. SPb, 2003. 113-115 str.



Mustaqil kiyinish ko'nikmalarini shakllantirish

Bolada kiyinish va yechinish jarayonida ishtirok etishi uchun jismoniy imkoniyat, sizning so'zlaringiz va imo-ishoralaringizni tushuna olish imkoniyati paydo bo'lishi bilan ba'zi bir harakatlarni mustaqil bajarishga o'rgatishni boshlang. Boladan mustaqil ravishda qo'lini kiyimi yengiga, oyog'ini esa ishtoniga yoki yubkasiga tikishi, bosh kiyimini yoki paypog'ini o'zi tortishini so'rang.

Kiyinishdan ko'ra yechinish osonroq bo'lgani uchun unga yechish oson bo'lgan narsalarni – shapka, paypog'ini, oyoq kiyimining ipini yechishni so'rang. Bolaning kurtka yoki paltosining tugmalarini yechib, ularni ustidan tashlashni so'rang. So'ngra esa murakkabligi darajasiga ko'ra qiyin bo'lgan harakat - yubka yoki shimni yechish harakati keladi, shundan so'ng bola ko'ylagi va sviterini yechishni o'rganadi.

Kiyinishni o'rganish quyidagi tartibda rivojlanadi: avval bosh kiyimni kiyishni, so'ngra esa mayka, ko'ylak, sviter va undan so'ng esa trusi, shim va yubka kiyishni o'rganadi. Oxirgi navbatda esa bola paypog'i va oyoq kiyimini kiyishni, kiyimlarining tugmalarini o'tkazish va oyoq kiyimining iplarini bog'lashni yoki maxsus o'tkazgichlarini o'tkazishni o'rganadi.

Ko'nikmalarni o'zlashtirishning ushbu ketma-ketligini bilgan holda, unga bajarish oson bo'lgan harakatlardan boshlab, bolani kiyinish va yechinishga bosqichma-bosqich o'rgatib boring.

Bolani kiyinish ko'nikmalarini o'zlashtirishga qiziqtirish uchun quyidagilarni bajarishingiz mumkin:

Bola bilan birgalikda o'ynab, qo'g'irchoq, ayiqchani yoki boshqa o'yinchoqlarni kiyintirish va yechintirish mumkin.

Bola bilan birgalikda kiyinish va yechinish hamda "maskarad" o'yinini o'ynash, bolaga kattalarning kiyimini, qiziqarli kostyumlarni kiydirish, boladan sizni yoki oila a'zolaridan kimnidir kiyintirishni so'rash mumkin.

Bola bilan birgalikda jurnaldan kiyimlarning suratini qirqib olish va ulardan kitobcha tayyorlash.

Kiyinish vaqtida g'royib "xatolarni" qilish, masalan, siz bolaning paypog'ini kiyishingiz, unga esa o'zingizning paypog'ingizni kiydirishingiz yoki kiyimni teskarisiga kiyish va bola bu xatolarni to'g'rilashini kutishingiz mumkin.

Tugma o'tkazish va ip bog'lash kabi murakkab ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun, kichkina stend tayyorlang, unga ip, bog'ich, halqa bilan tugma tikilgan mato bo'lagi, zamok va yopishgich biriktiriladi. Bu kabi stend ko'magida bola kerakli ko'nikmalarni o'rganishni amaliyotda sinab ko'radi va mayda motorik harakatlarni qo'shimcha ravishda rivojlantiradi.

Bolani kiyintirishga o'rgatish vaqtida unda shakllanib bo'lgan o'tirish, tizzasiga yoki oyog'ida tik turish ko'nikmalari orqali mashq qila olishi mumkin bo'lgan qat'iy holatni tanlang. Bolaga o'z tanasini to'g'ri ushlashga yordam bering, lekin qolgan barcha harakatlarni bolaning o'zi maksimal darajada bajarsin. Bolaga hozir siz nima qilishingizni ayting va undan keyin nima qilish kerakligini so'rang. Agarda bolada og'zaki nutqni idrok qilishida qiyinchilik bo'lsa, imo-ishora yoki suratlardan foydalaning.



Shuningdek sizning e'tiboringizni bolaning ust-bosh va oyoq kiyimi nafaqat qulay, balki chiroyli ham bo'lishi kerakligiga qaratishni xohlar edik. Bola hatto ko'p vaqt uyda bo'lsa-da, uning kiyimlari hayotning har xil vaziyatlari, ya'ni kundalik va bayram kunlari uchun tayyor bo'lishi kerak. Farzandingiz aravachada yursa ham uning uchun chiroyli oyoq kiyim oling va sayrga chiqqan vaqtda, albatta, oyoq kiyimini kiydiring. Bolaning xohishlarini hurmat qiling, unianday ust bosh va oyoq kiyimni sotib olishi va kiyib yurishida tanlash huquqidan mahrum etmang.

Ushbu qismda bolaning boshqalar bilan o'zaro harakatga kirishish va jamiyatda yashash qobiliyatini belgilaydigan muhim ko'nikmalarni shakllantirish masalalariga tegishli bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishi ustida to'xtalamiz.

Biz jamiyatda yashaymiz va bizga boshqalarni tushuna olishimiz va ular uchun tushunarli bo'lishimizga, atrof-muhit bilan aloqa o'rnatish va ushlash, turli hayotiy vaziyatlarda o'zimizda ishonchni his etishimizga yordam beradigan ko'nikmalar zarurdir.

Tengdoshlari va kattalar bilan muloqot qila olish, yangi vaziyatlarga nisbatan yo'nalishni ola bilish, xulq-atvorning umum qabul qilingan me'yorlariga mos holda jamiyatda o'zini tuta bilish – bularning barchasi muhim ijtimoiy ko'nikmalar bo'lib, har qanday bolani ushbu ko'nikmalarga o'rgatish muhimdir.

O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, bu rivojlanish haqida yuqoridagi qismlarda to'xtalgan edik, shuningdek, u ijtimoiy ko'nikmalar tarkibiga kiradi, chunki bolaning jamoatchilik qoidalariga mos kelishiga hamda insonlar bilan muloqotda jarayonida o'ziga nisbatan ishonch hissini tuyishiga ko'mak beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish to'g'ridan-to'g'ri bolaning emotsional rivojlanishi bilan bog'liq. O'zi va boshqalarning hislarini tushuna olish, o'z-o'zini baholay olish qobiliyatining shakllanganligi, o'z-o'zini nazorat qila olishi bolaga boshqa kishilar bilan o'zaro aloqaga kirishishni o'rganish va ular bilan yaxshi munosabatlarni o'rnatishi uchun kerak.

Bola o'zining individualligini anglashi va o'zini alohida shaxs sifatida idrok etish darajasiga ko'ra u jamiyatda, ya'ni oilada, qarindoshlari, do'stlari, qo'shnilari, maktabgacha ta'lim muassasasidagi va maktabdagi o'rtoqlari va h.k. orasida yashashni o'rganadi.

Shunday qilib, ijtimoiy ko'nikma bu – keng ma'noda bolaning insonlar orasida yashashiga imkoniyat beruvchi barcha qobiliyatidir. Buning uchun esa bola oldida amaliyotda qator aniq ko'nikmalarni egallash vazifasi turadi. Demak bular – “yo'q” deb javob qaytara olish, yordam so'ray olishi, bo'lisha olish, xamkorlik, qoidalarga amal qilish; boshqalarni eshita olish qobiliyati, tanqidni qabul qila olish, minnatdorchilik bildira olish, o'z fikrini himoya qila olish, mojaroli vaziyatlarni halq ila olishidir.

Albatta, ijtimoiy ko'nikmalarni o'zlashtirish katta yosh davrlarida ham davom etadi, lekin ularning shakllanishi ilk bolalik davridayoq boshlanadi va rivojlanishida alohida xususiyatga ega bo'lgan bola uchun, albatta, kattalarning ko'magi zarur. Siz uchun muhim bo'lgan vazifa – o'z fazandingizga uning uchun mumkin bo'lgan barcha usullar orqali muloqotga kirishishni o'rgatishdir. Bolani xatti-harakat

me'yorlari va qoidalariga o'rgatish, farzandingiz eng yuqori darajada mustaqil inson va jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishiga intilishingiz zarurdir¹⁸.

Kommunikativ malakalarni rivojlantirish

Nutq va muloqot

Biz muloqotga bo'lgan ehtiyoj insonning muhim ehtiyojlaridan biri ekanligi haqida so'zlashgan edik. Aloxida xususiyatli bola uchun muloqot qila olish ko'nikmalarini egallash o'ta muhim ahamiyatga molik, chunki bu nafaqat uning keyingi rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi balki bolaning kundalik hayotidagi chegaralarni muloqot uchun yanada kengaytiradi va bola uchun katta olamga kirish imkoniyatini yaratadi.

Bola muloqot jarayoniga kirib, olam, insonlar va o'zi haqida yangi ma'lumotlarni oladi, xatti-harakatning yangi shakllarini o'zlashtiradi, atrof-muhit bilan o'z munosabatini o'rgatadi.

Muloqot jarayonida bolada bilish qobiliyati rivojlanadi, qabul qilish va tushunish ehtiyoji qoniqtiriladi, yolg'izlik va ajralib qolish hissini tark eta oladi. Aziz ota-onalar, sizning farzandingiz, albatta, savol bera olish va javob olish, o'z xohish-istaklarini, sodir bo'layotgan vaziyatga nisbatan rozi yoki rozi emasligi, o'z fikr va hislarini bo'lisha olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Uning ijtimoiy rivojlanishi uchun nafaqat oila a'zolari bilan, balki boshqalar, ya'ni turli yoshdagi bolalar va kattalar bilan ham muloqotda bo'lishi zarurdir.

Odatda, muloqot haqida so'zlab, ushbu jarayonni biz og'zaki nutq, so'zlarni nazarda tutamiz, lekin muloqot bu – inson uchun keng ma'nodagi tushunchadir. U o'z tarkibiga biz boshqalarning ma'lumotlarini qanday tushunishimizni hamda boshqalarga o'z fikr, hislarimiz va istaklarimizni qaysi usullar orqali bildirishimizni ham kiritadi. Va har doim ham boshqa kishilarni tushunish va o'zaro aloqaga kirishish uchun so'zlar zarur emas.

Aslida, odatiy insoniy muloqot jarayonida so'zlar biz o'ylagandek unchalik ko'p joy egallamaydi. Olimlarning fikricha muloqot jarayonida so'zlar faqat 7% tashkil etadi, xolos, 38% esa tovush va intonatsiya (oxang), 55% esa tana holati, imo-ishoralar kabi usullardan iboratdir. So'zlar orqali biz ma'lumotlarni yetkazamiz, boshqa, ya'ni noverbal usullar orqali esa ushbu ma'lumotlarga nisbatan o'z munosabatimizni bildiramiz.

Alohida xususiyatli bola uchun boshqa har qanday bola kabi muloqot va so'zlashishni o'rganish juda muhimdir. Lekin farzandingizda ohzaki nutqni egallashi uchun to'siq bo'ladigan buzilish mavjud bo'lsa, u holda siz uni o'zlashtira olishi mumkin bo'lgan muloqot usullarini qo'llay olishga o'rgatishingiz lozim. Nafaqat so'z balki imo-ishoralar, suratlar orqali ham so'zlashish mumkin. Nutqida buzilishga ega bo'lgan bolalarni o'rgatish mumkin bo'lgan imo-ishoralar tili muloqot uchun to'laqonli til hisoblanadi. Shuningdek, ramzlar va belgilar orqali muloqot qilish mumkin bo'lgan tillar ham mavjud («BLISS», «Makaton», «Singalong»).

¹⁸ Gryunevald G., Nire B. Aqliy va boshqa funksional buzilishlarga ega bo'lgan shaxslar uchun tashkil etilgan yopiq muassasalarda hayotni me'yorlashuvi. SPb, 2003. 128-130 str.



Sizning e'tiboringizni o'ziga qaratish va qandaydir ma'lumot yetkazish uchun, masalan, bola quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

Ovoz orqali tovushlardan foydalanish.

«Xa-Yo'q» xabarini yetkazish (bosh, ko'z, qo'l yoki oyog'ini qimirlatish yordamida)

Biron narsani ko'zi yoki barmog'i bilan ko'rsatish

Imo-ishoralardan foydalanish

Surat va fotosuratlardan foydalanish

Yozma nutq va rasm chizish.

Bolaning real imkoniyatidan kelib chiqqan holda, agarda so'zlashishni o'rgana olsa, uni so'zlashishga o'rgating va og'zaki nutqni o'zlashtirishida yordam bering, lekin siz bolani uzoq vaqtdan buyon so'zlashishni boshlamaganligini ko'rsangiz, u holda bolaga muloqot qila olish imkoniyatini berish uchun boshqa usullardan foydalaning. Imo-ishoralar foydalanishda bola og'zaki so'zlashishdan to'xtab qoladi deb tashvishlanmang, agarda bolada og'zaki nutqni egallash uchun jismoniy cheklanganlik bo'lmasa bu vaziyat ro'y bermaydi. Bolani muloqot uchun egallagan usullaridan foydalangan holda uni og'zaki so'zlashishga ham parallel holda o'rgatishni davom ettiring.

Muloqot ko'nikmalarini shakllantirish

Bolaga insonlar bilan aloqa o'rnatishga yordam beradigan ko'nikmalarning shakllanish jarayoni, bola birinchi so'z va jumalarni aytmasdan oldin boshlanadi. Ilk bolalik davrida o'zlashtiradigan va uning asosida o'zaro ijtimoiy aloqalarini shakllantiradigan ko'nikmalar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin:

Insonlarga va ularning e'tiborini tortishga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishi.

O'z diqqatini to'play va javob kaytara olishi qobiliyati.

O'yin o'ynay olish qobiliyati.

Navbatga rioya qila olishi va bo'lisha olish qobiliyati.

Taqlid qilish va hamkorlikdagi faoliyat.

Bola tug'ilganidayoq insonlarga nisbatan o'z qiziqishlarini namoyon eta boshlaydi, aynan inson yuzi yangi tug'ilgan chaqaloqni hamma narsadan ko'proq qiziqtiradi. Bola rivojlanish darajasiga kura jilmayadi va guvrana boshlaydi va bunga kattalar tomonidan ijobiy javob qaytariladi. Agarda bola biron narsani xohlasa kattalarning e'tiborini jalb etish va istagan narsasini olish uchun baqiradi, yig'laydi yoki har xil tovushlarni chiqaradi, oyoq va qo'lchalarini harakatlantira boshlaydi.

Shunday qilib, bola boshqa kishilar o'zaro aloqaga kira olish qobiliyatiga ega ekanligini tushunishni o'rganadi va uning belgilangan harakatlari unga boshqalarning e'tiborini tortish hamda o'zi xohlagan narsani egallash imkoniyatini beradi.

Ba'zi bir alohida xususiyatli bolalarda boshqa kishilarga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishida qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, rivojlanishidagi ba'zi bir buzilishlar esa kattalar e'tiborini jalb etish qobiliyatini cheklab qo'yadi. Bu yerda ota-onalar, albatta, yodda tutishlari kerak-ki, hatto bola siz va atrofidagi kishilarga nisbatan qiziqishini namoyon etmasa, sizga sust javob qaytarsa yoki umuman javob qaytarmasa, siz aslo bola bilan muloqot qilishni to'xtatmang!



Agarda siz bolaga diqqat-e'tiboringizni qaratishni to'xtatsangiz, uning aloqa o'rnatish va sizning e'tiboringizni tortishga qilgan harakatlariga e'tibor bermasangiz, farzandingiz kishilar va atrof-muhitga nisbatan qiziqishini yo'qotadi. Muloqot qilishni o'rganmaslik bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bola uzini urab turgan muhitga nisbatan o'z qiziqishlarini namoyon etish darajasiga kura, u narsa va insonlarga nisbatan diqqatini to'plashni va ro'y berayotgan hodisalarga nisbatan esa javob qaytarishni o'rganishni boshlaydi.

Narsalarga nisbatan o'z diqqatini to'play olish bolaga ularni o'rganishni, inson yuzi, ovozi va xatti-harakatiga e'tiborini qaratish unga tovushlarga quloq solish va so'zlarni takrorlash, kattalar xatti-harakatidan nusxa ko'chirish imkoniyatini beradi. Ushbu ko'nikmalarni farzandingizda rivojlantirishga yordam berish uchun bolani atrofidagi olamga qiziqishlarini faollashtirish uchun barcha usullardan foydalaning (yuqoridagi ko'rsatmalarga qarang), shuningdek, bolaga qisqa muddat ichida bo'lsa-da, undan diqqatini to'plash va kutishni talab etuvchi mashg'ulotlarni taklif eting.

Shar yoki mashina tunnelga qarab harakatlanuvchi va bola ko'zi bilan kuzatishi kerak bo'lgan o'yin o'ynang, sovun ko'piklarini sekin puflang va pufaklarni chikaring, bola keyingi pufaklarning chiqishini bir necha daqiqa kutib tursin. Bola diqqat bilan eshitish va ko'rishdek muhim bo'lgan ko'nikmani ham rivojlantiring. Buning uchun bolaga unga yoqadigan kitob o'qib bering, hikoyalar so'zlab bering, suratlar, fotosuratlarini tomosha qiling, konstruktor va pazllarni to'plang.

O'yin – bola uchun o'z-o'zini, boshka odamlarni va olamni anglashidagi muhim usullardan biridir. O'yinda bolaning akliy, jismoniy, hissiy rivojlanishi jarayoni kechadi, nutq faol rivojlanadi va muloqot hamda ijtimoiy o'zaro harakatlar ko'nikmalari shakllanadi. O'yin bu – bola uchun tabiiy o'qish jarayonidir, agarda farzandingiz uchun qaysi bir sabablar bilan o'ynash qiyin bo'lsa, ular boshqa muhim ko'nikmalar uchun asos ekanligini yodda tutgan holda, albatta, uni o'yin ko'nikmalarini o'zlashtirishiga yordam bering.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi uchun o'yin muhim ahamiyatga molikdir, chunki uyin bolaga boshqa kishilar bilan aloqaga kirishish, o'zaro harakat kilish, ular bilan kelishish, qoidalarga rioya qilish imkoniyatini beradi. O'yin jarayonida bola boshqalarni tushunishni o'rganadi, ular bilan o'z munosabatni o'rnatadi, ularning histuyg'ulariga e'tiborini qaratishni, o'z navbatini kutish va atrofdagilar bilan bo'lishish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

O'z navbatini kuta olish umuman so'zlashish va muloqot jarayonining asosiy sharti hisoblanadi. Bolada ushbu ko'nikmani iloji boricha erta rivojlantirishni boshlang: u bilan muloqotni dialog shaklida quring va (hatto bola xali so'zlashmasa ham) undan javobni har qanday shaklda kuting. Agar siz boladan biron narsa so'rasangiz, sabr bilan javobini kuting va siz ham o'z navbatida uning savollariga javob bering, uning so'zlashish uchun qilgan barcha harakatlariga javob qaytaring.

Bolani bo'lishishga o'rgating – bu birgalikdagi faoliyatini tashkil etishda va o'ta muhshim shaxsiy ko'nikma bo'lib, bolaga fikr yuritishni o'rganishi va boshqalar haqida g'amxo'rlik qila olishida yordam beradi.

Taqlid qila olish bolaning ta'lim olish jarayoni uchun muhim hayotiy qobiliyat bo'lib, ayniqsa, muloqot va umuman ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlanishi uchun



muhim hisoblanadi. Kattalarga taqlid qilib, bola tovush va soʻzlarni talaffuz qilishni oʻrganadi, uning asosida nutq shakllanadi, imo-ishora va xatti-harakatlardan nusxa koʻchirgan holda oʻzini tutishni oʻrganadi. Bola boshqa kishilar, birinchi navbatda esa oʻziga ahamiyatli bulgan kishilar ortidan xatti-harakatlarni takrorlab soʻzlashishni, muloqot qilish usullarini, oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatish koʻnikmalarini oʻrganadi.

Hamkorlikdagi oʻyin yoki boshqa faoliyat bolaning bu kabi koʻnikmalarini faol rivojlantiradi, bundan tashqari esa uning oʻzi ham bolada yangi koʻnikmalarni oʻzlashtirishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Tengdoshlari bilan oʻynab, oila aʼzolari bilan kundalik turmush ishlari bilan mashgʻul bulib, bola aloqa oʻrnatish va qoʻllab-quvvatlash, oʻz xohishlarini boshqalarning istaklariga mos keltirishni, xatti-harakatning yangi shakllarini oʻzlashtiradi.

Bolaga ijtimoiy koʻnikmalar jamiyatda yashashi uchun kerak, lekin ular asosan boshqa kishilar bilan oʻzaro aloqada yanada faol rivojlanadi. Aziz ota-onalar shuni yodda tutingki, bolada nutq, muloqot, ijtimoiy oʻzaro harakat koʻnikmasi jamoada – maktabgacha taʼlim muassasasida, bolalar maydonchasida, maktabda, doʻstlari orasida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Bolani taʼlim muassasalariga qatnashishining barcha imkoniyatlaridan foydalanishga, faol muloqotda boʻlishga hamda doʻstlashishga harakat qiling.

Toʻgʻri ijtimoiy xulqni tarbiyalash

Bolada ijtimoiy koʻnikmalarni rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha koʻrsatmalar:

Bolani imo-ishora va soʻzlardan foydalangan holda salomlashish va xayrlashishga oʻrgating.

Bolani imo-ishora va soʻzlar orqali oʻzining vaziyatdan rozi yoki norozi ekanligini ifoda etishga oʻrgating.

Bolani boshqa kishilardan yordam soʻrashga oʻrgating.

Bolani sizning iltimosingiz bilan harakatlarni bajarishga, sizga biron narsani berishga oʻrgating.

Bolaga tanish va notanish kishilarni ajrata olishiga koʻmak bering.

Bolani oʻzining ismi, familiyasi, yoshi, qaysi jinsga mansub ekanligini bilishga oʻrgating.

Bolani aniq qoidalar mavjud boʻlgan oʻyinlarni oʻynashga urgating.

Bola bilan syujetli va rolli “Ona – kiz”, “Oshxonada tayyorgarlik”, “Doʻkonga tashrif buyurish” kabi oʻyinlarni oʻynang.

Nutq va muloqot muqobil usullarining rivojlanishi

Nutqni oʻzlashtirgancha bolalar avval ularga aytilayotganlarni eshitish va tushunishga oʻrganadilar, tovush chiqaradilar, keyin esa soʻzlarni talaffuz qiladilar va ulardan gap tuzadilar. Bolaning birinchi soʻzi yaqin odami yoki yaxshi tanish boʻlgan predmetini anglatadi, keyin u oilaning qolgan aʼzolarini, ovqat, kiyim-kechaklar, tana qismi, oʻyinchoqlarni nomlashga oʻrganadi. Sekin-asta bola oʻzining lugʻat boyligini kengaytiradi va bitta soʻzdan boshqalari bilan uygʻunlikda foydalanishni boshlaydi, oldiniga ikki soʻzdan iborat jumlaning talaffuz etgancha, keyinroq jummalarga yangi va yana yangi soʻzlarni qoʻshib, oʻz nutqini murakkablashtirib hamda rivojlantirib boradi. Nutqni biz yuqorida aytib oʻtgan – mimika, imo-ishoralar va intonatsiya kabi



muloqotning noverbal usullari kuzatib boradi. Ular nafaqat nutqni boyitadi, balki bola uchun muloqot imkoniyatini kengaytiradi, shu sababli uchun ularning rivojlanishi ham bola uchun juda muhim.

Odatda, bolalar nutqning asosiy malakalarini 3-4 yoshga kelib o'zlashtirib oladilar, biroq ba'zi jismoniy yoki psixik buzilishlar tufayli farzandingizning nutq rivojlanishi qiyinlashishi mumkin. Keling, bolani gapirishga qanday o'rgatish mumkinligi haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Qachonki farzandingiz endi gapirishni o'rganayotganida sizni yaxshi tushunishi uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilishni sinab ko'ring:

Bola bilan gaplasha turib, murakkab so'z va gaplardan foydalanmang, aniq va ravshan so'zlang. Bolaga murojaatingiz va iltimosingizni shunday aniq ifodalangki, u sizni oson tushuna olsun. Masalan, "men sening qoshiq bilan stolni taqillatishingni istamagan bo'lardim" deyish o'rniga, "taqillatma" deb ayting.

Bolaga tushunishi uchun vaqt berganicha bitta so'z va jumlaning bir necha bor takrorlang.

Yuz ifodangiz va gap ohangi aytayotgan so'zingizga mos tushishiga intiling.

Bola bilan gaplashganda o'z so'zlaringizni oddiy imo-ishoralarning bilan ifodalang, shunda uning yaxshiroq tushunishiga yordamlashgan bo'lasiz.

Bola bilan gaplashganda uning bo'yi barobarida turing va nigoh yoki jismoniy aloqani saqlang.

Shu darajada bolaga u so'zsiz javob qaytarishi mumkin bo'lgan savollarni berishni boshlang.

Masalan, o'yinchoqlar bilan o'ynaganicha, boladan aytilgan o'yinchoqni barmoqlari bilan ko'rsatishga undaganicha quyuncha qani?, ayiqvov qani?, qo'g'irchoq qani? deb so'rang.

Bolani yuvintirayotganingizda va kiyintirayotganingizda uning tana qismlari va kiyimlarining nomini ayting hamda ularni sizga ko'rsatishini so'rang.

Boladan oddiy harakatlarni bajarishini, masalan, ko'ptokni olib berishini, qo'lini silkitishini va boshqalarni so'rang.

Bola tovushni talaffuz qilishni boshlashi uchun unda og'iz va xiqildoq muskullari rivojlangan bo'lmog'i darkor. Siz bolaga bu muskullarni mashq qilishida quyidagi usullardan foydalanganicha yordamlashishingiz mumkin:

Bolada kulguni chaqiring – bu muskullarni mustahkamlashning yaxshi usuli. Bolani qitiqlang va u bilan quvnoq o'yinlarni o'ynang.

Bolaning ovozi va mimikasidan nusxa oling, o'zingiz kulguli qiyofalar yarating, tovushlar chiqaring va bolani sizga taqlid qilishiga undang. Bularni bola bilan ko'zguga qaraganicha qilishni sinab ko'ring.

Agar qarshi dalil bo'lmasa, unda bola bilan puflash talab qilinadigan o'yinlarni o'ynang: sovun ko'piklari va stakandagi suvni poxolpoya bilan puflash, hushtak chalish, qamishsurnayda o'ynash. Bolaga qog'oz va mato, lenta va sharflar bo'lagiga puflashni o'rgating.

Bolani chaynash kerak bo'lgan qattiq ovqatlar bilan ovqatlantiring va uni trubkacha bilan ichishga o'rgating. Bolani qoshiqni yalashga va unda yopishgan



ovqatlarni yalab qo'yishga o'rgating – shunday qilib lab va til muskullari mashq qiladi.

O'yin yoki o'qish davomida tovushga taqlidiy so'zlarni talaffuz qiling, masalan: “mu-u-u”, “myau”, “gav-gav”, “xlop-xlop”, “zin-zin” va bolani ortingizdan takrorlashini rag'batlantiring.

Barmog'ingizni bolaning yuqorigi va pastki labi ustidan yurgizgancha yoki kaftingiz bilan og'ziga shapatilagancha unga tovushlarni qanday chiqarishni tushunishida yordamlashing. Xuddi shularni bola siz qanday ovoz chiqarayotganingizni ko'rishi uchun o'z labingizda qilib ko'rsating. Bola sizning lablaringiz qanday harakatlanishini ko'rishi uchun tovush chiqargancha faol artikulyatsiya qiling.

Qachonki bola tovush talaffuz qilishga uringanida unga o'z barmog'ingiz bilan uning lablarini yengil ushlab turgancha va harakatlantirgancha yordam berishga harakat qiling. Bolaning qo'llarini bola ko'rishi va buni qanday qilayotganingizni his qilishi uchun o'z labingiz ustiga qo'ying va tovush chiqaring. Bu usul, ayniqsa, ko'rish, eshitish va anglash qobiliyatida buzilishi bo'lgan bolalarning ta'limi uchun juda muhim.

Nutq rivojlanishi uchun ritm katta ahamiyatga ega, shuning uchun bolaga qo'shiq, ayniqsa, birgalikda qarsak chalib, depsinadigan qo'shiqlardan xirgoyi qilib bering.

Qachonki bola so'zlarni talaffuz qilishni boshlagan bosqichda siz unga talaffuz qilingan so'zlarni, shuningdek, ularni aniq predmetlar va vaziyatlar bilan aloqa o'rnatishi orqali tushunishini rag'batlantirgancha yordamlashishingiz mumkin:

Bolaning imo-ishorasini so'zga o'giring. Agar u nimanidir ko'rsatsa, o'zingiz bu predmetning nomini ayting. Masalan, “Sen yana sut ichishni istaysanmi? Mana sut”.

Agar bola so'z talaffuz qilmoqchi bo'lib, uni to'liq ayta olmasa yoki noto'g'ri aytsa, bolani qo'llab-quvvatlang va uning ortidan so'zni to'liq va to'g'ri qilib takrorlang. Masalan:

Bola bilan o'ynab, uni oddiy “yuqori va past”, “ber, ol”, “ochdik, yopdik” kabi juft so'zlarga o'rgating.

Bola bilan predmetlar va odamlarni tasvirlovchi oddiy yorqin suratlari bo'lgan kitob, shuningdek, fotoalbomni ko'rib chiqing. U yoki bu odamni yoxud predmetni ko'rsatib, boladan kim yoki nima ekanini so'rang. Agar bola so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilsa, uni to'g'rilashga urinmang, biroq shu so'zni o'zingiz to'g'ri tarzda takrorlang. Qachonki bola uyingizda mavjud bo'lgan suratdagi predmet nomini aytsa, undan shu predmetni olib kelishini iltimos qiling. Fotoalbomni tomosha qilib, oila a'zolari nomini aytgancha bola hozir uyda fotoalbomda surati bo'lgan kim borligini taqqoslashi mumkin.

Bolaga g'amxo'rlik qilgancha yoki u bilan o'ynagancha, unga o'yinchoqlar, kiyimlar yoki taomlar orasidan nimanidir tanlashga imkon bering.

Predmetlarni shunday joylangki, bola ularni yaxshi ko'ra olsun va u nimani istashini so'rang.

Qachonki siz bolani yangi so'zga o'rgatar ekansiz, unda bola bilan suhbatlashganda, shu so'zni bir necha bor va turli predmetlar yoki vaziyatlarga nisbat



berib takrorlang. Bolani javob qaytarishga undagancha yangi soʻzdan foydalanib, savol bering. Masalan, bola bilan oʻynagancha, shunday deb aytish mumkin: “Mana ayiqcha uxlayapti, qoʻgʻirchoq ham uxlayapti, mashina ham uxlayapti, koʻptok ham uxlayapti. Quyoncha qani? Quyoncha nima qilyapti?”

Bolaning lugʻat boyligi kengayishi darajasida uni soʻz iboralari, ikki yoki undan ortiq soʻzlardan iborat jumladan foydalanishga oʻrgating.

Bola siz unga aytayotganlaringizni shunchaki yangi soʻz maʼnosi haqida fahmlashni emas, tushunayotganiga ishonch hosil qiling,

Buning uchun bolaga oddiy iltimoslar, biroq boladan tushunish talab qiladigan vaziyatda murojaat qilishga urinib koʻring. Masalan, qachonki bola oilaning bir necha aʼzolari doirasida boʻlsa, ulardan birini quchoqlash yoki oʻpishni iltimos qiling. Xudi shunday boladan koʻplab predmetlar yoki oʻyinchoqlar ichidan bitta nimanidir olib kelishini soʻrang.

Har gal bola bita soʻzni talaffuz qilganida unga ikkinchi soʻzni qoʻshimcha qiling. Agar bola “Kuchukcha” desa, siz “Kuchukcha yuguryapti” yoki “Kuchukcha ovqatlanyapti” deb ayting. Qachonki bola “ber” yoki “yana” soʻzlaridan foydalanib, nimanidir soʻrasa, siz shu jummalarni ayting “Olmani ber”, “Yana oʻynaymiz” va h.k.

Bola bilan ikki soʻzdan iborat oddiy jumladan foydalanib, atrofda sodir boʻlayotganlarni bayon qilganicha gaplashing, masalan: “oyisi oʻqiyapti”, “Sardor oʻynayapti”, “shoʻrva qaynayapti”, “mashina turipti”. Bola bilan muloqotning kundalik vaziyatlarida ham ikki soʻzdan iborat jumladan foydalaning: “e” va “ich” soʻzlari oʻrniga “ovqatingni ye”, “Kefirni ich” va h.k.

Bola bilan suratli kitoblarni koʻrib chiqing va u bilan tasvirlangan odamlar, hayvonlar va predmetlar nimalar qilayotganini muhokama qiling. Bola bilan qoʻgʻirchoqlar va oʻyinchoqlardan foydalanganicha uning kundalik hayotini aks ettiruvchi syujetli oʻyinlarni oʻynang va boladan kim nima qilayotganini tasvirlab berishini soʻrang.

Qachonki bola ikki soʻzdan iborat jumladan ishonch bilan foydalana boshlashga oʻrgansa, ikkita soʻzga uchinchisini qoʻshishni boshlang. “Otang ketdi” deyish oʻrniga “Otang magazinga ketdi”, yoki “Oyisi mashinada ketdi”, “Palov tayyorlashni boshlaymiz” va h.k.

Bola bilan unga qiziqarli boʻlgan narsalar haqida gaplashing va yangi soʻzlardan foydalaning. Masalan, agar bolaga rasm chizish yoqsa, u bilan bogʻliq boʻlgan predmet va harakatlar haqida suhbatlashing: qogʻoz, moʻyqalam, boʻyoqlar, stol, stakan, qizil, koʻk, hoʻl, kuchliroq, yuqoriga, boʻyash va h.k.

Bolaga kitob oʻqib bering, u bilan kitobdagi voqealar syujeti va rasmlarni muhokama qiling. Boladan u yoki bu personaj nimalar qilayotgani, qandayligi, nima uchun u shunday qilganligi, keyin nimalar boʻlgani va h.k. lar toʻgʻrisida soʻrang.

Bola bilan kundalik hodisalar toʻgʻrisida gaplashing, unga uyda nimalar sodir boʻlayotganini soʻzlab bering, undan nimalar bilan shugʻullanganligi, oilaning boshqa aʼzolari nimalar qilganini gapirib berishini soʻrang.

Bolani odamlar va predmetlarning joylashgan joyini aniqlovchi soʻzlardan foydalanishga oʻrgating.



Bolaga nutqni o'zlashtirishi, yangi so'zlarni o'rganishi va hiyla murakkab gaplarni tuzishi yordamlashishda davom eting. Mashg'ulot vaqtida yoki uni parvarishlayotgan paytingizda bola bilan gaplashing, bolani oilaning boshqa a'zolari bilan muloqotga faol jalb qiling, umumiy suhbatlarda ishtirok etishini rag'batlantiring.

Agar farzandingizda ko'rish, eshitish qobiliyatining buzilishi yoki ba'zi harakatli buzilishlar tufayli nutqning shakllanishida qiyinchiliklar bo'lsa gaplashishga o'rgana turib, u gapirayotganingizda sizning labingiz va tomog'ingizni paypaslashi kerak bo'ladi. Bolaning qo'lini o'zi gapirayotganida uning lablari va tomog'iga qo'ying, ularning harakatlanishini his qilishiga yordamlashing.

Biz uchun og'zaki nutq – muloqotning juda muhim usuli, biroq u yagonadir.

Agar farzandingizda og'zaki nutq uzoq vaqt rivojlanmasa, unga muloqotning boshqa alternativ usullaridan foydalanishida yordamlashing va buni iloji boricha ertaroq boshlang. Bobning boshlanishida biz bolalar sizga o'z ehtiyojlari haqida ma'lum qilishlari uchun imo-ishoralar va suratlardan foydalanishi mumkinligi, nimani istashini barmoqlari bilan yoki ko'z harakatlari bilan ko'rsatishlari mumkinligi haqida gapirib o'tgandik.

Agar farzandingizda eshitish qobiliyatining kuchli buzilishi bo'lsa yoki siz unga gapirishni o'rganish qiyin kechayotganini ko'rsangiz bolani, albatta, imo-ishoralar tiliga o'rgating va bola bilan to'laqonli muloqot imkoniyatiga ega bo'lish uchun bu tilni o'zingiz ham o'rgansangiz maqsadga muvofiq bo'lardi. Hatto farzandingiz alohida tovushlar va o'xshash so'zlarni talaffuz qilsa, uning gapirib ketishini kutmang, bu amalga oshmasligi mumkin, nutqni faol shakllantirishning boshqa usullari vaqti boy berilishi mumkin. 0 dan 3 yoshgacha bo'lgan davr bolaning rivojlanishi uchun o'ta muhim, shuning uchun aynan shu vaqtda nutq faol rivojlanadi, bu davrda barcha bolalarda ularga tushunarli bo'lgan nutqqa o'rgatishni boshlash zarur.

Yodda tuting, farzandingiz rivojlanmoqda va unga o'z ehtiyojlari haqida ma'lumot berish uchun unga usul va muloqot imkoniyati kerak, aks holda bola intellekti, hissiy holatining jiddiy buzilishi sodir bo'ladi. Bolani kelgusida o'qish va rivojlanish imkoniyatidan maxrum qilmaslik uchun bu masalada e'tiborli bo'ling.

Bola va sizga imo-ishoralar nutqini o'zlashtirishda mutaxassislar yordamlashadilar, biroq bola bilan muloqotning ba'zi usullaridan foydalanishni o'zingiz sinab ko'rishingiz mumkin.

Agar siz bola sizni tushunayotganiga ishonch hosil qilsangiz, turg'un "ha-yo'q" signalini rivojlantirishga harakat qiling. Bolaning imkoniyatlariga orientir olgancha, "ha" va "yo'q" ni anglatadigan muayyan imo-ishoralarni tanlang va bolani sizning savollaringizga javob qaytara turib ulardan foydalanishga o'rgating. Bola "ha" deb javob qilganda boshini chayqatishi, "yo'q" deganida esa boshini bir tomondan boshqa tomonga chayqatishi, qo'llari yoki ko'zlari harakatidan foydalanishi mumkin.

Qiyin harakatlanadigan bola sizni agar yonida bo'lmasangiz qanday chaqirishi mumkinligi haqida o'ylab ko'ring. Bolada sizni boshqa xonadan chaqirish imkoniyati bo'lishi uchun uni qo'ng'iroqchadan foydalanish yoki oyog'i bilan pol yoki maxsus moslamani taqillatishga o'rgating.



Siz bola bilan bolaga tanish bo'lgan predmetlar va kundalik harakatlar tasvirlangan suratlar yordamida muloqot qilishingiz mumkin. Ularni o'zingiz chizishingiz, tayyor suratlar yoki fotografiyalardan foydalanishingiz mumkin. Siz ularni bitta kitobchaga jamlashingiz, bolaning hozir va keyin nimalar bilan shug'ullanishini tushunishida yordam berish uchun devorga muayyan ketma-ketlikda osib chiqishingiz mumkin. Bola sizga suratlarni ko'rsatgancha o'zining xohishlari, rejalari va hatto tuyg'ulari haqida ma'lum qilishi mumkin.

Avvalgi boblarda biz bola uchun o'zining oilaga mansubligini va uni qabul qilishlari hamda qadrlashlarini his qilishi qanchalik muhim ekanligi haqida aytib o'tgandik. Bolaning muvaffaqiyatli rivojlanishi, shu jumladan, nutq va muloqot malakalarining rivojlanishi ham ko'p jihatdan bu ishonchga bog'liq, axir agar bola u bilan qiziqayotganlarini tushunsa, muloqot qilishga intiladi va gaplashishga o'rganadi.

Hissiyotlar va axloq

Hissiyot va tuyg'ularni his qilish hamda ifoda etish – insonning xususiyati va uning tabiiy ehtiyoji. Boladagi hissiyot olamining rivojlanishi juda erta boshlanadi va uning g'amxo'rlik hamda mehrga dastlabki ehtiyojlarini ota-onasi va yaqinlari qondiradilar. Biz bolaning barcha rivojlanishi uchun o'z vaqtida e'tibor olish va ota-onasining samimiy iliqqligi qanchalik muhimligi hamda boshqalardan farqli bola o'zining cheklovi, buzilishi tufayli bulardan benasib qolishi mumkinligi haqida aytib o'tgandik. Yana bir bor sizning diqqatingizni bolaning rivojlanishi, qachonki uning barcha ehtiyojlari, birinchi navbatda, muhabbat, xavfsizlik va qabul qilinishga bo'lgan ehtiyojlari qondirilganida muvaffaqiyatli amalga oshishiga qaratishni istardik.

Bolada hissiy muhitning muvaffaqiyatli shakllanishi uning ijtimoiy rivojlanishi uchun ham asos bo'ladi: o'zi va o'z tuyg'ularini tadqiq etgancha bola bir vaqtning o'zida ularni boshqarishni, boshqa odamlarning tuyg'ulari bilan taqqoslashni, axloqning shakllarini tanlashni o'rganadi. Ota-onalar yordamida bola o'z individualligi bilan tanishadi, unda fe'l-atvor va axloq uslubi shakllanadi.

Agar bola tarbiyasidagi ba'zi lahzalarning muhimligi haqida yodda tutsangiz o'z farzandingizga boshqalar bilan muloqotda o'zini ishonch bilan his qilishi va uning shaxsiy o'sishida ko'maklashib, ko'p narsada yordamlashishingiz mumkin.

O'z-o'zini baholashni mustahkamlash

Bolalar o'zlari va boshqalar o'rtasidagi farqni juda erta anglashni boshlaydilar va boshqalardan farqli bolada esa bunday taqqoslash quvonchli bo'lmagan tuyg'ular hamda fikrlarni uyg'otadi, shuningdek, o'zini past baholashni shakllantiradi. O'ziga bunday munosabat boshqalardan farqli bolaning shunday ham yengil bo'lmagan hayotini unga muloqot qilish, odamlar bilan munosabat qurish, katta hayotga qadam qo'yishda xalaqit qilgancha jiddiy tarzda qiyinlashtiradi.

Bolada o'ziga ishonchni rivojlantirish uchun uning o'z-o'zini baholashini mustahkamlash ahamiyatli va buni juda erta yoshdan boshlash zarur. Farzandingizni tez-tez maqtab turing, e'tiborni uning muvaffaqiyatlariga qarating, nimanidir uddalay olmaganida uni qo'llab-quvvatlang va qiyinchiliklarni yengishida yordam bering. Bolaga o'ta g'amxo'rlik qilishdan qoching, albatta, sizga yordam kerak, biroq o'zi



harakatlanish va qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyati bolaga o'zidan faxrlanish hamda ilgari siljish uchun imkon beradi. Bolaning xatolaridan cho'chimang va xatosi uchun uni urishmang, aksincha ularga nisbatan bolada to'g'ri munosabatni ishlab chiqishiga ko'maklashing. Faqat xatolar sodir etib, ulardan saboq olganicha inson nimagadir o'rganishi mumkin. Bolangizni omadsizliklarni yengib o'tishga va yangi tajribadan qo'rqmaslikka o'rgating.

Bolaning tanlashga o'rganishi va unda shunday imkoniyatning bo'lishi juda muhim. Agar siz bolaga mustaqil tanlashga imkon bermasangiz, u tashabbus ko'rsatish va qaror qabul qilishga o'rganmaydi, o'ziga ishonmaydigan bo'lib boradi yoki qaysarlik va tajovuzkorlikni namoyon eta boshlaydi. Bolaga qaerda mumkin bo'lsa, o'sha joyda tanlash imkonini taqdim eting, yodda tuting, tanlash qobiliyati unga mustaqillik va erkinlik tuyg'usini beradi.

Bolaga o'zining kuchli tomonlarini topishida (ular har birimizda bor) yordamlashing, uning qobiliyatini rivojlantiring, yangi malakalarni o'zlashtirishga intilishini qo'llab-quvvatlang hamda uning muvaffaqiyatlarini qadrlang.

Tushunish va tuyg'ularni ifodalash

Bolani o'z tuyg'ulari va hissiyotlarini ijobiy bo'lganidek, salbiylarini ham tushunishga o'rgating va unga boshqa odamlarning tuyg'ularini tushunishida yordamlashing. Bolaga o'zining barcha tuyg'ularini bir vaqtning o'zida ularni to'g'ri ifodalashni o'rganishida yordamlashganicha ochiq namoyon etish imkoniyatini taqdim qilish juda muhim.

Buning uchun bolaga u yoki bu vaziyatda atrofdagi odamlar bilan nimalar sodir bo'layotganini va ular nimalarni his qilayotganlarini tushuntiring, qahramonlari turli hissiyotlarni namoyon etuvchi kitoblardan o'qib bering, turli ifodalari bo'lgan oadmlar yuzining tasvirlarini ko'rsating.

O'z tuyg'uingizni o'zingiz namoyish eting va ularni bola bilan birgalikda muhokama qiling. Bolani tez-tez quchoqlang va o'ping, oilaning boshqa a'zolari, do'stlaringiz, hayvonlarga nisbatan o'zingizning iliq tuyg'ularingizni ifodalang, bunga bolani ham o'rgating. Bola mayuslanib qolganida yolg'iz qoldirmang, agar u azoblanayotgan bo'lsa, unga tasalli bering va o'zingizning quvonchingiz hamda yaxshi kayfiyatingizni saxiylik bilan bo'lishing.

Axloq qoidalari

Bolani to'g'ri axloqqa o'rgata turib, birinchi navbatda, buni shaxsiy namuna yordamida qiling. Yodda tuting, taqlid – bu bola uning yordamda o'rganadigan asosiy usuldir va agar siz bola qandaydir vaziyatda muayyan tarzda o'zini tutishini istasangiz, buni shaxsiy axloqda namoyish qiling.

Har qanday oilaning o'z qoidalari mavjud, farzandingizni kuchi yetganicha ularni bajarishidan cheklamang va uning uchun qandaydir maxsus qoidalar o'rnatmang. Axloqning dastlabki saboqlarini biz oilada olamiz, shuning uchun bolani boshqalar bilan birgalikda belgilangan qoidalarga amal qilishga o'rgating, biroq uning erkinligini siqib qo'ymang va bolaga nima yaxshi-yu, nima yomonligini ajratib olishiga imkoniyat taqdim eting.

Qadrli ota-onalar, o'z farzandingizga rivojlanishida yordamlashganicha, o'ylab ko'ring, o'g'il bolalar va qizlar o'zlarini qanday tutishlari kerakligi, ular nimalar bilan



shug‘ullanishlari va kim bo‘lib ishlashlari haqidagi stereotipni majburan qabul qildirish kerakmi?! Farzandingiz bunday qo‘shimcha cheklovlar kerakmi yoki yaxshisi, unga nimani yaxshi uddalasa, o‘shanga o‘rganish va eng yuqori darajada mustaqil bo‘lish imkoniyatini taqdim etish lozimmiki?!

Bolaga istalmagan axloqni o‘zgartirishida qanday yordamlashish mumkin

Axloq bilan murakkablik hamma bolalarda bo‘ladi, bu rivojlanish va bolaga ta‘lim berishning me‘yoriy bosqichi. Boshqalardan farqli bolaga o‘zidagi qandaydir buzilish sababli o‘zini nazorat qilish va nojoiz deb hisoblanadigan axloqni uddalash qiyin bo‘ladi. Shuni yodda tutgancha, bolaga “o‘zini yaxshi tutishi”dagi o‘ta yuqori talablarni qo‘ymang, biroq ayni damda unga jamiyat hayotiga va odamlar bilan muloqotga tayyorlash uchun qoidalarga amal qilishni o‘rgating.

Axloq - bu muloqot shakli va qachonki farzandingiz o‘zini istalmagan tarzda tutsa, u bu usuldan sizning e‘tiboringizni jalb qilish va o‘z ehtiyojlari haqida ma‘lum qilish uchun foydalanadi. Shuning uchun bola axloqini o‘zgartirishga urinishdan avval u shu tarzda sizga nima “demoqchi” bo‘lganini tushunishga harakat qilib ko‘ring. Ehtimol, hozir unga sizning e‘tiboringiz kerakdir yoki bola qiyin vaziyatni eplay olmayotgandir, unga nimadir xalaqit qilayotgan yoki u charchagan bo‘lishi mumkin.

Ko‘pgina bolalarga ularni ko‘plab odamlar yoki predmetlar o‘rab turadigan joylarda o‘zini sokin tutish qiyin bo‘ladi, masalan, magazinlar, bozorlarda, navbatda turish yoki mehmonga borganda. Bolaga bunday sharoitga sekin-asta ko‘nikishida yordamlashing va bola o‘yinli sharoitda o‘zini kerakli tarzda tutishga o‘rganishi uchun dastavval uyda shunga o‘xshash vaziyatni yaratishga urinib ko‘ring. Bola bilan magazinga, bozor, kafe yoki mehmonga borishni o‘ynang, oilaning boshqa a‘zolaridan birga o‘ynash va bolaga o‘zini qanday tutishni ko‘rsatishlarini iltimos qiling. Yangi, demak, bola uchun stressli vaziyatlarda nimalar sodir bo‘lishini bolaga tushuntiring va uning diqqatini nimadir qiziqarli narsaga jamlashga harakat qiling.

Bolaga axloqning maqbul qoidalarini o‘rganishi va istalmaganlarini o‘zgartirishida yordamlashish uchun quyidagi ba‘zi tavsiyalardan foydalanishga urinib ko‘ring:

Bola uchun ruxsat etiladigan axloq chegaralarini belgilang. Agar bola nimadir ruxsat etilmaydigan narsani qilsa, masalan, kimmidir ursa yoki ruxsatsiz nimanidir olsa, bolani darhol urishishga tushmang. Qat‘iy, biroq achchiqlanishsiz unga “yo‘q” yoki “mumkin emas” deb ayting va so‘zni imo-ishora bilan mustahkamlang, masalan, qo‘llar harakati yoki boshni chayqatgancha. Bolaga baqirmang, o‘zingizni sokin tuting va bolaga o‘zini bunday tutishi kerak emasligi va siz bunday axloqqa chidamasligingizni tushunishiga yordamlashing. Bolani chalg‘itishga urining, unga boshqa mashg‘ulot yoki axloqning maqbul usullarini taklif qiling. Masalan, agar bola boshqa bolalarning sochini torta boshlasa, unga “yo‘q” deng va odamlarning sochini tortish mumkin emasligi, ularning boshini silash esa mumkinligini tushuntiring.

“Yo‘q” deganda qat‘iyatli va chekinmaydigan tarzda izchil bo‘ling. Agar bugun siz bolaga nimanidir man etsangiz, ertaga esa ruxsat bersangiz, bola sizning taqiqlaringizga reaksiya qilishni to‘xtatadi. Agar bola ilk onlarda janjal ko‘tarsa, istalgan natijaga erishish uchun bardoshli bo‘ling. Qoidani qabul qilishdan oldin bola



go'yoki uning chegarasini tekshiradi va qachonki hiqillash, chinqiriq yoki yig'i bilan o'zgartirish mumkin emasligiga ishonch hosil qilgachgina qoidani qabul qiladi va kelgusida unga xotirjam amal qiladi.

Bola hayotiga o'ta ko'p qoida va cheklovlar kiritmang, faqat bolaning rivojlanishi uchun haqiqatan yomon va bolaning shaxsiy bo'lganidek, boshqa odamlarning ham hayoti hamda sog'ligi uchun xavfli bo'lganlarini taqiqlang.

Yaxshi xulqni rag'batlaniring va yomonlarini inkor eting. Bolani yomon axloqi uchun koyimang va jazolamang, bu – samarasiz usul, chunki bola shu tarzda sizning e'tiboringizga erishishga intiladi va natijada bunga erishadi ham. Sizning vazifangiz – bolaga e'tiborni tortish va istalganini olishning bu usuli ishlamasligini tushunishida yordamlashishdan iborat. Agar siz shovqin ko'tarsangiz, bolani o'zini yomon tutgani uchun koyisangiz unda bola sizning e'tiboringizga erishadi va ehtimol istaganini oladi hamda bu axloqdan kelgusida ham foydalanadi. Agar siz bolaning yomon axloqini “sezmasangiz”, biroq unga o'zini yaxshi tutganida e'tiborli bo'lsangiz, unda siz bolani yomon axloq – muloqot qilish uchun samarasiz, yaxshisi esa samarali usul ekanini tushunishga o'rgatasiz. Chidamli bo'ling va qachonki bola nimanidir talab qilsa, janjal ko'tarsa va shovqin solsa, uning axloqiga befarq bo'ling va unga (agar bu bola va atrofdagilar uchun xavfsiz bo'lsa) umuman e'tibor qilmang. Agar bolaga tinchlanish qiyin bo'lsa, unga yolg'iz bo'lishiga vaqt bering. Hech qachon boladan yuz o'girmang va unga yordam berishga tayyor turing, ammo uning salbiy axloqi izmida bo'lmang va injiqliklariga yo'l qo'yib bermang.

Bola o'zini yaxshi tutganida maqtang va ma'qullang. Ota-onalar ko'p hollarda bola qilishi kerak bo'lgan narsalarni qilishini, masalan, tinch o'tirib, o'z ishlari bilan shug'ullanishini shunday bo'lishi zarur deb qabul qiladilar. Axir bu biz boladan kutgan va odatda, sezmaydigan yaxshi axloqning o'zi-ku. Bolaning shunday axloqiga e'tibor qarating va uni o'zi yoki bolalar bilan tinch o'tirib, o'ynayotgani, batartib ovqatlanayotgani, rasm chizayotgani, o'zining kiyimlarini mustaqil joylayotgani va dars qilayotgani, sizga yordamlashayotgani va h.k. uchun maqtang.

Bolaga uning axloqida nimalar sizga yoqishi va yoqmasligini tushuntiring. Bolani maqttaganda yoki unga tanbeh berganda shunchaki “Yaxshi qiz!” yoki “Sen yomon bolasan!” deb aytmang. “Barakalla, chashkangni o'zing yuvayapsan” yoki “Mening sochimdan tortma” deng. Bola uni nima uchun maqtayotganlari va qaysi harakatlarini oqlamasliklarini tushunishi zarur.

Chidamli va bardoshli bo'ling. Barcha bolalar injiq, qaysar, kattalar iltimosini bajarishni istamaydigan davrdan o'tadilar. Sizning farzandingizga esa bu bosqichlar birmuncha murakkab o'tishi va uzoqroq cho'zilishi mumkin. Qachonki bola shunday muammolarni his qilayotgan bo'lsa chidamli bo'ling, unga yosh va axloq qiyinchiliklarini yengishida bardosh bilan yordam bering.

Agar bola nimanidir sindirsa, o'zini istalmagan tarzda tutsa, o'zi sindirgan narsalarini tuzatishida yordamlashing. Bu bolaga uni rad etmasligingiz va to'g'ri yo'l tutishida yordamlashishingizni tushunishga ko'maklashadi.

Farzandingiz o'zini yomon yoki istalmagan deb his qilishiga imkon bermang. Hech qachon bolani rad etmang va unga siz faqat zinhor uning o'ziga emas, balki axloqiga salbiy yoki tanqidiy munosabatda ekaningizni tushunishida yordamlashing.



Bolani jazolamang, bu unga o'z axloqini yaxshi tomonga o'zgartirishiga yordamlashmaydi. Bolaga baqirmaslikka va urishmaslikka harakat qiling hamda **HECH QACHON JISMONIY JAZONI QO'LLAMANG!** Bolaga nimani noto'g'ri qilgani va nima uchun bu o'zi va atrofdagilar uchun yomon ekanini sokin, qat'iy va sabot bilan tushuntiring.

Bolaga uning axloqi boshqalarda qanday aks etishini tushunishiga yordamlashing. Bolaga siz va yaqinlaringiz uning yomon axloqidan qanchalik ranjishingiz va u o'zini yaxshi tutganida quvonishingizni ayting va ko'rsating.

Agar bola kimgadir alam yetkazsa, u o'zining harakatlari natijasini ko'rishi va boshqa odam o'zini qanday his qilayotganini tushunishi kerak. Agar bola ranjigan odamga nisbatan achinish tuyg'usini his qilsa, u keyingi safar o'z harakatini takrorlashni istashi, dargumon. Bolani o'z harakatlari uchun kechirim so'rashga, boshqa odamlarga tasalli berishga, soqq'alar qilishga o'rgating.

Agar farzandingizda o'ziga yoki boshqalarga nisbatan tajovuz namoyon qilish odati shakllana boshlansa, e'tiborli bo'ling. Agar bola o'ziga zarar yetkazsa, bu uning qo'rqayotgani yoki boshqalar uni tushunmayotganidan o'kinchni his qilayotganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bolaning o'ziga zarar yetkazishmasligi uchun hamma narsani qiling va bolani chalg'itishga urining. Bolaga o'z ehtiyojlarini ifodalashni o'rganishida yordamlashishda davom eting, siz bolani salbiy hissiyotlarni boshqa, ancha xavfsiz usullar bilan, masalan, qog'ozni parchalab yoki yostiqni mushtlab uddalashga o'rgatishingiz ham mumkin.

Bolangiz o'syapti va ulg'ayayapti, keyingi hayotida u o'zini ishonchli his qilishi uchun hammamizga ham kattalar hayotiga kirishga yordamlashadigan bilim va malakalar zarur.

* Bolaga o'z vaqtida va kerakli hajmda ulg'ayish davomida uning tanasi bilan nimalar sodir bo'lishi, qanday jarayonlar bilan to'qnashishi haqidagi ma'lumotni taqdim eting. Bola bilan odamlar orasidagi turli munosabatlar – do'stlik, muhabbat, oila qurilishi, bolalar tug'ilishi haqida gaplashing. Bolaga uning tushunish darajasidan kelib chiqib, erkak va ayolning o'zaro munosabatlari to'g'risida gapirib bering va ulg'ayish davomida bunday o'zaro munosabatlarning xavfsiz qoidalari bilan tanishtiring.

* Bolani, albatta, notanish odamlar bilan xavfsiz axloqqa o'rgating. Rivojlanishida o'ziga xosligi bo'lgan bolalar, afsuski, birmuncha nozik va ularning zo'ravonlik vaziyatiga tushib qolishlari xavfi yuqori. Bolani hech qachon begona odamlar bilan gaplashmaslik, ular bilan birga ketmaslikka va agar u xavfli vaziyatga tushib qolsa o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, qochish, qattiq qichqirish, yordamga chaqirish yoki boshqa usullar bilan odamlar diqqatini tortishga o'rgating.

* Biz qo'llanmada ko'rib chiqqan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalaridan tashqari, siz farzandingizni unga mustaqil hayotida zarur bo'ladigan boshqa muhim ko'nikmalarga ham o'rgatishingiz mumkin. Bolani uyni yig'ishtirishga, kir yuvish, dazmollash, ovqat tayyorlash, mahsulot va kiyim-kechak xarid qilish, pul bilan muomalada bo'lishga o'rgating. Uning mustaqil hayotida spravochnikka yoki tez yordamga telefon qilish, shifokorni chaqirish, kommunal xizmatlar uchun haq to'lash, dorixona yoki aloqa bo'limiga chiqish ko'nikmasi kerak bo'lishi, ehtimol



mashina haydashni o'rganish zaruriyati yuzaga kelishi mumkin. Farzandingiz uchun u hech qachon o'rganolmasligi mumkinligi haqida avvaldan qaror chiqarmang, uning imkoniyatlaridan kelib chiqing va unga qancha mustaqil bo'la olishi mumkin bo'lsa shuncha yordamlashing.

Nazorat savollari:

1. Ergoterapiyani kasbiy faoliyat sifatida ta'riflab bering.
2. Nogironlikka ega bo'lgan odamning mustaqil hayoti uchun zarur bo'lgan kundalik mashg'ulotlar turini izohlang.
3. Nogironlikka ega bo'lgan bolaning asosiy hayotiy malakalarini shakllantirish yo'llarini yoritib bering.
4. Nutqsiz bolaning kommunikativ malakalarini qanday rivojlantirish lozim?
5. To'g'ri ijtimoiy xulqni shakllantirishning metod va yo'llarini taxlil qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meyer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA.
2. Counseling theories and techniques for rehabilitation and mental health professionals: second edition. Editors: Fong Chan, Phd, CRC, Norman L.Berven, Phd, Kenneth R.Thomas, DEd. Springer publishing company, LLC, 2015 New York.
3. Inclusive Special Education: Evidence-Based Practices for Children with Special Needs and Disabilities, Garry Hornby, University of Canterbury College of Education Christchurch, New Zealand. Springer Science+Business Media New York 2014,
4. Bevin Dj. Проблемы, с которыми сталкиваются родители // N.Finni. Ребенок с церебральным параличом. – Москва: «Теревинф», 2001. - S. 37-53.
5. Chicherina Ya.E., Isaeva D.I., Bondareva Ye.V. Rannyaya diagnostika i vmeshatelstvo. T: RSSAD, 2010.
6. Ergoterapiya v psixiatrii. Shvedskaya assotsiatsiya ergoterapevtov, 2009.



IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-Amaliy mashg‘ulot: Reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy, tibbiy va psixologik asoslari

Tinglovchilar soni - nafar	O‘quv soati – 2 soat
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Amaliy
O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	1.Amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik. 2.Vazifalarni e’lon qilish. 3.Savollarga javob berish. 4.Guruhlarda ishlash. 5.Guruhlar taqdimoti. 6.Mavzuni mustahkamlash. 7.Mustaqil vazifalar berish.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi	Tinglovchilarda reabilitatsion pedagogikaning ijtimoiy, tibbiy va psixologik asoslari tushunchasini shakllantirish.
O‘quv faoliyatining natijalari	1.Tinglovchilar reabilitatsion pedagogikaning maxsus pedagogikadagi innovatsion yo‘nalish sifatidaligini muhokama qildilar va tushunachaga ega bo‘ldilar. 2. Tinglovchilar nogironlarga nisbatan shaxsiy stereotiplarini angladilar va nogironlikning ijtimoiyligi haqida tasavvurga ega bo‘ldilar. 3.Tinglovchilar Kasalliklarning xalfaro tasnifi-BO‘ haqidagi tasavvurlarini ushbu tasnifni taxlil qilish asosida kengaytirdilar.
O‘qitish usullari	Mashq, guruhlar bilan amaliy ish, muhokama, ma’ruza
O‘qitish shakllari	Yakka, guruhli
O‘qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar	Faoliyat mazmuni	
	Professor - O'qituvchi	Tinglovchilar
Tayyorgarlik Bosqichi (5 -minut)	Tinglovchilarni mazkur mavzudagi amaliy mashg'ulot mavzusi, rejasi hamda tayyorgarlik uchun adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Amaliy mashg'ulotning rejasi bilan tanishtiriladi, mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar.
1-bosqich. "Nogironlik va inkor etilganlik" mashqi (30-minut)	1. O'qituvchi ishtirokchilarga ular qachon boshqalar tomonidan inkor etilganliklarini eslab ko'rishni taklif etadi. Qaysi yoshda va qancha vaqtligining ahamiyati yo'q. Shuningdek, O'qituvchi ishtirokchilardan o'z hissiyotlarini ta'riflab berishni so'raydi.	So'ngra ishtirokchilar "inkor etilishni his etish nima bilan bog'liq bo'lgan edi?" savoliga javob beradilar.
2-bosqich. Yakka va kichik guruhlarda ishlash (55-minut).	2.1. Topshiriq: 5 daqiqa davomida "Nogironlik nima?" savoliga javob bering.	2.1. Guruhlarda amaliy ish vazifalarini bajaradilar. Har bir guruh o'z savolini yoritadi.
	2.2. Topshiriq: So'ngra yana 5 daqiqa davomida juft bo'lib javob variantlarini muhokama qiling, muhokama davomida umumiy tushunchaga kelishga harakat qiling.	2.2. Muhokama davomida umumiy tushunchaga kelishga harakat qiladilar
	2.3. Topshiriq: esa juftlar kichik guruhlariga birlashib, nogironlikning umumiy tushunchasini yarating.	2.3. Har bir guruh o'z xulosasini namoyish etadi va o'z nuqtai -nazarini himoya qilishi lozim.
	2.4. Guruhlarning taqdimoti tinglanadi.	2.4. Mavzu bo'yicha bilimlari umumlashadi.
3-bosqich. Yakka va kichik guruhlarda ishlash (55-minut).	Topshiriq: Ishtirokchilar 4-6 kishidan iborat kichik guruhlariga bo'linadilar (1 ilova)	Har bir guruh berilgan savollarga tibbiy va ijtimoiy model nuqtai nazaridan javob berishlari lozim. Javoblarni flipchartlarga jadval



		shaklida yozadilar
	2.5.Vaziyatga moslangan rolli o‘yin (2 ilova)	Tinglovchilar kichik guruhlarda berilgan vaziyatni muhokama qiladilar, uni hal etish yo‘llarini taqdimot qiladilar
	2.6.KXT tahlili va uning asosida “Qanday? » ierarxik diagrammasi (3-ilova)	Tinglovchilar KXT tahlil qiladilar va uning asosida har biri “Qanday?” ierarxik diagrammasi to‘ldiradilar
4-bosqich. Yakuniy bosqich yakunlovchi 15-minut.	3.1. Vazifani bajarish jarayonida qilingan xulosalar berilgan jadvalni to‘ldirish asosida chiqariladi. Ish yakunlarini e‘lon qiladi.	3.1. Jadvalni to‘ldiradilar. Tinglaydilar va yozib oladilar. Fikr va muloxaza bildiriladi.
	3.2.Darsda faol ishtirok etgan Tinglovchilar qayd etiladi.	3.2. e‘tirof etiladi.
	3.3.Mustaqil ish uchun vazifa beradi. (4-ilova)	3.3. Tinglaydilar va yozib oladilar.

1-ilova

1- mashq. “Nima uchun..?”

Maqsad: nogironlikning ijtimoiy tushunchasini mustahkamlash va ijtimoiy modelga asoslangan holda tahlil o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirish

Vaqt: (40 daqiqa)

Topshiriq: Ishtirokchilar 4-6 kishidan iborat kichik guruhlariga bo‘linadilar. Har bir guruh berilgan savollarga tibbiy va ijtimoiy model nuqtai nazaridan javob berishlari lozim. Javoblarni flipchartlarga jadval shaklida yozadilar:

Tibbiy model	Ijtimoiy model

Har bir guruh o‘z vaziyati buyicha bergan javoblarini namoyish etadilar. Munozara jarayonida javoblar qanchalik tibbiy yoki ijtimoiy modelga mos kelishligi muhokama qilinadi.

Muhokama uchun savollar:

Nima uchun nogironlik aravachasidan foydalanuvchi kishi kutubxonadan foydalana olmaydi.

Nima uchun ko‘r bola yaqin atrofdagi maktabda o‘qiy olmaydi.

Nima uchun qulog‘i eshitmaydigan bola ota-onasiga qo‘ng‘iroq qila olmaydi.



Nima uchun nutqida buzilishi bo'lgan bola do'kondan o'ziga kerakli narsa sotib ololmaydi.

Xulosa: Nogironligi bo'lgan kishilar hayotida chegaralarni keltirib chiqaruvchi sabablarga to'siq sifatida qarash mumkin. Ular jamiyat tomonidan bunyod etilgan bo'lib, buning shaxs nogironligiga aloqasi yo'q. Flipchartga to'siqlarning har xil turlari yoziladi.

2-ilova

1-vaziyat

Kodirjon aka. Yoshlari 75 da. Ayoli 2 yil oldin og'ir betoblikdan so'ng vafot etgan. Yolg'iz farzandi – 35 yashar qizi va 2 nafar 16 va 17 yashar nevaralari bor. Ayoli vafot etgach qizi otasidan kelib xabar olib kirini yuvib, ovqatini tayyorlab ketardi. Nevaralari esa o'qishidan so'ng uy yumushlarida kelib xovli, 3 xonali uyni tozalashda yordam berib turishardi. Yarim yil oldin qizi va nevaralari oilaviy iqtisodiy yetishmovchilik sababli chet elga ishlashga majbur bo'lib ketib qoldi. Qodirjon aka bugun endi yolg'iz o'zi yashamoqda.

Qodirjon aka bugungi kunda sog'lig'i yomonlashib, harakatlari koordinatsiyasi buzilib, o'z choyini damlab ichishga ham qiynalib qolgan. Qo'shnilarning so'ziga qaraganda yaqinda yurak huruji ham bo'lib o'tdi. Qo'shnilar ba'zida chiqib Qodirjon akaning ro'zg'oridan xabar olib turadilar. Qodirjon aka o'z vaqtida yaxshi ish haqi olgan. Shuning uchun uning pensiyasi miqdori yolg'iz o'zining ro'zg'origa va sog'lig'i uchun dori darmonlar olishga yetadi.

Rollar:

Qodirjon aka, 75 yoshda;

Qo'shni;

Mahalla vakili;

Xizmat ijtimoiy ishchisi;

Shifokor.

2-vaziyat

Muxlisa aya. Yoshlari 75 da. Erlari 1 yil oldin vafot etgan. Muxlisa ayaning yolg'iz farzandi – Dildoraning nogironligi mavjud. Muxlisa aya butun umr shu farzandining sog'lig'i bilan shug'ullanib, unga g'amxo'rlik qilib kelgan. Farzandi bolalikdan nogironligi mavjud: DSP tashxisi bilan og'riydi. U yura olmaydi, Lekin devorni ushlab yurib bo'lsada o'ziga-o'zi xizmat ko'rsata oladi. Muxlisa aya hech qaerda ishlamaganligi sababli yoshi bo'yicha nafaqasi miqdori ko'p emas. Farzandining nogironligi uchun nafaqa olib turadi.

Rollar:

Muxlisa aya, 75 yoshda;

Qizi Dildora;

Qo'shni;

Mahalla vakili;

Xizmat ijtimoiy ishchisi;

Shifokor.



3-vaziyat

Sobir ota. Yoshlari 71 da. 2-guruh nogironi. 3 sotixdan iborat hovlida yolg'iz o'zi yashaydi. Farzandlari yo'q. Xovlisida mevali daraxtlar mavjud. Oshxonada, hammomi bor, lekin issiq va sovuq suv yo'q. Uyda elektr tez-tez o'chib turadi, tabiiy gaz mavjud. Chorvadan sigir va buzog'i bor. Nogironligi bo'yicha nafaqa oladi.

Yashash xonasi 3 xonadan iborat bo'lib, ancha ta'mir talab. Oshxonada ovqat tayyorlashi uchun imkoniyatlari juda yomon. Sanitar-gigienik qoidalarga rioya qilinmaydi. Yotog'i hamda jihozlari ham noqulay.

Sog'lig'i: tez-tez qon bosimi oshib ko'tarilib turadi, ko'zi yaxshi ko'rmaydi, tashqi ta'sirlarga beriluvchan, dori-vositalarini haddan tashqari ko'p qabul qiladi.

Rollar:

Sobir-ota 2-guruh nogironi, 71 yosh;

Qo'shni;

Mahalla raisi;

Ijtimoiy ish mutaxassisi;

Vrach.

4-vaziyat

Xolida xola, 82 yoshda. Bir o'zi yolg'iz yashaydi. Farzand ko'rmagan. Butun umri davomida turli xil sohalarda faoliyat ko'rsatgan. Yakka yolg'izligi sababli injiq bo'lib qolgan. Odamni yoqtirmaydi. 2 ta yashash uchun mo'ljallangan xona, xovli, xojatxona, yuvinish xonalari mavjud. Xovlisi 6 sotixdan iborat. Tomorqaga hech narsa ekilmagan.

Sog'lig'i yaxshi emas. Qandli diabet kasalligiga chalingan. Yordamga muhtoj, o'zi ish qila olmaydi. 550 000 pensiya oladi. Uylari ta'mir talab.

Rollar:

Xolida Abdusaidova, 85 yosh;

Qo'shni;

Mahalla raisi;

Ijtimoiy ish mutaxassisi;

Vrach.

3-ilova

«Qanday?» ierarxik diagrammasi

«Qanday?» ierarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

Vujudga kelgan muammoni sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» ierarxik diagrammasi ana shunday sollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi muammo xaqida butunligicha umumiy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini quyish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o‘rganasiz.

Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ruyxatiga mos buladi.

O‘ylamay , baholamay va ularni o‘zaro solishtirmay tezlikda barcha g‘oyalarni yozish lozim bo‘ladi.


Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g‘oyalarni kiritish mumkin bo‘ladi.

Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo‘lishi kerak.

Yangi g‘oyalarni qanday grafik ko‘rinishda qayd etishni o‘zingiz tanlab oling(daraxt, kaskad va b.) Bunda muammo shajarasi ko‘z oldingizda namoyon bo‘ladi.

To‘g‘ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasining sxematik ko‘rinishi



Kichik guruhlar o‘z vaziyatlarini o‘rganib, uni “qanday?” ierarxik diagrammaga tushirib, o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar



2. Amaliy mashg'ulot ta'lim texnologiyasi modeli.

Mavzu: Maxsus pedagogning me'yorida hayot kechirish uchun zarur bo'lgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlardagi roli (2 soat)

Tinglovchilar soni - nafar	O'quv soati – 2 soat
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy
O'quv mashg'ulotining tuzilishi	1. Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik. 2. Vazifalarni e'lon qilish. 3. Savollarga javob berish. 4. Guruhlarda ishlash. 5. Guruhlar taqdimoti. 6. Mavzuni mustahkamlash. 7. Mustaqil vazifalar berish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Maxsus pedagogning umumqabul qilingan va amaliy rollari hamda vazifalari bilan tanishish, ijtimoiy xizmatlar mijozlarining kengroq toifalari haqidagi tasavvurlarini oshirish. Ushbu mavzu, shuningdek muxaxasisning jamiyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy o'zgarishlarga erishilishidagi hamda boshqa toifadagi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning ijtimoiy himoyalanihidagi rolining muhimligini tushunish uchun ham yordam beradi
O'quv faoliyatining natijalari	1. Tinglovchilar reabilitatsion pedagogning mijozlarni hayot bosqichlarining turli bosqichlarida roli va funksiyalari haqidagi bilimlarini muhokama qiladilar va mustahkamlaydilar 2. Tinglovchilar maxsus pedagog uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarni taxlil qiladilar
O'qitish usullari	Mashq, guruhlar bilan amaliy ish, muhokama,
O'qitish shakllari	kichik guruhli
O'qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat.



Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar	Faoliyat mazmuni	
	Professor - O'qituvchi	Tinglovchilar
Tayyorgarlik Bosqichi (5 - minut)	Tinglovchilarni mazkur mavzudagi amaliy mashg'ulot mavzusi, rejasi hamda tayyorgarlik uchun adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Amaliy mashg'ulotning rejasi bilan tanishtiriladi, mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar.
1-bosqich. Press-konferensiya (20-minut)	1.1. Reabilitatsion pedagogning roli va funksiyasi bo'yicha tarqatma materiallar tarqatadi	1.1. Materialni o'rganadilar, proess-konferensiya uchun savollar tayyorlaydilar
	2.2. Tinglovchilarning savollariga javob beradi	2.2. Savollar beradilar, javoblarni tinglaydilar
2-bosqich. Kichik guruhlarda ishlash (45-minut).	2.1. Topshiriq O'qituvchi ishtirokchilarni 4 kichik guruhlarga bo'ladi. Har bir guruh uchun flipchartda quyidagilarni yozib chiqish vazifasi beriladi (2-ilova)	2.1.Guruhlarda amaliy ish vazifalarini bajaradilar. Har bir guruh o'z savolini yoritadi. Tinglovchilar mustaqil tarzda nogironligi mavjud shaxslar bilan ishlovchi mutaxassisga qanday bilim, ko'nikma va malakalar kerak ekanligi, qanday qadriyatlaa va tamoyillarga rioya qilishlari kerakligi, samarali reabilitatsion jarayoni yuqorida keltirilgan to'rt komponentning o'zaro muvofiqlashuvi natijasida yuaga kelishi haqidagi fikrga keladilar.
	2.4. Guruhlarning taqdimoti tinglanadi.	2.4. Mavzu boyicha bilimlari umumlashadi.
3-bosqich. Yakuniy bosqich yakunlovchi 10-minut.	3.1. Vazifani bajarish jarayonida qilingan xulosalar berilgan jadvalni to'ldirish asosida chiqariladi. Ish yakunlarini e'lon qiladi.	3.1. Jadvalni to'ldiradilar. Tinglaydilar va yozib oladilar. Fikr va muloxaza bildiriladi.
	3.2.Darsda faol ishtirok etgan Tinglovchilar qayd etiladi.	3.2. e'tirof etiladi.
	3.3.Mustaqil ish uchun vazifa beradi. (4-ilova)	3.3. Tinglaydilar va yozib oladilar.



1-ilova

Reabilitatsion pedagogikada bir qancha rollarni bajarish bilan bir qatorda bir necha funksiyalarni amalga oshirish zarur. Umuman olganda, maxsus pedagog, qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar, egallab turgan lavozimi hamda vakolatlaridan kelib chiqqan holda quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- baholovchi, diagnostik funksiya – ijtimoiy diagnoz (tashxis)ni qo'yish;
- prognostik (oldindan tahmin qilish) funksiya;
- profilaktik (oldini olishga qaratilgan) funksiya;
- maslahat beruvchi funksiyasi;
- ijtimoiy-pedagogik funksiya;
- ijtimoiy-psixologik funksiya;
- ijtimoiy-tibbiy funksiya;
- ijtimoiy-huquqiy funksiya;
- ijtimoiy-maishiy funksiya;
- reklama-tashviqotchilik funksiyasi;
- ahloqiy-gumanistik funksiya;
- tashkiliy funksiya¹⁹ (ijtimoiy xizmatlarni tashkillashtirish – broker);
- boshqaruvchilik funksiyasi – “keys menedjer”.

Mazkur funksiyalarni amalga oshirish mobaynida maxsus pedagog bir vaqtning o'zida boshqa bir qancha rollarni ham bajarishi mumkin. Shuningdek har qanday amaliy rolni amalga oshirishda bir qancha funksiyalardan foydalanishga to'g'ri keladi. Yoki aksincha bitta maxsus funksiya yoki faoliyat turini bir qancha boshqa rollarni bajarish mobaynida amalga oshirish mumkin²⁰. Masalan, maxsus pedagog ijtimoiy xizmat brokeri rolida ham, maslahat beruvchi yoki keys-menedjer roli doirasida ham muassasa tarbiyalanuvchisi vaziyatini baholash funksiyasini amalga oshirishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilganidek maxsus pedagog bir nechta rollarni bajaradi. Ilmiy-uslubiy adabiyot tahlili hamda maxsus pedagoglarining tajribasidan kelib chiqqan holda ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi mavjud bo'lgan shaxslar bilan ishlovchi maxsus pedagogning quyidagi rollari ajratiladi:

Xizmat sohasi brokeri. Maqsadi. Muayyan vaziyatdagi nogironligi mavjud bo'lgan shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tegishli ijtimoiy xizmat institutlari va boshqa resurslar bilan bog'lanish va muammoni xal qilish uchun tegishli muloqotni yuritish va shu kabilar.

Ijtimoiy va moslashuvchanlik ko'nikmalari o'qituvchisi. Maqsadi. Nogironligi mavjud bo'lgan shaxslarda murakkab hayotiy vaziyatlarni hal etishga yordam beradigan hayotiy amaliy ko'nikmalarni tiklash, mustahkamlash varivojlantirish, xulq-atvorini o'zgartirish, shaxsning ijtimoiy hayotida ushbu ko'nikmalardan

¹⁹ Основы социальной работы: Учебник / P.D.Pavlenok tahriri ostida. – M.: INFRA –M, 1999.

²⁰ OO'MTV – RBIMM – TDMI – YuNISEF hamkorligidagi “O'zbekiston Respublikasida “ijtimoiy ish” kasbi, amaliyoti va ta'limining mustahkamlanishi” loyihasi doirasida tayyorlangan “Ijtimoiy ish asoslari” nomli kurs xrestomatiyasidan olingan / “Ijtimoiy ish xodimining rol va funksiyalari” maqolasi



foydalanish bo'yicha tajribalarini oshirishga va h.z.larga qaratilgan trening-seminarlarni amalga oshiruvchi.

Maslahatchi - klinitist. Maqsadi. Reabilitatsion pedagogika ob'ektlarining (mijozning) shaxsiy ustanovkalari hamda xis-tuyg'ularini tushunish, muammoli ijtimoiy vaziyatda o'z xulq-atvorini boshqarish yoki shaxsiy yetuklikka erishishga yordam beruvchi usul va vositalarni o'rganish yo'li orqali ularning ijtimoiy hayoti tarzini o'zgartirishlariga terapevtik yordam berish.

Keys menejer. Maqsadi. Mijozlarning qiyin hayotiy vaziyati bilan bog'liq muammosi turidan kelib chiqib muntazam ravishda tegishli idora va xizmatlar bilan bog'lash, shuningdek, xizmatlarni muvofiqlashtirish yo'li bilan sifatli xizmat ko'rsatilishiga erishish va ularning samaradorligi hamda uzluksizligini ta'minlash.

Ish yuklamasi hajmi menejeri. Maqsadi. Mijozlarga imkon qadar samarali yordam bera olish va o'z ish beruvchilari oldida javobgarlikni his eta olish uchun o'z yuklamasining hajmini boshqarish. Maxsus pedagoglari bir vaqtning o'zida xizmatlarni samarali amalga oshirishga intilishlari lozim, biroq shu bilan bir qatorda u xizmat qilayotgan tashkilot yoki muassasaning ichki siyosati, talab va me'yorlariga rioya qilishi lozim bo'ladi. O'z vakolati doirasida o'z majburiyatlariga rioya qilishi lozim.

Xodimlar shtatini rivojlantirish tashkilotchisi. Maqsadi. Seminar va treninglar uyushtirish, faoliyatni nazorat qilish, maslahatlar berib borish va ijtimoiy muammo xal etilishi jarayonini boshqarish vositasida muassasa xodimlarining kasbiy rivojlanishini ta'minlash.


Muassasa ma'muriyati a'zosi. Maqsadi. Ijtimoiy-gumanitar hamda pedagogik-psixologik xizmatlar ko'rsatilishi bo'yicha tadbirlar, dastur va ish rejasi hamda Ijtimoiy faoliyati yuklamasini ishlab chiquvchi, rejalashtiruvchi va amalga oshiruvchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi.

Ijtimoiy o'zgarishlar agenti. Maqsadi. Jamiyatda mavjud muammolarni hamda hayot tarzini yaxshilash mumkin bo'lgan muammoli sohalarni aniqlash, umumiy yagona qarash va qiziqishga ega bo'lgan insonlar guruhini faollashtirishda ishtirok etish, o'zgarishlarga intilish yoki yangi imkoniyatlarni rivojlantirish tarafdori sifatida ilg'or bo'lish.

O'z ishining "ustasi" (professionali). Maqsadi. Uning shaxsiy va kasbiy salohiyatiga mos hamda ahloqiy amaliy faoliyat bilan shug'ullanish bilan bog'liq shaxsiy fazilat va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, o'z tajribasi bilan ijtimoiy ish kasbining rivojlanishiga ulush qo'sha oladigan, yosh kadrlarga namuna, ustoz bo'la oladigan xodim. Ijtimoiy ish xodimi doimo o'z bilimi va ko'nikmalarini rivojlantirishga, uning tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifati oshirishga intilmog'i lozim.

Mijozning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalovchi (rus. Advokatirovanie). Maqsad. Qariya va nogironligi mavjud bo'lgan shaxslarning huquq va manfaatlarini himoyalash maqsadida tegishli idora va tashkilotlar oldida mijoz huquqlarini himoyalovchi vakil sifatida ishtirok etadi

Reabilitatsion pedagogikadagi samarali amaliyotning to‘rt komponentlari»



Maqsad: mazkur usul yordamida tinglovchilar mustaqil tarzda nogironligi mavjud shaxslar bilan ishlovchi mutaxassisga qanday bilim, ko‘nikma va malakalar kerak ekanligi, qanday qadriyatlar va tamoyillarga rioya qilishlari kerakligi, samarali reabilitatsion jarayoni yuqorida keltirilgan to‘rt komponentning o‘zaro muvofiqlashuvi natijasida yuuga kelishi haqidagi fikrga keladilar.

Davomiyligi:

- kichik guruhlarda ishlash uchun 20 daqiqa;
- har bir guruh ishi natijasini taqdim qilishi uchun 5 daqiqadan vaqt beriladi.

Yo‘riqnoma:

O‘qituvchi ishtirokchilarni 4 kichik guruhlariga bo‘ladi. Har bir guruh uchun flipchartda quyidagilarni yozib chiqish vazifasi beriladi:

1-guruh – Nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslar bilan ishlovchi mutaxassis nimalarni BILISHI kerak? (reabilitatsion pedagogga kerak bo‘ladigan bilimlar);

2-guruh – Nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslar bilan ishlovchi mutaxassis o‘zini qanday TUTISHI kerak? (ijtimoiy ish xodimi rioya qilishi lozim bo‘lgan qadriyatlar);

3-guruh – Nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslar bilan ishlovchi mutaxassis nimalarni QILA OLISHI lozim? (ijtimoiy ish xodimiga kerak bo‘ladigan ko‘nikmalar);

4-guruh – Nogironligi mavjud bo‘lgan shaxslar bilan ishlovchi mutaxassis nimalarni BAJARADI? (ijtimoiy ish jarayoni – mijoz bilan o‘zaro faoliyatga kirishish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topgan).

Topshiriqni bajarish uchun guruhlariga 20 daqiqadan beriladi. O‘qituvchi guruh ishi holatini kuzatib borishi va zaruriyatda ularni yechimni izlash hamda topishga yo‘naltirib borishi kerak. Guruhlarning ishi natijalari flipchartda yozib borilishi kerak.



Bosqichlar	Faoliyat mazmuni	
	Professor-O'qituvchi	Tinglovchilar
Tayyorgarlik bosqichi 5 minut	Tinglovchilarga “Maxsus bolalar bog‘chasida korreksion-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish” amaliy mashg‘ulot mavzusi, rejasi hamda tayyorgarlik uchun adabiyotlar royhati taqdim etiladi, vazifalar beriladi (1-ilova)	Amaliy mashg‘ulotlarni rejasi, adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishadilar, mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘radilar.
1-bosqich O‘quv mashg‘ulotlariga kirish (15 minut)	1.1. O‘quv mashg‘ulotining maqsadi, rejalashtirilgan natijasi e‘lon qilinadi. Tinglovchilar guruhlariga bo‘linadilar, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiriladi. (2-ilova) 1.2. 2-ma’ruza mavzusi boyicha savollarga javoblar beriladi (3-ilova)	1.1. Tinglaydilar, yozib oladilar. 1.2. Savolga javob beradilar
2-bosqich Asosiy bosqich Kichik guruhlarda ishlash (45-minut) Taqdimot	2.1. Tinglovchilar guruhlariga bo‘linadilar. Har bir guruhga rangli konvertlarda topshiriqlar tarqatiladi. (4-ilova). Vazifalarni bajarish boyicha amaliy ko‘rsatmalar beriladi, qo‘shimcha manbalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (masalan: mashg‘ulotlik, ma’ruza matnlari, dastur) 2.2. Kichik guruhlarda ishlash davomida ularning ishlarini kuzatiladi, ko‘rsatmalar beriladi. 2.3. Guruhlarning taqdimoti tinglaniladi. 2.4. Mavzu boyicha bilimlari umumlashtiriladi.	2.1. Kichik guruhlariga bo‘lingan talabalar o‘quv muassasalarida hitmoya pedagogik kun tartibini o‘rnatish shakllarining o‘quv vazifalari, baholash ko‘rsatgichlari, mezonlari bilan tanishadilar. 2.2. Guruhlarda vazifani bajarish boyicha materiallar tayyorlanadi. 2.3. Taqdimot qilishadi, qo‘shimchalar qilinadi. 2.4 Mavzu boyicha bilimlari umumlashtiriladi. bahslashadilar, fikr almashidilar.
3-bosqich Yakunlovchi	3.1. Vazifani bajarish jarayoni yakunida “VENN	3.1. VENN diagrammasi” ni to‘ldiradilar.



(15-minut)	diagrammasi” boyicha xulosalar chiqariladi (4-ilova) 3.2. Mashg‘ulotda eng yaxshi ishtirok etgan talabalarni baholanadilar. 3.3. Mustaqil ish uchun vazifa beriladi (5-ilova)	3.2. Tinglaydilar 3.3. Mustaqil ish vazifasi yozib oladilar.
-------------------	---	---

1-ilova

Amaliy mashg‘uloti mavzusi:

1. Maxsus bolalar bog‘chasida korreksion- tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish.

Amaliy mashg‘uloti rejasi:

1 Maxsus bolalar bog‘chasida korreksion- tarbiyaviy jarayon.

2. Maxsus bolalar bog‘chasida korreksion- tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish.

Amaliy mashg‘uloti maqsadi:

Maxsus bolalar bog‘chasida korreksion- tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va himoya pedagogik-kun tartibini o‘rnatish ishlarini jarayonga kiritishsh

Amaliy mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar:

Maxsus bolalar bog‘chasida korreksion- tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish da himoya-pedagogik kun tartibini o‘rnatish haqidagi nazariy bilimlari mustahkamlanadi

Guruhlarda ishlash qoidasi

Sheringizni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida o‘zaro faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga javobgarlik bilan yondashing.

Agar Sizga yordam kerak bo‘lsa, albatta guruh a‘zolariga murojaat qiling.

Agar Sizdan yordam so‘rashsa, albatta yordam bering.

Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda hamma ishtirok etishi shart!

Shuni aniq tushunmog‘ingiz lozim:

Boshqalarga o‘rgatish orqali o‘zimiz o‘rganamiz;

Biz bitta kemadamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz, yoki birgalikda cho‘kib ketamiz.

2-ilova

Guruhlarning bilim va ko‘nikmalarini baholash mezonlari


Topshiriqlar, baholash ko‘rsatkichlari va mezonlari	1-guruh	2-guruh	3-guruh
Maksimal ball – 2			
- savol to‘liq yoritib berildi (0,5 ball)			
- javoblar etarli darajada asoslab berildi (0,5			

ball)			
- guruh ishtirokchilarining faolligi (0,5 ball)			
- berilgan savollarga javob berdi (0,3 ball)			
- reglamentga rioya qildi (0,2)			
Jami: (2 ball)			

- 1,5 – 2 ball - «a'lo»
- 1,0 – 1,4 ball - «yaxshi»
- 0,5 – 0,9 ball - «qoniqarli»
- 0 - 0,4 ball - «qoniqarsiz»

3-ilova

Maxsus muassasada himoya pedagogik kun tartibini tashkil etish nima uchun



№ 3. Amaliy mashg‘ulot ta’lim texnologiyasi modeli.

Mavzu: Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan bolalarni parvarishlash, tarbiyalash va rivojlantirishga o‘rgatish

Tinglovchilar soni - nafar	O‘quv soati – 4 soat
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Amaliy
O‘quv mashg‘ulotining tuzilishi	1. Amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik. 2. Vazifalarni e’lon qilish. 3. Savollarga javob berish. 4. Guruhlarda ishlash. 5. Guruhlar taqdimoti. 6. Mavzuni mustahkamlash. 7. Mustaqil vazifalar berish.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi	Mashg‘ulotning maqsadi: ishtirokchilarni nogironligi bo‘lgan bola oilasining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.
O‘quv faoliyatining natijalari	1. Tinglovchilar nogironligi bo‘lgan bola oilasi hayot siklining xususiyatlari bilan tanishdilar, bu haqida tushunchaga



	<p>ega bo'ldilar</p> <p>2. Tinglovchilar nogironligi bo'lgan bola oilasi duch keladigan ijtimoiy qiyinchiliklar haqida tushunchaga ega bo'ldilar.</p> <p>3. Maxsus pedagogning nogiron farzandlari bo'lgan ota-onalar bilan ish olib borishi haqida bilimga ega bo'ladilar.</p> <p>4. Nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanish qonuniyatlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar.</p>
O'qitish usullari	Mashq, guruhlar bilan amaliy ish, muhokama,
O'qitish shakllari	Kichik guruhli
O'qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriY.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar	Faoliyat mazmuni	
	Professor - O'qituvchi	Tinglovchilar
Tayyorgarlik Bosqichi (5 -minut)	Tinglovchilarni mazkur mavzudagi amaliy mashg'ulot mavzusi, rejasi hamda tayyorgarlik uchun adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi.	Amaliy mashg'ulotning rejasi bilan tanishtiriladi, mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar.
1-bosqich. Oilaviy albom mashqi (60-minut)	<p>“Oilaviy albom” mashqi (1-ilova).</p> <p>Topshiriq: Ishtirokchilar o'zlari bilan olib kelgan turli yosh davridagi fotosuratlarini yosh davri buyicha terib chiqadilar (har bir guruh ma'lum yosh davri bo'yicha fotosuratlarini tanlab oladilar) va keyingi savollarga javob beradilar.</p>	Ishtirokchilar yosh davrlariga mos holda guruhlariga bo'linadilar: go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha va maktab davri, o'spirinlik, o'smirlik davrlari. Yelimli tasma yordamida fotosuratlarini yopishtirib “oilaviy albom betlarini” tayyorlaydilar. Har bir guruh har bir yosh davri bo'yicha berilgan savollarga javob yuzasidan chiqish qiladilar.
2-bosqich. Filmni tomosha	2.1. «Xuddi kapalakdek» filmni namoyish etadi (30 daqiqa)	2.1.Tinglovchilar filmni diqqat bilan tomosha qiladilar



qilish va uning muhokamasi (60-minut).	2.2. Film muhokamasi (30 daqiqa) (2-ilova)	2.2. Muhokama davomida umumiy tushunchaga kelishga harakat qiladilar
3-bosqich. Yakuniy bosqich yakunlovchi 35-minut.	3.1. Vazifani bajarish jarayonida qilingan xulosalar berilgan jadvalni to'ldirish asosida chiqariladi. Ish yakunlarini e'lon qiladi.	3.1. Jadvalni to'ldiradilar. Tinglaydilar va yozib oladilar. Fikr va muloxaza bildiriladi.
	3.2.Darsda faol ishtirok etgan Tinglovchilar qayd etiladi.	3.2. e'tirof etiladi.
	3.3.Mustaqil ish uchun vazifa beradi. (4-ilova)	3.3. Tinglaydilar va yozib oladilar.

1-ilova

“Oilaviy albom” mashqi

Maqsad: bola rivojlanishidagi yosh xususiyatlari, turli yosh davrida bola ehtiyojlari haqidagi bilimlarni faollashtirish, mustahkamlash.

Vaqt: 90 daqiqa.

Topshiriq: Ishtirokchilar o'zlari bilan olib kelgan turli yosh davridagi fotosuratlarni yosh davri buyicha terib chiqadilar (har bir guruh ma'lum yosh davri bo'yicha fotosuratlarni tanlab oladilar) va keyingi savollarga javob beradilar:

Bolaning ismi va yoshi?

Ushbu yoshda bola o'z ota-onasini nima bilan ko'proq quvontirgan?

Uning asosiy mashg'ulotlari nimadan iborat edi?

Nimani ko'proq yaxshi ko'rar edi, nimaga ko'proq muhtoj bo'lgan edi?

Ota-ona bu yoshda bola uchun nima muhim, unga nima berish kerak, deb hisoblaganlar?

Ko'rsatma: Ishtirokchilar yosh davrlariga mos holda guruhlarga bo'linadilar: go'daklik, ilk bolalik, maktabgacha va maktab davri, o'spirinlik, o'smirlik davrlari. Yelimli tasma yordamida fotosuratlarni yopishtirib “oilaviy albom betlarini” tayyorlaydilar. Har bir guruh har bir yosh davri bo'yicha berilgan savollarga javob yuzasidan chiqish qiladilar.

O'qituvchi flipchartga asosiy yosh davriga tegishli xarakterli xususiyatlarini yozib chiqadi. Guruhlarning chiqishlaridan so'ng O'qituvchi bolaning har bir yosh davriga tegishli xususiyatlar va ehtiyojlari bo'yicha xulosa chiqaradi.

2-ilova

«Kak babochka» filmini tomosha qilish (30 daqiqa)

Film muhokamasi (30 daqiqa)

Muhokama uchun savollar:



Film sizda qanday hissiyotlarni uyg'otdi?

Sizga nima ko'proq ta'sir qildi?

Asosiy qahramonning hayoti boshqacha kechishi mumkin edimi? Qanday qilib?

Sizning fikringizcha, muassasa bola rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Qanday oqibatlariga olib keladi?

Bola yopiq tipdagi muassasaga tushmasligi uchun qanday xizmatlarni tashkil etish lozim?

Uyga vazifa: treningda olingan ma'lumotlar va tanish bo'lgan nogironligi bo'lgan bola rivojlanishi haqida esse tayyorlash.

4-Amaliy mashg'ulot: Reabilitatsion pedagogikada ergoterapevtik texnologiyalar

Tinglovchilar soni - nafar	O'quv soati – 4 soat
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy
O'quv mashg'ulotining tuzilishi	1. Amaliy mashg'ulotga tayyorgarlik. 2. Vazifalarni e'lon qilish. 3. Savollarga javob berish. 4. Guruhlarda ishlash. 5. Guruhlar taqdimoti. 6. Mavzuni mustahkamlash. 7. Mustaqil vazifalar berish.
O'quv mashg'ulotining maqsadi	Tinglovchilar ergoterapiyaning asosiy terminlarini va kategoriyalarini tushunadilar, ergoterapiya va maxsus pedagogikaning bog'liqligi haqida tasavvurga ega bo'ldilar.
O'quv faoliyatining natijalari	1. Tinglovchilar ergoterapiyaning mohiyatini muhokama qildilar va u haqidagi tushunchalarini mustahkamladilar. Tinglovchilar psixik va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar va kattalarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi maxsus pedagogning ahamiyatini tushundilar. 3. Tinglovchilar hayotiy malakalarni shakllantirish bo'yicha ish usullari haqida tasavvurga ega bo'ldilar..
O'qitish usullari	Mashq, guruhlar bilan amaliy ish, muhokama, ma'ruza
O'qitish shakllari	Yakka, guruhli
O'qitish shart-sharoitlari	Texnik vositalardan foydalanishga va kichik guruhlarda ishlashga



	mo'ljallangan auditoriY.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat.

Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi

Bosqichlar	Faoliyat mazmuni	
	Professor - O'qituvchi	Tinglovchilar
Tayyorgarlik Bosqichi (5 - minut)	Tinglovchilarni mazkur mavzudagi amaliy mashg'ulot mavzusi, rejasi hamda tayyorgarlik uchun adabiyotlar ro'yxati bilan tanishtiradi. (1-ilova).	Amaliy mashg'ulotning rejasi bilan tanishtiriladi, mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radilar.
1-bosqich. "Pazllar" mashqi (80-minut) (1-ilova)	1.1. <i>Topshiriq:</i> Ishtirokchilar guruhlariga bo'linadilar. Har bir guruh pazllar jamlanmasini oladilar. Pazllar oddiy mozaikalar va ma'lum bir iboralar yozilgan shakllardan iborat. Ushbu iboralarni terib chiqish va ularni o'qish lozim. Vaqt – 3 daqiqa. 1.2. Professor - O'qituvchi yordami bilan ishtirokchilar xulosalar chiqaradilar.	1.1. Ishtirokchilarni ular vazifani bajara olishga qobiliyatlari yo'qligi uchun emas, balki ular uchun sun'iy ravishda yaratilgan qiyinchiliklar uchun bajara olmaganliklari xaqidagi fikrga olib kelinadi (agarda ko'rishida muammosi bor kishilar uchun yozuvlar aniq va yorqin rangda yozilganida, mental buzilishi bo'lgan kishilar uchun aniq ko'rsatmalar berilganida va h.k. vazifa hech qanday qiyinchiliklarsiz bajarilgan bo'lar edi). 1.1. ishtirokchilar xulosalar chiqaradilar
2-bosqich. Filmni tomosha qilish va uning muhokamasi (60-minut).	2.1. «Nogiron qirol» filmni namoyish etadi (30 daqiqa) 2.2. Film muhokamasi (30 daqiqa)	2.1.Tinglovchilar filmni diqqat bilan tomosha qiladilar 2.2. Muhokama davomida umumiy tushunchaga kelishga harakat qiladilar
3-bosqich. Yakuniy bosqich yakunlovchi 20-minut.	3.1. Vazifani bajarish jarayonida qilingan xulosalar berilgan jadvalni to'ldirish asosida chiqariladi. Ish yakunlarini e'lon qiladi. 3.2.Darsda faol ishtirok etgan Tinglovchilar qayd etiladi. 3.3.Mustaqil ish uchun vazifa	3.1. Jadvalni to'ldiradilar. Tinglaydilar va yozib oladilar. Fikr va muloxaza bildiriladi. 3.2. e'tirof etiladi. 3.3. Tinglaydilar va yozib



	beradi. (4-ilova)	oladilar.
--	----------------------	-----------

1-ilova

“Pazllar” (I.Ya.Kuznesova tomonidan o‘zgartirilgan)

Maqsad: ”nogironlik” vaziyatini modellashtirish va tinglovchilarda nogironlikning ijtimoiy tushunchasini rivojlantirish

Vaqt: 60 daqiqa.

Topshiriq: Ishtirokchilar guruhlariga bo‘linadilar. Har bir guruh pazllar jamlanmasini oladilar. Pazllar oddiy mozaikalar va ma’lum bir iboralar yozilgan shakllardan iborat. Ushbu iboralarni terib chiqish va ularni o‘qish lozim. Vaqt – 3 daqiqa.

Ko‘rsatma: Topshiriqni bajarishga kirishishdan avval bint, yelimli tasma yordamida ba’zi ishtirokchilarning harakatlari biroz chegaralanadi: tirsakni buka olmasligi uchun bint bilan bog‘lab qo‘yiladi, yelimli tasma bilan o‘ng qo‘ldagi ikkita barmoq birlashtirib yopishtiriladi, Oyoqlari arqon bilan stulga qattiq bog‘lab qo‘yiladi. Bu insonni harakat buzilishlariga ega odam sifatida his etishga imkon beradi. Boshqa ishtirokchilarga uncha katta bo‘lmagan pazllar berilib, bunda har bir topshiriqdagi bir necha “to‘g‘ri” elementlar boshqa mashqlardagi xuddi shunday katta-kichiklikdagi, shakl va rangi bo‘yicha o‘xshashiga almashtiriladi. Tabiiyki, ishtirokchilar mashq o‘tkazuvchining elementlarni almashtirib qo‘yganligini bilmaydilar. Shu tarzda ishtirokchilar mental buzilishlarga ega odamlarning hislarini tushuna oladilar.

Boshqa guruh ishtirokchilari juda mayda shriftdagi va bo‘g‘inlari tashlab ketilgan mozaikani yig‘adilar – shu tarzda ko‘rishida nuqsonlari bo‘lgan odamlar tomonidan ma’lumotlar olish muammosi vaziyati modellashtiriladi. Va nihoyat oxirgi guruh auditoriyadan tashqariga chiqariladi hamda ularga hech qanday ko‘rsatma berilmaydi. Bu eshitishida muammosi bo‘lgan kishilar duch keladigan vaziyatni yaratishga va ularning kechinmalarini o‘z boshlaridan o‘tkazib ko‘rishlariga imkoniyat beradi.

O‘qituvchi vaziyatni yanada qiyinlashtirishi mumkin, u doimo ishtirokchilarni mashqni tezroq bajarishni, bu kabi mashqlarni sog‘lom odamlar juda tez bajarishlarini ta’kidlab turadi.

Mashqdan so‘ng ishtirokchilar o‘z his-tuyg‘ularini tavsiflab beradilar. O‘qituvchi, ishtirokchilar his etgan ushbu salbiy hislarga nogironligi bo‘lgan kishilar har kuni duch kelishlarini, bu ularning real hayotlari ekanligini aytib, xulosa qiladi.

O‘qituvchi savol beradi:

Nima uchun bu vaziyat yuzaga keladi?

Ishtirokchilar his etgan qiyinchiliklarning sababi nimada?

O‘qituvchi yordami bilan ishtirokchilar nogironlikning ijtimoiy modeli bo‘yicha xulosalar chiqaradilar.

Xulosa: Ishtirokchilarni ular vazifani bajara olishga qobiliyatlari yo‘qligi uchun emas, balki ular uchun sun’iy ravishda yaratilgan qiyinchiliklar uchun bajara



olmaganliklari xaqidagi fikrga olib kelinadi (agarda ko'rishida muammosi bor kishilar uchun yozuvlar aniq va yorqin rangda yozilganida, mental buzilishi bo'lgan kishilar uchun aniq ko'rsatmalar berilganida va h.k. vazifa hech qanday qiyinchiliklarsiz bajarilgan bo'lar edi).

Xuddi shunday, nogironligi bo'lgan kishi ham u bu vazifani o'z kasalligi yoki nogironligi tufayli emas, balki kerakli sharoit yaratilmaganligi, ya'ni panduslar, surdopedagoglar, assivtiv texnologiyalarning yo'qligi sababli bajara olmaydi, xolos.

O'qituvchi uchun eslatma

Ishtirokchilar o'qituvchiga nisbatan o'ta norizolik, alamzadalik, xafagarchilik hislarini namoyon etadilar. Ishtirokchilar o'z salbiy hissiyotlari xaqida so'zlashlariga yoki noqulay ahvolga tushib qolmasliklari uchun imkoniyat va yordam berish zarur.

Ishtirokchilar boshlaridan kechirgan hissiyotlari haqida so'zlab berganlaridan so'ng O'qituvchi ishtirokchilarga o'z salbiy hissiyotlaridan xoli bo'lishlariga yordam berishi, mashqning maqsadini, ushbu vaziyat ataylab tashkil etilganligini aniq tushuntirib berishi lozim.

Ishtirokchilarga pazllarni to'g'ri terib chiqishlariga imkoniyat beriladi va ularning harakatlari qo'llab-quvvatlanadi hamda barcha harakatlar aniq va to'g'ri bajarilganligi ta'kidlab o'tiladi. So'ngra nogironligi bo'lgan kishilar nisbatan qo'llaniladigan so'zlar va iboralar tahlil etiladi, alamzadalik, jahldorlik, tajovuzkorlik, o'zini-o'zi past baholashlari kabi holatlar aynan ularga nisbatan nohaqlik tufayli yuzaga kelishini ta'kidlab o'tish lozim. Nogironligi bo'lgan kishilar hayotlari davomida doimiy ravishda o'z imkoniyatlarini amalga oshirishga imkoniyat bermaydigan turli xil to'siqlarga va nohaqsizlikka duch keladilar.



V. KEYSLAR BANKI

1. Tojjeva Saida, 12 yosh.

Qizcha gaplashmaydi, tovushlar chiqaradi, ammo hamma narsani tushunadi. Xayolparast, uzoq jim turadi, faqat bir ish bilan mashgʻul boʻladi, doimo oʻziga eʼtibor talab qiladi. Oʻzi kiyinadi va oʻzini orasta tutishga harakat qiladi. Oʻzi ovqatlanadi, avvalda pala-partish ovqatlangan boʻlsa ham, hozir tartibli ovqatlanadi. Narsalarni ushlaydi, hamma narsani oʻz joyiga qoʻyishga harakat qiladi (doimiy yordam kerak). Kubiklarni taxlashni va yotar joyini yigʻishtirishni yaxshi koʻradi.

2. Hamdarova Muxlisa, 8 yosh.

Kuzatuvi bor, harakatdagi jismlarni kuzatadi. Am-ma, na-na kabi tovushlarni talaffuz etadi. Ismini biladi. Savollarga kulib javob beradi. Artikulyatsiyani kaytarishga harakat qiladi. Jismlarni qoʻlida ushlay oladi, osilib turgan oʻyinchoqlarni oʻynashga harakat qiladi. Faqat yotadi. Oʻz-oʻziga xizmat qilish malakasi yoʻq.

3. Tursunxodjaeva Malika, 6 yosh.

Yigʻloqi. Ayrim hollarda tajovuzkor. Gapirmaydi, «uvillaydi». Kuzatuvi bor, unga murojaat etilsa ahamiyat beradi. Bir necha soniya oʻyinchoqlarni qoʻlida ushlab tura oladi. Oʻz-oʻziga xizmat qila olmaydi. Chaynaydi, suyuq ovqatlarni yaxshi yuta oladi, yordam bilan oʻtiradi.

4. Qosimova Muyassar, 4 yosh.

Xarakteri tinch. Shovqinga axamiyat beradi. Ismini biladi. Kuzatuvi qisqa vaqtli. Gaplashganda quloq soladi. Soʻzlashuvchiga bir necha soniya qarab turadi. Gapirmaydi, unli tovushlar chikaradi. Oʻz-oʻziga xizmat qila olmaydi. Chaynamay yutadi. Predmetlarni qoʻlida ushlay olmaydi.

5. Ismoilov Abdullo, 5 yosh.

Tajovuzkor, kuzatuvi bor, ismiga ahamiyat bermaydi, buyruqlarni bajarmaydi. Predmetlarni qoʻlida ushlay olmaydi, fakat tega oladi. Gapirmaydi, unli tovushlar chikaradi. Oʻz-oʻziga xizmat qila olmaydi. Chaynadi, suyuq taomni yaxshi yutadi. Qoʻliga tayangan holda oʻzi oʻtira oladi.

6. Nurmatov Raxim 15 yosh

Xarakteri tinch. Soʻzlashayotgan sherigiga karaydi. Ismini biladi. Bir xil buyruqlarni tushunadi. Gapirmaydi, istaklarini imo-ishora orqali bildirib «uvillaydi». Oʻz-oʻziga xizmat qila olmaydi, chaynaydi. Suyuq taomlarni yaxshi yutadi. Yordamsiz mustaqil yuradi.

7. Niyazova Diana, 14 yosh.

Xarakteri tinch. U bilan soʻzlashganda javoban kuladi. Ismini biladi. Gapirmaydi, istaklarini imo-ishora bilan bildirib «uvillaydi». Qisman oʻz-oʻziga xizmat kilish malakasiga ega: mustaqil ovqatlanadi, kiyintirganda qoʻlini choʻzadi,



yuz-qo'lini yuvadi, sochiq uzatsangiz artinadi.. Chaynaydi, suyuq taomni yaxshi yutadi. Mustaqil yurmaydi, yordamsiz o'tira oladi.

8. Ilyosov Xojiakbar, 11 yosh.

Tajovuzkor, kuzatuv bor, ismiga qaraydi, buyruqlarni bajarmaydi. Predmetlarni qo'lida bir necha soniya ushlab tura oladi. Gapirmaydi, istaklarini imo-ishora orqali bildirib ayrim tovushlarni talaffuz qiladi. O'z-o'ziga xizmat qilish malakasi yo'q. Chaynaydi, suyuq taomlarni yaxshi yutadi. Yordamsiz mustaqil yura oladi.

9. Fayzullaeva Azimaxon, 5 yosh.

Barvaqt bolalar autizmi.

Tekshiruv natijasida bolani tajovuzkorligi, doim baqirishi, nutqni yo'qligi, nigohini qaratmasligi, xulqidagi stereotip harakatlarini qaytarishi kuzatiladi (sovun hidlash). Kursatmalarni bajarmaydi. Ota ona so'zidan: bola mustaqil yeydi, qalamni qo'lida yaxshi ushlaydi va chizadi.

10. Lyan Andrey, 13 yosh.

Barvaqt bolalar autizmi.

Bolada quyidagilar kuzatildi: tajovuzkorlik, nutqning yo'qligi, psixik jarayonning buzilishi, ko'zga tik boqmasligi, ko'rsatma va iltimoslarni bajarmasligi qayd etildi. Tanish muhitda bo'yoqlar bilan rasm chizadi, qora rangni afzal kuradi. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakasiga ega.

11. Umarov Ma'ruf, 8 yosh.

Posttravmatik ensefalopatiya, motor afaziyasi, nutqning to'liq rivojlanmaganligining 1-darajasi.

Bola tajovuzkor, giperqo'zg'aluvchan, xulqida noadekvat holatlar kuzatiladi. Bola o'yin faoliyatida qatnashmaydi, qiziqishi yo'q, qo'li barmoqlari hatti-harakatlarining buzilganligi, ranglarni ajrata olmasligi, nutqining exolalikligi (ma'nosiz so'zlashuvchining so'zini qaytarishi) kuzatiladi. Ko'rsatmalarni bajarmaydi, qaratilgan nutqga axamiyat bermaydi.

12. Omonjonov Ortiqjon, 5 yosh.

Epilepsiyaning farmakorez holati, ruhiy va nutqiy rivojlanishning sustligi, anemiya.

Murojaat paytidagi epileptik tutqanoqlikning doimiy qaytarib turilishi sababi – bola nutqi asta-sekin yo'qola boshlagani aniqlandi.

Muloqoti – imo-ishoralar bilan. Predmetli rasmlarni nomlay olmaydi, ranglarni bilmaydi, hisoblash malakasi yo'q, qo'lida ruchka va qalamni ushlay olmaydi. O'z-o'ziga xizmat malakasiga ega emas. Kommunikativ va ijtimoiy malakalari yo'kligi namoyondir.

13. Habibullaev Behruz, 10 yosh.

Daun sindromining mozaik ko'rinishi.



Kuzatilganda – muloqot va ijtimoiy moslashuvning yo‘qligi aniqlandi. Yangi sharoitda - muhitda va yangi odamlar orasida qo‘rquv hissi kuzatilishi aniqlandi. Bola gapirmaydi. Predmetli rasmlarni nomlay olmaydi. Ranglarni xisoblashni bilmaydi. Qo‘liga ruchka va qalamni ushlay olmaydi, o‘z-o‘ziga xizmat malakasiga ega emas.

14. Mardonova Shahlo, 15 yosh.

Ko‘rib qabul qilish malakalari yaxshi rivojlangan. Ko‘rgan narsa yoki buyumni qaerda saqlanishi, qaerda ishlatish kerakligini tushunadi va ko‘rsatadi. Mardonova Shahlo o‘z-o‘ziga xizmat malakalari yaxshi shakllangan, tish yuvish, yuvinish, kiyimlarni kiyish, yechish, ovkatlanishni biladi. Kattalar qilgan ishlarni davom ettira oladi. Mehnat ko‘nikmalari ham rivojlangan, o‘t yulish, axlat tashish, chang artishni biladi. U soqov, shuning uchun u o‘ziga kerakli narsa yoki buyumni imo-ishora orqali tushuntiradi. Rangli rasmlarga qiziqadi, tushunsa ko‘rsatib tushuntiradi. Mayda qo‘l motorikasi yaxshi rivojlangan, lego ranglarini ranglarga qo‘shib to‘g‘ri yasaydi. Yirik motorikasi xam yaxshi rivojlangan, harakatli o‘yinlarda faol qatnashadi.

15. Gulmurodov Ravshan, 13 yosh.

DSP, tetroparez, g‘ilaylik, mikrotsefaliya.

Olingan vaqtda bolaning nutqi yo‘q edi, predmetlarni unchalik ushlay olmasdi, harakati kam edi. Hozir harakatlari ancha yaxshi, predmetni ushlab yura oladi, piyolani ushlab choy ichadi, diqqatini bir joyga jamlay oladi. Unga otini aytib chaqirsa qarab keladi. O‘yinchoqlarini yaxshi, ikki qo‘l bilan ushlab o‘ynaydi. Bugungi kunda shu malakalari shakllantirilib kelinmokda. Kamchiliklari: yozilib qo‘yadi, tez – tez almashtirilmasa qo‘li bilan o‘ynaydi. Tishlaydi, o‘rtoqlarini uradi, o‘yinchoqlarni otadi, qoshiq ushlay olmaydi.

16. Suyarkulov Axmad, 18 yosh.

Ushlashni, turishni bilmasdi, qo‘l va oyoq harakatlari yaxshi emas. Hozir narsalarni bir qo‘lidan ikkinchi qo‘liga oladi, qo‘llarini og‘ziga olib keladi, mashg‘ulotga yaxshi qatnashadi, diqqatini bir joyga jamlay oladi. Bugungi kunda shu malakalari shakllantirilib kelinmokda. LFK mashqlarini bajarib hozir predmetni ushlagan holda 5-10 daqiqa tura oladi. Kamchiliklari: yozilib qo‘yadi, qo‘li bilan ovqat yeya olmaydi, jahli chiqsa baqirib tashlaydi.

17. Jamalova Gulnoza, 17 yosh.

Uncha o‘tira olmaydi, predmetni ushlashga qiynaladi, harakati juda kam. Hozirda predmetni ushlay oladi, qo‘lini ancha harakatga keltirgan, ismini aytib chaqirganda qaray oladi, LFK mashqlari tufayli hozir o‘tira oladi. Shu malakalari shakllantirilib borilmokda.

Kamchiliklari: qo‘lini ishtonini ichiga solib o‘tiradi, yozilib qo‘yadi, qoshiq ushlay olmaydi.

18. Turopov Alisher, 10 yosh.

Turopov Alisher oilada ikkinchi farzand bo‘lib, o‘z ismini biladi, jismonan rivojlanishi sust, tanasining chap qo‘li sust ishlaydi. Yig‘loqi, ko‘proq bola o‘z –



o'ziga xizmat qilishga qiynaladi, o'ziga tanish bo'lgan odamni joyini biladi. Tarelka, qoshiq, krujkadan foydalana oladi, o'yinchoqni nomi aytilsa o'ziga tanish o'yinchoqni olib keladi va kattalarning iltimosi bilan joyiga qo'yadi. Ikkita - uchta so'zlarni takrorlashga harakat qiladi. Alisher katta-kichik ranglarni ajratishga qiynaladi.

19. Xolmatov O'ktam, 19 yosh.

Xolmatov O'ktam oilada ikkinchi farzand ismini biladi, chaqirsa qaraydi, ismini aytib chaqirsa chapak chaladi, «o'tir-tur, menga ber, ol» so'zlarini tushunishga harakat qilayapti. O'z-o'ziga xizmat qila olmaydi, quvnoq bola. Tarelka, qoshiq, krujkadan foydalana oladi. Ko'radi, eshitadi, nutqi passiv, o'ziga tanish odam va joyini biladi. Qo'lga tushgan buyum va o'yinchoqlarni otadi. Bir joyda o'tira olmaydi, doimo harakatda. Sekin-asta stulga o'tirishga harakat qilmoqda, urushqoq bola, aybini kulib turib yenga oladi.

20. Abdumutalov Nuriddin, 6 yosh.

Abdumutalov Nuriddin oilada birinchi farzand, ismini aytib chaqirsa karaydi, oldimga kel desa keladi. Kurishi, eshitishi yaxshi, nutki passiv, uz-uziga xizmat kila olmaydi. Koshik va chashkadan foydalanib ovkatlanadi. Musika eshitishni yaxshi kuradi. Uyinchoklardan mashina va koptokni yaxshi kurib uynaydi. Tovush va sezgiga jilmayadi, chapak chaladi. Kamchiliklari: kup yoziladi.

21. Tolipova Marjona, 15 yosh.

Tolipova Marjona internatga kelgan vaqtida uy bolasiligi bilinib turardi, toza va ozoda qiz edi, keyin keyin har xil hunarlar chiqaradigan bo'ldi. Ishtoniga siyib qo'yadigan odat chiqardi. Ust-bosh kiyimini ham yirtadigan bo'ldi. Ovqatlanish paytida qoshiqdan foydalanib to'kmay ovqatini o'zi yeya oladi. Televizor ko'rishga qiziqmaydi, boshqa bolalar bilan qiziqib ko'shilib o'ynamaydi. Bir o'zi o'tirishni yaxshi ko'radi. O'ziga-o'zi xizmat ko'rsata oladi. Ust-bosh kiyimini yechib kiyishni biladi.

22. Sultonova Omina, 13 yosh.

Tutqanoqli sindrom.

Sultonova Omina ko'rib qabul qilish malakalari shakllanmoqda. O'ziga-o'zi xizmat qilish malakalaridan o'zi mustaqil qoshiqda likopchadan olib iste'mol qiladi. Yuvinish, kiyinish jarayonida qatnashmaydi. Omina o'z tana a'zolarini to'g'ri ko'rsatib beradi. Mayda qo'l motorikasi uncha rivojlanmagan, faqat konfet berganda ochib yeyishni yaxshi ko'radi. Yirik motorika yaxshi rivojlangan, tanasini to'g'ri tutib yura oladi. O'yinchoqlar bilan o'ynashni yaxshi ko'rmaydi. Uni o'yinchoqlar, rangli rasmlar ko'rishga, o'ynashga o'rgatish kerak. Sultonova Omina juda qattiq tutqanoq'i tutadi. Gohida ishtoniga siyib o'tiradi. Ovqatga qo'llarini tiqib yeyishga o'rganib qolgan. Omina cho'milishni yomon ko'radi .



23. Soatova Muslima, 6 yosh.

Bu bola eshitish qobiliyati yaxshi. Ismini aytganda qaraydi. Bolalarni ismini aytganda ko'rsatadi va ismini aytgiz qaytaradi. O'z-o'ziga xizmat qilishda yengil kiyimlarni o'zi yechadi va taxlaydi. Ovqatlanishda qoshiq, likopcha va piyoladan foydalanadi. To'g'ri ovqatlanadi. Tananing uch qismini ko'rsatadi. Urishqoq va qaysar, jahli chiqqanda bolalar bilan urishadi va itarib yuboradi. Tez ovunmaydi. Unga ko'proq e'tibor berishingizni talab qiladi.

24. Raupov Abdujalil, 13 yosh.

DSP meningotsefaliya, Olingan vaqtida bola piyolani ushlay olmasdi, uni qo'llari, oyoklari yaxshi harakat qila olmasdi. Hozir ancha o'zgarishlar bor, nutqi yaxshi, «oyi, xayr» deb tushuntira oladi. Mashg'ulotga yaxshi qatnashadi, qo'lidan ushlay yuradi, piyolani ushlay choy icha oladi. Ko'rishi va eshitishi, diqqatini bir joyga jamlashga ancha o'rgandi. Mashg'ulotda o'tilgan mavzularni qaytara olish kabi malakalar shakllantirilib borilmokda. Qo'lini og'ziga olib borib keladi, siyib qo'yib aytmaydi.

25. Xalilov Aziz, 12 yosh

DSP, mikrotsefaliya.

Ko'rinishi juda nimjon, va ozg'in. Juda yaxshi ovqatlanadi (berilgan taomni yeydi), hattoki o'tni va toshlarni, farqiga bormay barcha narsani og'ziga tiqadi, shuning uchun doimo nazorat qilish lozim. Shuncha ovqatlanib, sira semirmaydi. Aziz ismiga yaqindagina javob bera boshladi. Ba'zida "o'tir" deganini tushunadi. Uni doimo nazoratda ushlay lozim, u to'satdan o'zini ovqatga tashlab, shartta olib hamma narsani og'ziga tiqadi. Atrofdagilar, o'yichoqlar bilan kam qiziqadi, bolalar bilan sira o'ynamaydi. Xududda va guruhda yengil va tez harakatlanadi. U xolerik, bir joyda ko'p o'tira olmaydi, kiyimini so'radi, pelenkalarni yeydi va g'ajiydi, krovatini tishlaydi. Ba'zida o'ziga o'zi nimalarnidir pichirlab, jilmayadi, musiqani berilib tinglaydi.

26. Raxmanbaeva Iroda, 19 yosh.

DSP.

Tashqi ko'rinishidan sog'lom, doimo kulib turadi, kayfiyati yaxshi. Ko'pincha shamollashlar orqali tashxisi bo'yicha kasali qo'zib turadi. Yaxshi bo'lib turgan paytida juda harakatchan, hamma yerni betartib kezib yuradi. Kiyimini tashlaydi, hojatxonaga borishni so'ramaydi, o'rni doim betartib, doim ovqat izlaydi, kuchsizroq boladan tortib olishi mumkin, begonalar kosalariga qo'lini tiqadi, uni doimo boqish lozim, aks holda baqirishni boshlaydi. O'yinchoqlar bilan qiziqmaydi. Doim so'lagi oqadi, tez-tez kiyim almashtirishi lozim, o'zini-o'zi mutlaqo eplay olmaydi.

27. Jumaev Bekzod, 10 yosh.

Tutqanoqli sindrom.

Doimiy qo'zg'ashlar bo'ladi, mushaklari doim tarang, juda yomon o'tiradi va yordam orqali yuradi. Ko'pincha oh uradi yoki uvlaydi. Reaksiyasi deyarli yo'q



(faqat ovqatga). Faqat ko‘zi harakatlanadi, bu uning eshitishini bildiradi. Kunlab hech nima qilmay va harakatlanmay yotishi mumkin.

28. Asxujaev Ramazon, 16 yosh.

Bola yura olmaydi, e‘tiborsiz, gapirmaydi va hech nimaga qiziqmaydi. O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishni bilmaydi, kiyim kiyishni ham bilmaydi. Ovqatlanish paytida o‘zi yeydi va ichadi, qoshiq va piyolani noto‘g‘ri ushlaydi.

Oddiy topshiriqlarni tushunmaydi (ber, ol). Ko‘rish eshitish qobiliyati bo‘yicha, bola musiqani tinglaganda tinchlanadi, tovush manbasiga quloq soladi, turli tovushlarni chiqaradi.

29. Hamidov Rustam, 10 yosh.

Gapirmaydi, unli tovushlar chiqaradi. O‘z-o‘ziga xizmat qila olmaydi. Chaynamaydi, fakat yutadi, predmetlarni qo‘lida ushlay olmaydi, doim latta chaynaydi. E‘tibori yo‘k, ismiga va shovqinlarga javob bermaydi. Xarakteri tinch. Yurmaydi, yordam orqali o‘tira oladi.

30. Hasanova Sitara, 9 yosh

Tajovuzkor. E‘tiborli, harakatdagi jismlarni kuzatadi. Ismiga javob bermaydi. Buyruqqa ahamiyat bermaydi. Jismlarni qo‘lida ushlay olmaydi. O‘z-o‘ziga xizmat qila olmaydi.

31. Xolmatov Dilshod, 7 yosh .

Tajovuzkor, e‘tiborsiz, ismiga javob bermaydi, buyruqlarni bajarmaydi. Doimo aylana bo‘ylab yuguradi, devorga qo‘li bilan uradi. 2-3 ta tovushlar chiqaradi. O‘z-o‘ziga xizmat qila olmaydi.

32. Azamov Yodgor, 10 yosh.

Meningo – ensefelit kasalligini asorati, ikkilamchi mikrotsefaliya. Tekshiruv natijasida: bola gapirmaydi. Qo‘lida hech narsa ushlaymaydi. Ko‘zga tik boqmaydi. Bolada hech qanday xissiy ko‘rinishi yo‘q, umumiy faoliyati – ma‘nosiz domiy yurish. Honada mustaqil harakatlanadi.

33. Yakubov Mirkomil, 7 yosh.

Farmakatoz. Tuberooid skleroz, chap taraflama gemiparez.

Bola tajovuzkor, unga qaratilgan nutqning tushunmasligi, nutqning noaniqligi, aloqa ko‘nikmasi, ijtimoiy ko‘nikmasi yo‘kligi; elementar o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishni bilmasligi (mustaqil yemaydi, kiyinmaydi, yuvinmaydi va hok.), predmetlarni harakatlantira olmasligi, chap qo‘lining harakatlanishi cheklanganligi aniqlandi.

34. Ibragimov Kamol, 4 yosh.

Daun sindromi. Bola gapirmaydi, o‘ziga qaratilgan nutqni tushunmaydi, hamma bilish jarayoni buzilgan: xotira, diqqat, tafakkuri. Qo‘li va barmoqlari bilan



bajaradigan harakatlari muvofiqlashmagan, idrok etish qobiliyati buzilgan. Bola bilan mulokotga kirishish kiyinrok, bola kuzgaluvchan, serjaxl, tajavvuzkor, emotsional xolati pasaygan.

35. Raupov Abdujalil, 13 yosh.

DSP meningotsefaliya.

Bola piyolani ushlay olmaydi, qo'llari, oyoklari yaxshi harakat kilmaydi. Qo'ldan ushlasa yuradi, piyolani ushlasa choy icha oladi. Ko'rishi va eshitishi, diqqatini bir joyga jamlashga harakat qiladi. Qo'lini og'ziga olib borib keladi, siyib qo'yib aytmaydi.

36. Yuldasheva Nargiza, 16 yosh.

O'ziga-o'zi xizmat kilish malakalari umuman rivojlanmagan. Ovqatni qoshiq bilan yeyishni, mustaqil yuvinib kiyinishni bilmaydi. Nargiza ovqatlarni qo'l tiqib yeydi. Sodda o'yinchok va buyum berganda xursand bo'lib 5 daqiqa qaraydi. O'yinchoklar berib joyiga joyiga qo'yishni bilmaydi. Nargiza ishtoniga siyib, goxida otasi kelib ketgach o'zini urib otadi. Nargizani ayblashganda qo'lini jinsiy a'zosiga tiqib oladi. Nargiza xotira va diqqati juda past. Unga o'yinchok berganda ogziga solib so'rib o'tiradi. Hojatxonaga borishni bilmaydi.

37. Tadjibaev Javohir, 14 yosh.

DSP, mikrotsefaliya.

Uumuman hech narsani sezmaydi, o'yinchoq xam o'ynamaydi, o'zicha hech nima qilmaydi. Ovqatni yeya olmaydi, choy icha olmaydi, ovqatni tiliga olib yutadi, unda bunda tovushni chiqarib qo'yadi. Oyoq va qo'llari bog'lik turadi, chunki oyoq va qo'lini so'rib tashlaydi, qo'llarini so'rganidan shilib tashlaydi, hatto o'tirmaydi. Ko'p so'lak chiqaradi, latta yoki adyol og'ziga tegsa darrov so'lagini oqizib ho'l qiladi. O'zi qoshiqni, stakanni ushlaymaydi, o'zi choy icha olmaydi. Nutqi yo'q, turmaydi, yurmaydi, gapirmaydi, gapga ham tushunmaydi. Agar oyoq qo'li bog'liq bo'lib og'zi bo'sh qolsa baqirib yig'lashga tushadi. Ovqati maydalangan bo'lishi kerak. Odamga umuman qaramaydi, o'zi o'zi bilan ovora. Yotgan joyda chichib-siyib qo'yadi, lattalarni chaynab tashlaydi.

38. Arbaeva Tulg'anoy, 12 yosh.

Bolaning eshitish kobiliyati past, gapirmaydi. yurishga qiynaladi, tez charchab koladi. Mustaqil yuvina olmaydi. Ovqatlanishga qiynaladi, yordam bersangiz qoshiqni tishlab o'jarlik qiladi. Kiyina olmaydi, o'z kiyimlarini tanimaydi, oyoq kiyimlarini yecha olmaydi. Nutqi yo'q, imo –ishorasi yo'q. O'yinchoqqa qaramaydi. Qo'lga biror-bir predmet yoki o'yinchoq bersangiz og'zi bilan tekshiradi.

39. Boboqulov Hasan, 6 yosh.

Oligofreniya, imbesil, tutqanoq sindromi.

Bu bolaning eshitish qobiliyati past, gapirmaydi. Doim diqqat markazida. Bola harakatchan, yo'lda uchragan bolani itaradi, yiqitadi. Ovqatlanishda qoshiq, likopcha



va piyoladan foydalanadi. Kiyinishda beparvo. O'z oyoq kiyimlarini tanimaydi. Yig'loqi, kulgu uyg'otuvchi qiliqlar qiladi. Suv o'ynashdan zavq oladi. Ismini aytib chaqirsangiz qaramaydi. Nutqi past. Gapirsangiz qaramaydi, boshini sarak-sarak qilib turli tovushlar chiqaradi. Erkalanishni yaxshi ko'radi.



VI. GLOSSARIY

№	O‘zbekcha	Inglizcha
1.	<p>ABILITATSIYA – bola yoki katta kishida rivojlanishdan keskin ravishda orqada qolgan yoki mavjud bo‘lmagan ruhiy va jismoniy funksiyalarni, ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda shakllantirish</p>	<p>HABILITATION - services that help a person learn, keep, or improve skills and functional abilities that they may not be developing normally.</p>
2.	<p>ASSISTIV TEXNOLOGIYA - AKT dan foydalangan holda nogironligi bo‘lgan kishilarning funksional imkoniyatlarini yaxshilaydi yoki yuqoriga ko‘taradi, bu o‘z navbatida, uning imkoniyatlaridan reabilitatsiya jarayonida cheksiz ravishda foydalanish imkoniyatini beradi: ko‘rishida muammosi bo‘lgan kishilar uchun o‘quv dasturi; masofadan o‘qitish yoki bandlik va boshqalar.</p>	<p>ASSISTIVE TECHNOLOGY - Any item, piece of equipment or product system, whether acquired commercially off the shelf, modified, or customized, that is used to increase, maintain, or improve the functional capabilities of children with disabilities.</p>
3.	<p>JAMOA BAZASIDAGI REABILITATSIYA – jamoada yashayotgan nogironligi bo‘lgan bola yoki katta kishining ehtiyojlarini qondirishga asoslangan yaxlitlik yondoshuvi: shaxsiy, ijtimoiy, ta’lim, mehnat, bo‘sh vaqtini o‘tkazishdagi ehtiyojlariga qaratiladi, tor doiradagi tibbiyot yoki maxsus yordamga tayanib qolmaydi. Ehtiyojlar, birinchi navbatda, nogironligi bo‘lgan kishining o‘zi tomonidan yoki bolaning ota-onasi bilan birgalikda aniqlanadi. Ehtiyojlarni qondiruvchi resurslar jamoaning ichidan qidirilib, ko‘ngillilar ishtirokida keng doirada amalga oshiriladi. Faqat zaruriyat tug‘ilganida (murakkab tibbiyot aralashuvi, ortopedik protezlarni yoki reabilitatsiya uchun boshqa texnik vositalarni olishda) tuman, viloyat yoki respublika darajasidagi muassasalarga murojaat etish uchun yo‘llanma berish mumkin.</p>	<p>COMMUNITY BASED REHABILITATION (CBR) – is a strategy within community development for the rehabilitation, equalization of opportunities and social integration of all people with disabilities. CBR is implemented through the combined efforts of disabled people themselves, their families and communities, and the appropriate health, education, vocational and social services. This approach to CBR is multi-sectoral and includes all governmental and non-governmental services that provide assistance to communities. Many of the services which can provide opportunities for and assistance to people with disabilities are not traditionally considered relevant to CBR programmes and people with disabilities. Examples include community development organizations, agricultural</p>



		extension services, and water and sanitation programmes.
4.	INDIVIDUAL TA'LIM REJASI – individual ta'lim dasturi bolaning imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislar komandasi bilan ishlab chiqiladi (umumta'lim maktab pedagoglari, maxsus, ijtimoiy ishchi, psixolog, ota-onalar) ITRning asosiy maqsadi bola rivojlanishi va ta'lim olishi uchun optimal sharoitlarni yaratishdir. ITRning mazmuni boshqa bolalar o'tayotgan dasturdan ozgina farq qilishi mumkin, lekin boshqa bolalar o'rganayotgan predmetlar asosida ishlab chiqiladi. ITR aniq maqsad va vazifalar, muddati, qo'llaniladigan usullar va baholash tizimiga ega. Bola umumta'lim standartlari asosida dasturlarni o'zlashtira olmagan holatda unga ma'lumotnoma yoki maxsus shakldagi guvohnoma beriladi.	INDIVIDUAL EDUCATIONAL PLAN - is a document that is developed for each public school child who is eligible for special education. The IEP is created through a team effort reviewed periodically. An IEP defines the individualized objectives of a child who has been found with a disability, as defined by federal regulations. The IEP is intended to help children reach educational goals more easily than they otherwise would. ^[2] In all cases the IEP must be tailored to the individual student's needs as identified by the IEP evaluation process, and must especially help teachers and related service providers (such as <u>paraprofessional educators</u>) understand the student's disability and how the disability affects the learning process.
5.	INKLYUZIV TA'LIM – bolalarning psixofiziologik yoki madaniy o'ziga xosligidan qat'i nazar umumiy sinfda o'qitish. Bunda o'qituvchi emas, balki ta'lim tizimi bola ehtiyojlaridan kelib chiqib sharoit yaratadi. Bu jarayonda individual rivojlanish rejasidan foydalanish mumkin.	INCLUSIVE EDUCATION - as once described as an approach where in students with special educational needs spend most or all of their time with non-disabled students. Now it is crucial that all policy makers, school boards, administrators, guidance counsellors, teachers, parents and students ensure inclusive practice in all aspects of educational environments.
5.	NOGIRONLIKNING TIBBIY MODELI – jismoniy imkoniyati cheklangan kishilar jamiyatda duch kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy salbiy to'siqlarni inkor etmaydi, lekin ijtimoiy jamiyatdan ajralish sababini jismoniy cheklanganlikda, deb	MEDICAL MODEL OF DISABILITY - is a medical model by which illness or disability, being the result of a physical condition intrinsic to the individual (it is part of that individual's own body), may reduce the individual's quality



	<p>qaraydi. Muammo faqat tibbiyot nuqtai nazaridan qaralganligi sababli ular faqat reabilitatsiya va davolash orqali hal etiladi: ba'zi bir holatlarda esa kishini institutsional muassasalarga joylashtirish bilan jamiyatdan ajratiladi. Bu kabi ishlar nogironligi bo'lgan kishilarga g'amxo'rlik ko'rsatish, ularning maxsus parvarish olishlari yoki sog'ligini tiklash maqsadida amalga oshiriladi.</p>	<p>of life, and cause clear disadvantages to the individual. The medical model tends to believe that curing or at least managing illness or disability mostly or completely revolves around identifying the illness or disability from an in-depth clinical perspective (in the sense of the scientific understanding undertaken by trained healthcare providers), understanding it, and learning to control and/or alter its course. By extension, the medical model also believes that a "compassionate" or just society invests resources in health care and related services in an attempt to cure disabilities <i>medically</i>, to expand functionality and/or improve functioning, and to allow disabled persons a more "normal" life. The medical profession's responsibility and potential in this area is seen as central.</p>
<p>7.</p>	<p>OKKUPATSIONAL TERAPIYA – texnik vositalardan foydalangan holda nogironligi bo'lgan kishilarda hayotiy kerakli ko'nikmalarni shakllantirish va ularni faollashtirish.</p>	<p>OCCUPATIONAL THERAPY - treatment that helps people who have physical or mental problems learn to do the activities of daily life. It's based on engagement in meaningful activities of daily life (as self-care skills, education, work, or social interaction) especially to enable or encourage participation in such activities despite impairments or limitations in physical or mental functioning.</p>
<p>8.</p>	<p>REABILITATSIYA – bemorlik, baxtsiz hodisa yoki boshqa sabablar oqibatida yo'qotilgan ruhiy yoki jismoniy funksiyalar, ko'nikmalarni tiklash.</p>	<p>REHABILITATION - is a treatment or treatments designed to facilitate the process of recovery from injury, illness, or disease to as normal a condition as possible.</p>



<p>9.</p>	<p>NOGIRONLIKNING IJTIMOYIY MODEL – keng miqyosda nogironligi bo‘lgan kishilar duch keladigan iqtisodiy va madaniy, shuningdek, atrof-muhitdagi to‘siqlarga diqqat-e’tiborini qaratadi. Nogironlikka ega bo‘lgan kishilarni jamiyatning to‘laonli a’zosi bo‘lib yashashiga to‘siq bo‘luvchi holatlarni bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu modelga asosan nogironlikka ega bo‘lgan kishilarning jamiyatdagi holati va huquqlarining buzilishi jamiyat tomonidan sun’iy ravishda yaratilgan bo‘lib, ularning nogironlar ega bo‘lgan buzilishlarga aloqasi yo‘qdir.</p>	<p>SOCIAL MODEL OF DISABILITY - is a reaction to the dominant medical model of disability which in itself is a functional analysis of the body as machine to be fixed in order to conform with normative values.[1] The social model of disability identifies systemic barriers, negative attitudes and exclusion by society (purposely or inadvertently) that mean society is the main contributory factor in disabling people. While physical, sensory, intellectual, or psychological variations may cause individual functional limitation or impairments, these do not have to lead to disability unless society fails to take account of and include people regardless of their individual differences.</p>
<p>10.</p>	<p>ILK ARALASHUV – bola nogironlik bilan bola tug‘ilganidan so‘ng bola va uning oilasiga darhol yoki vaqtli kompleks, ya’ni psixologik, pedagogik, ijtimoiy yordam ko‘rsatish. Turli mutaxassislar komandasi tomonidan bolaga rivojlanishdan orqada qolganida yoki boshqa muammolari bo‘lganida ularni bartaraf etish yoki eng kam darajaga tushirish uchun yordam ko‘rsatiladi (pedagog, maxsus pedagog, logoped, ijtimoiy ishchi, psixolog, jismoniy terapevt, ota-ona va boshqalar).</p>	<p>EARLY INTERVENTION - is a support and educational system for very young children (aged birth to six years) who have been victims of, or who are at high risk for child abuse and/or neglect. Some states and regions have chosen to focus these services on children with developmental disabilities or delays, but Early Childhood Intervention is not limited to children with these disabilities. The mission of Early Childhood Intervention is to assure that families who have at-risk children in this age range receive resources and supports that assist them in maximizing their child’s physical, cognitive, and social/emotional development while respecting the diversity of families and communities.</p>



<p>11.</p>	<p>DEINSTITUSIALIZATSIYA – bu: 1) odamlarni oxirgi hojat bo‘lmaganda stasionarlarga joylashtirish va saqlashdan qoyishga intilish; 2) stasionarda tutib turish zaruriyati bo‘lmagan shaxslarni joylashtirish, davolash, reabilitatsiya qilish uchun munosib maqbul variantlarni tashkil etish; 3) avval stasionarga joylashtirish qarori qabul qilinganlarning yashash joylaridagi parvarish va davolash sharoitini yaxshilash.</p>	<p>DEINSTITUTIONALIZATION - is the process of replacing long-stay psychiatric hospitals with less isolated community mental health services for those diagnosed with a mental disorder or developmental disability. Deinstitutionalisation works in two ways: the first focuses on reducing the population size of mental institutions by releasing patients, shortening stays, and reducing both admissions and readmission rates; the second focuses on reforming mental hospitals’ institutional processes so as to reduce or eliminate reinforcement of dependency, hopelessness, learned helplessness, and other maladaptive behaviours.</p>
<p>12.</p>	<p>INTERNAT MUASSASALARI — keksalar va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatadigan nogironlar uchun «Muruvvat» internat-uylari, keksalar va nogironlar uchun «Saxovat» internat-uylari, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati.</p>	<p>RESIDENTIAL INSTITUTIONS - broadly defined, is a pre-college education provided in an environment where students both live and learn outside their family homes. Varied forms of residential education have been in existence in the United States since before the nation’s founding. Some typical forms of residential education include boarding schools, preparatory schools, orphanages, children and youth villages, residential academies, military schools and, most recently, residential charter schools.</p>
<p>13.</p>	<p>NOVERBAL MULOQOT - tana holati, ishoralar, yuz ifodasi, ovozi ohangi, ko‘z aloqasi, munosabatlardagi masofa, atrof omillari va sharoitlari, aniqlik, ishonchlilik kabilarni o‘z ichiga oluvchi nutqsiz muloqot. Noverbal muloqot sezgi, emotsiya va munosabatlarni yetkazadi. U verbal muloqotdan ko‘ra ko‘proq natija</p>	<p>NONVERVAL COMMUNICATION - is the process of sending and receiving messages without using words, either spoken or written. Similar to the way that italicizing emphasizes written language, nonverbal behavior may</p>



	berishi mumkin va ko‘pincha mijoz nimalarni his qilayotganligini yaxshiroq ko‘rsatib beradi.	emphasize parts of a verbal message.
14.	<p>IJTIMOIIY YORDAM — nogironlarga beriladigan nafaqalar va boshqa to‘lovlar, imtiyozlar, natura tarzidagi yordam (oziq-ovqat mahsulotlari, kundalik ehtiyoj gigiena tovarlari, reabilitatsiyaning texnik vositalari va boshqalar).</p> <p>Ijtimoiy ish jarayoni birinchi navbatda baholash jarayoni o‘tkazilishini taqozo etadi. Baholash jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo‘lib, ular qisman vaqt jihatidan bir- vaqtning o‘zida amalga oshirilishi mumkin: ma’lumotlar olish; dalil va xis-tuyg‘ular tahlili; ayni vaziyatga nisbatan bola va oila qarashlaridan ko‘ra salohiyatli mutaxassis tomonidan vaziyat idrok etilishidagi farqni anglash; bo‘lib o‘tayotganlarni (imkoniyat bo‘lganda oila ishtirokida) tushunishga erishish, oiladagi muammolar, ularning kuchli tomonlari, mazkur omillarning bolaga ta’sirini aniqlash; bola ehtiyojlari hamda harakatlar rejasini shakllantirishda asos sifatida xizmat qiluvchi ota-onalik salohiyati kabilarning tahlilini qilish.</p> <p>To‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyot – alohida shaxslarga, guruh, oilalarga o‘zida terapiya, maslahat berish, ta’limini oshirish kabi vazifalarni aks ettirgan hamda mijozlarning o‘zida o‘z muammolarini hal qila olish salohiyati darajasini oshirishga qaratilgan, ularning hayoti farovonligini yaxshilash, asosiy insoniy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan jarayondir.</p>	<p>SOCIAL ASSISTANCE - consists of help towards towards living expenses or for special circumstances in life. Those receiving help towards living expenses or under special circumstances in life are in an emergency situation, assuming that no other persons, social service systems or other institutions are in a position to provide services or adequate help. Social assistance is intended to ensure recipients an existence with human dignity and if possible enable them to live independent of this help in the future. Help towards living expenses, covering the necessities of daily life, is in most cases calculated in terms of fixed service rates (standard rates). Special emergencies are eliminated by help under special circumstances in life (among others by integration assistance for the disabled, sickness assistance, assistance in building up or securing life’s fundamentals and assistance in overcoming particular social difficulties).</p>
15.	<p>IJTIMOIIY XIZMATLAR – keksalar va nogironlar hayoti sifatini</p>	<p>SOCIAL SERVICES - are a range of public services provided by</p>



	<p>oshirishga, ularga jamiyat hayotida qatnashish uchun boshqa fuqarolarga teng bo'lgan imkoniyatlar yaratishga va(yoki) o'zining bazaviy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar va xatti-harakatlar kompleksi.</p>	<p>governmental or private organizations. These public services aim to create more effective organizations, build stronger communities, and promote equity and opportunity. Social services include the benefits and facilities such as education, food subsidies, health care, job training and subsidized housing, adoption, community management, policy research, and lobbying.</p>
16.	<p>IJTIMOY STEREOTIP – ijtimoiy ob'ektning (guruh, inson, voqealar, vaziyatlar va sh.k.) nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi bo'lib, u ma'lumotlarning yetishmasligi asosida hosil bo'ladi. Odatda bu individning shaxsiy tajribasining umumlashtirilishi, ba'zida esa jamiyatda mavjud bo'lgan ba'zi qarashlarning oqibati sifatida ham namoyon bo'ladi. "Ijtimoiy stereotip" tushunchasi dastlab amerikalik jurnalist U.Lipton tomonidan qo'llanilgan.</p>	<p>SOCIAL STEREOTYPE - are qualities assigned to groups of people related to their race, nationality and sexual orientation, to name a few. Because they generalize groups of people in manners that lead to discrimination and ignore the diversity within groups, stereotypes should be avoided.</p>
17.	<p>Ekologik yondashuv – ijtimoiy ishga tatbiq etilganida ekologik yondashuvda asosiy e'tibor "shaxsning atroq muhitga" munosabati va odamlar hamda atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro harakati darajasiga qaratiladi. Bu yondoshuvda boshqalardan ko'proq e'tibor bir tomondan insonning huquqlari, ehtiyojlari, imkoniyatlari va maqsadlariga muvofiqligiga va boshqa tomondan, muayyan vaqt oralig'ida aniq madaniyat yoki submadaniyatga tatbiqan atrof muhitning sifati hamda xususiyatlariga jalb qilinadi.</p>	<p>ECOLOGIC APPROACH - offers a comprehensive theoretical base that social practitioners can draw upon for effective social treatment. The critical concepts of the ecological approach are presented. It is suggested that the ecological perspective can be a useful treatment strategy for improving the social functioning of the client system.</p>



VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent “Adolat” 2017 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganini 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi 2017 7 dekabr. Toshkent “O‘zbekiston” 2018.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat‘iy tartib – intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston Respublikasi prezidentining nutqi. Toshkent-“O‘zbekiston” 2017 yil.

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining « Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonuni. T.: 2008 yil.<https://www.lex.uz/acs/1297315>.
3. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5270-son 01.12.2017 Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-1533-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-son Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 16-fevraldagi “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 25-sonli Qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 26 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli Qarori.

Maxsus adabiyotlar

1. Conceptual Foundations of Occupational Therapy Practice. Gary Kielhofner, DrPH, OTR/L, FAOTA, Professor and Wade-Meer Chair Department of Occupational Therapy, College of Applied Health Sciences University of Illinois at Chicago, 4th editions, 2009 by F.A.Davis Company, USA.



2. Counseling theories and techniques for rehabilitation and mental health professionals: second edition. Editors: Fong Chan, Phd, CRC, Norman L.Berven, Phd, Kenneth R.Thomas, DEd. Springer publishing company, LLC, 2015 New York.
3. Inclusive Special Education: Evidence-Based Practices for Children with Special Needs and Disabilities, Garry Hornby, University of Canterbury College of Education Christchurch, New Zealand. Springer Science+Business Media New York 2014, 200 pages.
4. Voronin G.L. Konflikty v shkole.// Sotsiologicheskie issledovaniya, 1994. - № 3
5. Gordeeva A. Reabilitatsionnaya pedagogika. M.: Akademicheskiiy proekt, 2005.
6. Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari –T.: RBIMM «Chas’hma print», 2010 g. 92s.
7. Gryunevald G., Nire B. Aqliy va boshqa funksional buzilishlarga ega bo‘lgan shaxslar uchun tashkil etilgan yopiq muassasalarda hayotni me’yorlashuvi. SPb, 2003.
8. Ishmuxammedov R.J. «Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari» Toshkent: 2000y. 161 b.
9. Mo‘minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Hamidova M.U. Maxsus psixologiya T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014.
10. Po‘latova P. va boshqalar. Maxsus pedagogika. T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2014 y.
11. Nurkeldieva D.A. Pedagogik-psixologik diagnostika. T.: “VNES’HINVESTPROM”, 2019 yil .
12. Рыbakova M.M. Konflikt i vzaimodeystvie v pedagogicheskom protsesse. – M.: 1991(1992). – 128 s.
13. Sotsialnaya adaptatsiya, reabilitatsiya i professionalnaya orientatsiya lis s ogranichenymi vozmozhnostyami zdorovya. M.: Akademiya, 2014.
14. Chicherina Ya., Nurkeldieva D., Bondareva Ye. Innovatsionnye podkhody v podgotovke kadrov- defektologov (monografiya). T.: “Navruz”, 2014 g.
15. Chicherina Ya., Nurkeldieva D. Ne integratsiya, a ravnopravie // Bola va zamon. - №2, 2006. - S. 20-21.
16. Chicherina Ya., Nurkeldieva D., Bondareva Ye. Mutaxassislik fanlarni o‘qitish metodikasi. T.: “Fan va texnologiyalar, 2013y.
17. Shubina A.V. Osooby rebenok: uxod i razvitie. Posobie dlya roditeley. T: RSSAD, 2009.
18. Shugurov M.V. Sotsialnyy konflikt i samoosushestvlenie lichnosti. – Saratov, 1994 g. 236 s.
19. Yugay A.X. Laboratorno-prakticheskie zanyatiya po psixologii - T.: TDPU, 2008 g. 92 s.

Internet ma’lumotlarni:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: www.ess-servis.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali: www.gov.uz



3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati, 2004, UNDP DDI: Programme www.lug`at.uz, www.glossariy.uz
4. O'zbek internet resurslarining katalogi: www.uz
5. Infocom.uz elektron jurnali: www.infocom.uz
6. www.press-uz.info
7. <http://www.uforum.uz/>
8. Axborot resurs markazi <http://www.assc.uz/>
9. <http://www.xabar.uz>
10. www.ziyonet.uz
11. www.edu.uz
12. www.pedagog.uz
13. www.tdpu.uz